O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XUSENOV MURODJON ZOXIROVICH,
SALIMOV RO‘ZIBEK NASIM O‘G‘LI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETINING AXBOROT XAVFSIZLIGI SIYOSATI

Buxoro-2025

MUNDARIJA

1. Kirish

Buxoro davlat universiteti (keyingi o‘rinlarda – Universitet) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 28-fevraldagi PF-356 sonli Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 11-martdagi 125-sonli Qaroriga asosan Buxoro davlat pedagogika instituti negizida tashkil etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.12.2021 sanasidagi PQ-60-son va PQ-61-sonli Qarorlari bilan akademik va tashkiliy-boshqaruv va moliyaviy mustaqillik berilgan.

- Universitet O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-200-son qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida ish olib boradi.

- Universitet davlat oliy ta’lim muassasasi hisoblanib, oliy ta’limning asosiy va qo‘shma ta’lim dasturlarini bajarish bo‘yicha ta’lim faoliyatini bilan shug‘ullanadi. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq o‘quv, ilmiy-metodik va boshqa faoliyatlarni amalga oshiradi hamda ta’lim xizmatlarini ko‘rsatadi.

- Universitet o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim tog‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyruqlari hamda mazkur Universitet nizomiga amal qiladi.

Universitetning asosiy maqsadi quyidagilar hisoblanadi:

zamonaviy talablar, ilg‘or xalqaro tajriba va mehnat bozori ehtiyojlari asosiy yuqori malakali, ijodiy fikrlaydigan, halol kadrlarni tayyorlash;

iqtisodiyotning tegishli sohalari bo‘yicha talabalarning fundamental, bazaviy, shuningdek, amaliy kasbiy tayyorgarligini ta’minlaydigan o‘quv reja va dasturlar asosida bakalavrlar, magistrlar tayyorlash;

ish beruvchi ehtiyojidan kelib chiqib, talabalardan tahliliy fikrlash va kasbiy ko‘nikmalar rivojlantirish, yangi bilimlarni mustaqil ravishda egallash va ulardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishni ta’minlaydigan o‘qitishning zamonaviy shakl va metodlari, pedagogik innovatsion, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo‘llash;

fanlarni tanlash imkoniyatini ta’minlagan holda Yevropa kredit tizimini (European Credit Transfer and Accumullation System) joriy etish, shu jumladan talabalar o‘quv yuklamasi hajmini aniqlashning xalqaro shartli birliklarini (kreditlar) o‘tkazish va jamlash tizimini qo‘llagan holda o‘quv jarayonini tashkil etish;

universitetning professor-o‘qituvchilari tarkibini yuqori darajada kasbiy pedagogik mahoratga, huquqiy va siyosiy madaniyatga ega mutaxassislar bilan mustahkamlash;

rivojlangan xorijiy davlatlarning yetakchi ta’lim va ilmiy muassasalari bilan hamkorlikni, qo‘shma huquqiy tadqiqotlarni, professor-o‘qituvchilar va talabalar o‘zaro almashinuvini takomillashtirish;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, iqtisodiyotning tegishli sohalari hamda boshqa tashkilotlarda amaliy ish tajribasiga ega bo‘lgan mutaxassislarni ta’lim

jarayoniga keng jalb etish, ularning malakasini oshirishda samarali tizimni yaratish, xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta’lim, tadqiqot muassasalarining yuqori malakali mutaxassislarini o‘quv, ilmiy-metodik ishlarni tashkil etish jarayonlariga jalb qilish;

tegishli ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv majmualarini, qo‘llanmalarni yaratish va ularni o‘quv jarayonlariga tatbiq qilish;

xorijiy hamkorlar bilan birgalikda kadrlarni tayyorlash bo‘yicha qo‘shma ta’lim dasturlarini (double degree) amalga oshirish, o‘quv-ta’lim jarayoniga xorijiy olimlarni va mutaxassislarni jalb qilish;

milliy iqtisodiyotning tegishli tarmoqlari bo‘yicha ustuvorlikka ega bo‘lgan va ishlab chiqarish ehtiyojidan kelib chiqqan holda ilmiy-tadqiqot ishlarni olib borish va natijalarini amaliyotga tatbiq qilish;

ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarni amalga oshirish va bu ishlarga talabalarni jalb etish;

“HEMIS” platformasini yoki oliy ta’lim tizimini avtomatik boshqarishga qaratilgan boshqa tizimlarni joriy etgan holda ochiq, shaffof, subyektivlik va suiiste’molchilikdan xoli bo‘lgan ta’lim muhitini yaratish;

talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, huquqiy, siyosiy madaniyatini va huquqiy ongini oshirish bo‘yicha samarali tizimni yaratish ularda vatanparvarlik, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni, korrupsiyaga murosasizlik tuyg‘usini shakllantirish hamda rivojlantirish.

Universitet o‘z vazifalarini amalga oshirish maqsadida quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

davlat ta’lim standartlari asosida mamlakatda o‘tkazilayotgan demokratik va huquqiy islohotlar, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va zamonaviy xalqaro standartlarning yuksak talablariga javob beradigan, iqtisodiyotning tegishli sohalari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashni tashkil etadi;

huquqiy va siyosiy madaniyatga, amaliy ish tajribasiga kasbiy va pedagogik mahoratga ega yuqori malakali kadrlarni ta’lim jarayoniga keng jalb etish bo‘yicha choralarni ko‘radi, shuningdek, tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

o‘quv jarayonini ta’lim berishning kredit-modul tizimi va innovatsion o‘qitish usullarini qo‘llagan holda umume’tirof etilgan xalqaro ta’lim standartlari va talablariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda talabalarda iqtisodiyotning tegishli sohalari bo‘yicha tizimli tahlil qilish qobiliyati va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim dasturi asosida olib boradi;

talabalarning mustaqil tayyorgarligini chuqurlashtirishni hisobga olgan holda ish beruvchilar ehtiyojidan kelib chiqib, tahliliy fikrlash va kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan, o‘quv reja va dasturlar hamda o‘quv-metodik materiallarni o‘quv jarayonida qo‘llaydi;

o‘quv jarayonida axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo‘llash, talabalar, o‘qituvchilar va yosh tadqiqotchilarni global axborot va ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi;

professor o‘qituvchilar tarkibi mehnatni normallashtirishni faqat o‘quv tusdagi tadbirlarga asoslangan holda mustaqil amalga oshiradi hamda pedagogik xodimlar

tomonidan ilmiy-metodik, ilmiy tadqiqot, tashkiliy-metodik, ma’naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlarning bajarilishni rag‘batlantiradi;

universitet tomonidan o‘tkaziladigan tadqiqotlar natijalarini o‘quv rejalari va ta’lim dasturiga joriy etish uchun fanlarni o‘qitish sifati va darajasini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy va o‘quv–uslubiy materiallar ishlab chiqadi;

tizimli asosda pedagogik va ilmiy xodimlar malakasini oshirish va stajirovkadan o‘tkazish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, ta’lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb etish, shuningdek, talabalarning akademik almashinuvini ta’minlash bo‘yicha yetakchi xorijiy ilmiy ta’lim muassasalari, tahliliy, tadqiqot markazlari, xalqaro tashkilotlar bilan aloqani mustahkamlaydi;

ijobiy xalqaro tajribani kengroq qo‘llash, shu jumladan, talabalar o‘quv yuklamasi hajmini aniqlashning shartli birliklari (kreditlar) ni o‘tkazish va jamlash tizimini qo‘llaydi;

davlat va xo‘jalik boshqaruv organlari hamda boshqa tashkilotlar bilan birgalikda ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etadi, ularning samaradorligini oshirish va tadqiqotlarning natijalarini amaliyotga keng joriy etish orqali fan-ta’lim-ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlaydi;

o‘qitishning kredit modul tizimini va talabalar bilimini baholash usullarini takomillashtirib, o‘quv jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo‘llaydi hamda o‘quv bazasini takomillashtirib boradi;

rivojlangan xorijiy davlatlarning yetakchi ta’lim va ilmiy muassasalari bilan hamkorlikni, qo‘shma huquqiy tadqiqotlarni, professor-o‘qituvchilar va talabalar o‘zaro almashinuvini doimiy amalga oshirib boradi;

xorijiy hamkorlar bilan birgalikda kadrlarni tayyorlash bo‘yicha qo‘shma ta’lim dasturlarini (double degree) mustaqil amalga oshiradi, o‘quv-ta’lim jarayoniga xorijiy olimlar va mutaxassislarni faol jalb qiladi;

falsafa doktori (Doctor of Philosophy) va fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajalarini olish uchun dissertatsiya ishlarini zamonaviy talablar, iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligini ta’minlash bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshiradi;

o‘z oldida turgan vazifalarini bajarish maqsadida zamonaviy o‘quv va moddiy texnik bazani yaratadi, o‘quv, ilmiy tadqiqot bo‘linmalari, kafedralarni o‘qitishning zamonaviy texnik vositalari, axborot kommunikatsiya tizimlari va dasturiy majmualar bilan ta’minlaydi;

O‘zbekiston Respublikasining ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qodir mutaxassislarni tayyorlashda yuksak iste’dod sohiblariga bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo‘nalishlari bo‘yicha o‘z qobiliyatlarini namoyon etish hamda rivojlantirish, o‘zlaridagi noyob iste’dodni ro‘yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratadi;

talabalarni jamiyatning to‘laqonli a’zosi, vatanparvar, vijdonan va halol mehnat qiluvchi, o‘z kasbining yetuk mutaxassisi bo‘lib yetishishi uchun kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

talabalarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlariga ko‘maklashish, ularda milliy g‘urur, vatanparvarlik va fidoyilik tuyg‘ularini shakllantirish choralarini ko‘radi;

ma’naviy, madaniy, milliy qadriyatlarni keng targ‘ib qilish, kitobxonlikni rivojlantirish, talabalarni milliy va jahon adabiyoti durdonalariga qiziqishini oshirish hamda dunyoqarashini shakllantirishga yo‘naltirilgan tadbirlarni amalga oshiradi;

universitet xalqaro reytingi va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida chet el fuqarolari uchun ta’lim olish imkoniyatini kengaytiradi;

Axborot-resurs markazini huquqiy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy mazmundagi bosma va kitob mahsulotlari hamda o‘quv, ilmiy va boshqa adabiyotlar, jumladan, xorijiy adabiyotlar fondi, o‘qitishning texnik vositalari, shuningdek, global axborot-huquqiy va ta’lim resurslarini muntazam yangilab borishini ta’minlaydi.

Universitet o‘z vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish uchun o‘z faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali joriy etadi va qo‘llaydi. Bunday sharoitda axborot xavfsizligini ta’minlash zarur vazifadir.

Axborot xavfsizligi axborotning konfidensialligi, yaxlitligi va foydalana olishligini saqlash, shuningdek, Universitet faoliyat yuritayotgan va joriy qilingan axborot resurslarining uzluksiz ishlashini ta’minlash nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi. Axborot xavfsizligiga apparat, dasturiy ta’minot, amaliyot, jarayon va tashkiliy tuzilmalarni o‘z ichiga olgan bir qator chora-tadbirlarni joriy etish va amalga oshirish orqali erishiladi.

Axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar Universitetning uzluksiz ishlashini, tahdidlarni amalga oshirish natijasida yetkaziladigan zararni minimallashtirishni, axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini turli tahdidlardan himoya qilishni, ularning ta’sirini bashorat qilishni va oldini olishni, ishbilarmonlik obro‘sini va qonuniy talablarga muvofiqligini saqlashi lozim.

Universitetning axborot xavfsizligi siyosati uning axborot aktivlari va axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini himoya qilishning asosiy tamoyillarini belgilaydi. U Universitet axborot xavfsizligini boshqarish tizimini boshqarish va qurish bo‘yicha tegishli hujjatlarni qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu Axborot xavfsizligi siyosati – Universitet o‘z faoliyatida rahbarlik qiladigan axborot xavfsizligi sohasidagi hujjatlashtirilgan yo‘riqnomalar, qoidalar, jarayonlar va vositalar to‘plamidir.

Mazkur Axborot xavfsizligi siyosati Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi (2025-yil 01-iyundagi 05/101-son xat), O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi (2025-yil 21-avgustdagi 29-8/5931-son xat) hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati bilan (2025-yil 23-sentabrdagi 5/1788-son xat) kelishilgan.

2. Me’yoriy hujjatlar

Axborot xavfsizligi siyosati quyidagi keltirilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslangan holda ishlab chiqilgan:

O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrdagi “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi O‘RQ-560-II-son Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 29-apreldagi “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi O‘RQ-611-II-son Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 11-sentabrdagi “Tijorat siri to‘g‘risida”gi O‘RQ-374-son Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 9-dekabrdagi “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi O‘RQ-395-son Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-547-son Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi O‘RQ-764-son Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrdagi “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi O‘RQ-792-son Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-oktabrdagi “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi O‘RQ-793-son Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining axborot tizimlari va resurslarini himoya qilish davlat tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6007-son Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6079-son Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 3-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida axborotni kriptografik muhofaza qilishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-614-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 8-iyuldagi “Milliy axborot resurslarini muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-1572-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-noyabrdagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4024-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-sentabrdagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4452-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlikni ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4751-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi “O‘zbekiston Respublikasining muhim axborot infratuzilmasi obyektlari kiberxavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-167-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-200-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 26-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi axborot resurslarini tayyorlash va ularni ma’lumotlarni uzatish tarmoqlarida, shu jumladan, internetda tarqatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 137-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 22-noyabrdagi “Axborotlashtirish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish to‘g‘risida” 256-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-maydagi “Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi apparatida, davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarida yagona himoyalangan elektron pochtani va elektron hujjat aylanishi tizimini joriy etish hamda ulardan foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 126-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy axborot resurslarini muhofaza qilishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2011-yil 8-iyuldagi PQ-1572-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 296-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 14-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 8-iyuldagi “Milliy axborot resurslarini muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-1572-son qarorini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 170-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 16-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi axborotlashtirish obyektlarida konfidensial axborot xavfsizligini tashkil etish va ta’minlash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 295-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 373-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari – Davlat sirlarini saqlash bo‘yicha idoralararo komissiya raisi tomonidan 2006-yil 5-dekabrda tasdiqlangan-tarqatilishi cheklangan ma’lumotlarga ega hujjatlar, fayllar va nashrlarni ro‘yxatga olish, ishlov berish va saqlash tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2023 yil 22-sentabrda 3458-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi davlat xavfsizlik xizmati raisining 2023 yil 4-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi kiberxavfsizlik va muhim axborot infratuzilmasi obyektlarining kiberxavfsizligini ta’minlash darajasini baholash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 91-son buyrug‘i;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2024 yil 14 noyabrda 3573-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Raisining 2024 yil 15-oktabrdagi “Kiberxavfsizlik talablariga muvofiqlik yuzasidan ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 113-son buyrug‘i;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2024 yil 14-noyabrda 3574-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Raisining 2024 yil 15-oktabrdagi “Axborot tizimlari va resurslarining kiberxavfsizligini ta’minlash uchun qo‘llaniladigan apparat, apparat-dasturiy hamda dasturiy vositalarni sertifikatlashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 114-son buyrug‘i;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2024 yil 14 noyabrda 3570-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Raisining 2024 yil 24-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi muhim axborot infratuzilmasi obyektlarini toifalash va ularning yagona reestrini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida”gi 118-son buyrug‘i;

O‘z DSt ISO/IEC 13335-1:2009 “Axborot texnologiyalari. Xavfsizlikni ta’minlash usullari. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari xavfsizligini boshqarish. (1-qism). Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari xavfsizligini boshqarish konsepsiyasi va modellari”;

O‘z DSt 2590:2012 “Axborot texnologiyasi. Milliy axborot tizimini shakllantirish doirasida davlat organlari tomonidan foydalaniladigan axborot tizimlari integratsiyasiga va o‘zaro faoliyatiga qo‘yiladigan talablar”;

O‘z DSt 1109:2013 “Axborot texnologiyasi. Axborotning kriptografik himoyasi. Atamalar va ta’riflar”;

O‘zMSt ISO/IEC 27005:2024 “Axborot texnologiyalari. Xavfsizlikni ta’minlash usullari. Axborot xavfsizligi risklarini boshqarish”;

O‘z DSt ISO/IEC 27011:2014 “Axborot texnologiyalari. Xavfsizlikni ta’minlash usullari. Telekommunikatsiya tashkilotlarida axborot xavfsizligini boshqarish bo‘yicha rahbariy ko‘rsatmalar”;

O‘z DSt 2814:2014 “Axborot texnologiyasi. Avtomatlashtirilgan tizimlar. Axborotdan ruxsatsiz foydalana olishdan muhofazalanganlik darajalari bo‘yicha tasniflash”;

O‘z DSt 2815:2014 “Axborot texnologiyasi. Tarmoqlararo ekranlar. Axborotdan ruxsatsiz foydalana olishdan muhofazalanganlik darajalari bo‘yicha tasniflash”;

O‘z DSt 2816:2014 “Axborot texnologiyasi. Axborotni muhofaza qilish vositalarining dasturiy ta’minotini deklaratsiya qilinmagan imkoniyatlar yo‘qligini nazorat qilish darajasi bo‘yicha tasniflash”;

O‘z DSt 2817:2014 “Axborot texnologiyasi. Hisoblash texnikasi vositalari. Axborotdan ruxsatsiz foydalana olishdan muhofazalanganlik darajalari bo‘yicha tasniflash”;

O‘z DSt 2875:2014 “Datamarkazlar uchun talablar”. “Infratuzilma va axborot xavfsizligini ta’minlash” standartidagi telekommunikatsiya obyektlari infratuzilmasining tayyorligi va xavfsizligini ta’minlash;

O‘z DSt ISO/IEC 27010:2015 “Axborot texnologiyalari. Xavfsizlikni ta’minlash usullari. Sohalararo va tashkilotlararo kommunikatsiyalarda axborot xavfsizligini boshqarish bo‘yicha qo‘llanma”;

O‘z DSt 2927:2015 “Axborot texnologiyalari. Axborot xavfsizligi. Atamalar va ta’riflar”;

O‘z DSt ISO/IEC 15408-1:2016 “Axborot texnologiyalari. Xavfsizlikni ta’minlash usullari. Axborot texnologiyalarining xavfsizligini baholash mezonlari. (1-qism). Kirish va umumiy model”;

O‘z DSt ISO/IEC 15408-2:2016 “Axborot texnologiyasi. Xavfsizlikni ta’minlash usullari. Axborot texnologiyalarining xavfsizligini baholash mezonlari. (2-qism). Xavfsizlikning funksional komponentlari”;

O‘z DSt ISO/IEC 15408-3:2016 “Axborot texnologiyasi. Xavfsizlikni ta’minlash usullari. Axborot texnologiyalarining xavfsizligini baholash mezonlari. (3-qism). Xavfsizlikka qo‘yiladigan ishonch komponentlari”;

O‘zMSt ISO/IEC 27002:2024 “Axborot texnologiyasi. Xavfsizlikni ta’minlash usullari. Axborot xavfsizligini boshqarishning amaliy qoidalari”;

O‘z DSt ISO/IEC 27031:2016 “Axborot texnologiyasi. Xavfsizlikni ta’minlash usullari. Biznes uzluksizligini ta’minlashga axborot texnologiyalarini tayyorligi bo‘yicha rahbariy ko‘rsatmalar”;

O‘z DSt ISO/IEC 27033-1:2016 “Axborot texnologiyasi. Xavfsizlikni ta’minlash usullari. Tarmoq xavfsizligi. 1-qism”;

O‘z DSt ISO/IEC 27033-1:2016 “Axborot texnologiyasi. Xavfsizlikni ta’minlash usullari. Tarmoq xavfsizligi. 4-qism. Xavfsizlik shlyuzlaridan foydalangan holda tarmoqlar o‘rtasida xavfsizlikni ta’minlash”;

O‘z DSt ISO/IEC 27033-2:2016 “Axborot texnologiyasi. Xavfsizlikni ta’minlash usullari. Tarmoq xavfsizligi. 2-qism. Tarmoq xavfsizligini loyihalashtirish va joriy etish bo‘yicha rahbariy ko‘rsatmalar”;

O‘z DSt ISO/IEC 27033-5:2016 “Axborot texnologiyasi. Xavfsizlikni ta’minlash usullari. Tarmoq xavfsizligi. 5-qism. “Virtual xususiy tarmoqlarni qo‘llagan holda tarmoqlararo xavfsizligini ta’minlash uchun kommunikatsiyalar”;

O‘z DSt 3078:2016 “Telekommunikatsiyalar tarmoqlari. Virtual xususiy tarmoqlar *(VPN)*. Umumiy talablar”;

O‘z DSt ISO/IEC 27032:2017 “Axborot texnologiyasi. Xavfsizlikni ta’minlash usullari. Kiberxavfsizlik bo‘yicha rahbariy ko‘rsatmalar”;

O‘z DSt 3243:2017 “Axborot texnologiyasi. Lokal va korporativ hisoblash tarmoqlari. Umumiy texnik talablar”;

O‘z DSt 1047:2018 “Axborot texnologiyasi. Atamalar va ta’riflar”;

O‘z DSt ISO/IEC 27014:2018 “Axborot texnologiyasi. Xavfsizlikni ta’minlash usullari. Axborot xavfsizligini korporativ boshqarish”;

O‘z DSt 3386:2019 (O‘z DSt ISO/IEC 27035-1:2016; MOD) “Axborot texnologiyasi. Xavfsizlikni ta’minlash usullari. Axborot xavfsizligi insidentlarini boshqarish. l-qism, Insidentlarni boshqarish prinsiplari”;

O‘z DSt 3387:2019 (O‘z DSt ISO/IEC 27035-2:2016; MOD) “Axborot texnologiyasi. Xavfsizlikni ta’minlash usullari. Axborot xavfsizligi insidentlarini boshqarish. 2-qism. Insidentlarga ta’sir etishni rejalashtirish va unga tayyorlanish bo‘yicha rahbariy ko‘rsatmalar”;

O‘z DSt ISO/IEC 27001:2020 “Axborot texnologiyasi. Xavfsizlikni ta’minlash usullari. Axborot xavfsizligini boshqarish tizimlari. Talablar”;

O‘z DSt ISO/IEC 27000:2022 “Axborot texnologiyasi. Xavfsizlikni ta’minlash usullari. Axborot xavfsizligini boshqarish tizimlari. Sharh va lug‘at”;

O‘z DSt ISO/IEC 27003:2022“Axborot texnologiyasi. Xavfsizlikni ta’minlash usullari. Axborot xavfsizligini boshqarish tizimini joriy etish bo‘yicha qo‘llanma”;

O‘z DSt ISO/IEC 27007:2022 “Axborot texnologiyalari. Xavfsizlikni ta’minlash usullari. Axborot xavfsizligini boshqarish tizimlarini audit o‘tkazish bo‘yicha rahbariy ko‘rsatmalar”;

O‘z DSt ISO/IEC 27008:2022 “Axborot texnologiyasi. Xavfsizlikni ta’minlash usullari. Axborot xavfsizligini boshqarish bo‘yicha auditorlar uchun qo‘llanma”;

O‘zMSt 285:2024 “Axborot texnologiyasi. Axborotni kriptografik muhofazasi. Xeshlash funksiyasi”;

O‘zMSt 286:2024 “Axborot texnologiyasi. Axborotning kriptografik muhofazasi. Elektron raqamli imzoni shakllantirish va tekshirish jarayonlari”;

RH 45-015:2016 “Tashkiliy-farmoyish hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi”;

O‘zbekiston Respublikasi hududida axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma (*2016-yil 23-fevraldagi 7-sonli 2013-2020-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika Komissiyasi bayonnomasiga 10-ilova; keyingi – o‘rinlarda Uslubiy qo‘llanma*);

O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari o‘rtasida axborot xavfsizligi insidentlariga javob berish, o‘rganish va oldini olish bo‘yicha o‘zaro hamkorlik reglamenti *(O‘zbekiston Respublikasi Axborot va kommunikatsiya xavfsizligi texnik kengashining 2017-yil 17-noyabrdagi 7-son bayonnomasiga 1-ilova, keyingi o‘rinlarda – Hamkorlik reglamenti);*

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarida axborot xavfsizligini ta’minlashga qo‘yiladigan talablar” *(O‘zbekiston Respublikasi Axborot va kommunikatsiya xavfsizligi bo‘yicha texnik kengashning 2017-yil 17-noyabrdagi 7-sonli bayonnomasiga 2-ilova, keyingi o‘rinlarda – Talablar).*

Universitetning axborot xavfsizligi bo‘yicha ichki hujjatlari:

- Universitetning 2023-yil 18-apreldagi “Buxoro davlat universitetida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish va raqamlashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirish to‘g‘risida” 177-U-son buyrug‘i;

- Universitetning 2023-yil 6-maydagi “Buxoro davlat universitetida konfidensial ma’lumotlarga ega hujjatlarni muhofaza qilish, ular bilan ishlashni to‘g‘ri tashkil etish to‘g‘risida” 208-U-son buyrug‘i;

- Universitetning 2023-yil 23-avgustdagi “Ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy va sport sohasidagi ishlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 420 U son buyrug‘i asosida ishlab chiqilgan universitetning “Odob-axloq kodeksi”.

3. Atamalar va ta’riflar

3.1 Mazkur hujjatda O‘z DSt 2927:2015 “Axborot texnologiyalari. Axborot xavfsizligi. Atamalar va ta’riflar” va O‘z DSt 1047:2018 “Axborot texnologiyalari. Atamalar va ta’riflar” davlat standartiga muvofiq quyidagi atamalar va ta’riflardan

foydalanilgan:

3.1.1 **avtorizatsiya** – foydalanuvchining foydalana olish huquqlarini tekshirish va unga berilgan huquqlarga muvofiq resurslardan foydalana olishga ruxsat olish;

3.1.2 **Active Directory** – ruxsatlar va tarmoqqa kirishni boshqarish uchun Microsoft Windows Serverning katalog xizmati;

3.1.3 **anonimayzer** – veb-saytlarga, tarmoqlarga yoki internet xizmatlariga murojaat qilayotgan foydalanuvchilar uchun xavfsizlikni oshirish maqsadida ishlatiladi;

3.1.3 **autentifikatsiya** – foydalanuvchi (tarmoq abonenti, xabar jo‘natuvchi), dastur, qurilma yoki ma’lumotlarning (axborot, olinadigan xabar, kalit) haqiqiyligini belgilash jarayoni;

3.1.4 **axborot** – 1) manbalaridan va taqdim etish shaklidan qat’i nazar, shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar; 2) qiziqish uyg‘otadigan va saqlanishi, qayta ishlanishi lozim bo‘lgan bilimlar, faktlar, ma’lumotlar jami;

3.1.5 **axborot xavfsizligi** – 1) axborotlarning axborot egasiga zarar yetkazuvchi tasodifiy yoki qasddan qilinadigan ta’sirlar (tahdidlar)ga qarshi tura olish integral xususiyati; 2) hisoblash texnikasi yoki avtomatlashtirilgan tizim vositalari tomonidan qayta ishlanadigan axborotning ichki va tashqi tahdidlardan muhofazalanganlik holati;

3.1.6 **axborot resurslari** – axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborotlar, ma’lumotlar banklari, ma’lumotlar bazasi;

3.1.7 **axborotni muhofaza qilish** – axborot egasi manfaatlariga zarar keltirilishining oldini olish yoki qiyinlashtirishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy va texnik (apparat-dasturiy) tadbirlar kompleksi;

3.1.8 **axborotni kriptografik muhofaza qilish vositasi** – axborot xavfsizligini ta’minlash uchun axborotning kriptografik almashtirilishini amalga oshiradigan apparat, dasturiy yoki apparat-dasturiy vositalar;

3.1.9 **axborot tizimi** – axborotlarni yig‘ish, saqlash, izlash, ishlash va ulardan foydalanish imkonini beruvchi axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalarining tashkiliy tartibga solingan yig‘indisi;

3.1.10 **axborot tizimining xavfsizligi** – axborot tizimining, uning normal ishlash rejimiga ruxsat etilmagan aralashuvdan, shuningdek, tizim komponentlarini o‘g‘irlash, noqonuniy o‘zgartirish yoki buzishdan muhofaza qilinganligi;

3.1.11 **axborotlashtirish obyekti** – turli daraja va maqsadlardagi axborot tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari, axborotni qayta ishlash texnik vositalari, bu vositalar o‘rnatilgan va ekspluatatsiya qilinadigan, shuningdek, muzokaralar, shu jumladan, konfidensial muzokaralar olib borish uchun mo‘ljallangan alohida xonalar;

3.1.12 **axborot xavfsizligi siyosati** – axborot xavfsizligini boshqarish tizimi, obyektlari va ishtirokchilarining faoliyat turlarini belgilaydigan va cheklaydigan qoidalar to‘plami;

3.1.13 **axborot xavfsizligini boshqarish tizimi** – axborot xavfsizligini ishlab chiqish, joriy qilish, uning ishlashi, monitoringi, tahlili, unga xizmat ko‘rsatish va uni takomillashtirish uchun mo‘ljallangan biznes risklarni baholash usullaridan foydalanishga asoslangan umumiy boshqarish tizimining qismi;

3.1.14 **axborot xavfsizligi buzg‘unchisi (buzg‘unchi)** – tizim resurslaridan ruxsat etilmagan tarzda foydalana olishga (bu resurs bilan ishlashda uning uchun taqiqlangan harakatlarni bajarishga urinish) xato, bilmaslik oqibatida yoki yovuz niyatda (o‘z manfaatlari yo‘lida) yoki shunchaki (o‘yin yoki o‘zini namoyon qilish maqsadida) uringan (urinib ko‘rgan) va buning uchun turli xil imkoniyatlar, metodlar va vositalardan foydalangan shaxs (subyekt);

3.1.15 **axborot xavfsizligi buzg‘unchisi modeli** – foydalana olishni chegaralash qoidalarini buzuvchining abstrakt tavsifi;

3.1.16 **axborot xavfsizligiga tahdidlar modeli** – axborot xavfsizligi mavjud tahdidlarining, ularning aktualligi, amalga oshirish imkoniyatlari va oqibatlarining tavsifi;

3.1.17 **axborot xavfsizligi riski (risk)** – muayyan xavfni amalga oshirishda, ma’lumotlarni qayta ishlash tizimining muayyan zaifligidan foydalanish imkoniyati;

3.1.18 **axborotning zaifligi** – axborotning konfidensialligi, yaxlitligi, undan erkin foydalanish mumkinligi buzilishiga va uni noqonuniy tarzda ko‘paytirilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan turli beqarorlashtiruvchi omillar ta’siriga moyilligi;

3.1.19 **buzg‘unchi** – axborot tizimi va uning resurslaridan ruxsat etilmagan tarzda foydalana olishdan manfaatdor bo‘lgan va ularni ruxsatsiz olish yoki o‘zgartirish uchun oldindan o‘ylab harakat qilgan shaxs yoki tashkilot;

3.1.20 **dasturiy ta’minot** – ma’lumotlarni qayta ishlash tizimi va dasturiy hujjatlarni ishlatish zarur bo‘lgan dasturlar to‘plami;

3.1.21 **elektron raqamli imzo** – elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o‘zgarishlar natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik mavjud emasligini aniqlash va elektron raqamli imzo kalitining egasini identifikatsiya qilish imkonini beradigan imzo;

3.1.22 **elektron pochta** – tarmoqlar orqali xabarlarning foydalanuvchidan foydalanuvchiga yuborilishini, shuningdek, bu xabarni o‘qish va saqlash imkonini beradigan servis dasturlar tizimi;

3.1.23 file-server – lokal tarmoqda ma’lumotlarni saqlash va ularga murojaat qilish imkoniyatini ta’minlaydigan server turi;

3.1.24 flesh-xotira – kompyuter uchun tashqi axborot va ma’lumotlarni tashuvchi qurilma turi;

3.1.25 **foydalana olishlik** – axborot va uning tashuvchisining holati, unda foydalanuvchilar tomonidan ular uchun mo‘ljallangan axborotning hech qanday qarshiliksiz va o‘z vaqtida olinishi ta’minlanadi;

3.1.26 **foydalana olinishi cheklangan axborot** – davlat sirlari va konfidensial axborotdan iborat ma’lumotlarga ega bo‘lgan hujjatlashtirilgan axborot, ulardan foydalana olish qonun hujjatlariga muvofiq chegaralanadi;

3.1.27 **hujum** – xavfsizlikni ta’minlash mexanizmlarini chetlab o‘tish maqsadida yoki ularning kamchiliklaridan foydalanish maqsadida qo‘llaniladigan harakatlar;

3.1.28 **internet tarmog‘i** – standart ochiq protokollar orqali axborot almashinish uchun o‘zaro birlashtirilgan mustaqil kompyuter tarmoqlarining global (Butunjahon) ko‘prigi;

3.1.29 **jismoniy tahdid** – amalga oshirish oqibatida butun tizimga fizik zarar bo‘lib hisoblangan tahdid;

3.1.30 **kalit** – shifrlash va deshifrlash amallarini boshqaruvchi simvollar ketma-ketligi;

3.1.31 **konfidensiallik** – axborot va uning tashuvchisining holati, bunda u bilan ruxsat etilmagan tarzda tanishishning yoki ruxsat etilmagan tarzda hujjatlashtirish (nusxa ko‘chirish)ning oldini olish ta’minlanadi;

3.1.32 **konfidensial axborot** – Davlat sirlaridan iborat ma’lumotlarga ega bo‘lmagan hujjatlashtirilgan axborot, undan foydalanish qonun hujjatlariga muvofiq chegaralanadi;

3.1.33 **konfidensiallik belgisi** – obyektda mavjud bo‘lgan axborotning konfidensialligini tavsiflovchi axborot elementi;

3.1.34 **log-fayl** – serverning ishlashi haqidagi tizim ma’lumotlari va foydalanuvchi harakatlari haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan fayl;

3.1.35 **lokal hisoblash tarmog‘i** – bitta bino yoki bitta korxona bilan cheklangan bitta lokal hududda qator hisoblash texnikasi qurilmalarini bog‘laydigan axborot-hisoblash tarmog‘i;

3.1.36 **ma’lumotlar bazasi** – obyektiv shaklda ifodalangan va bu ma’lumotlar elektron hisoblash mashinalari yordamida topiladigan va qayta ishlanadigan tarzda tizimlashtirilgan ma’lumotlar (moddalar, hisob-kitoblar) jami;

3.1.37 **nazorat qilinadigan hudud** – doimiy yoki bir martalik ruxsati bo‘lmagan begona shaxslar va transport vositalarining nazoratsiz bo‘lishi taqiqlangan joy *(hudud, bino, binoning bir qismi)*;

3.1.38 **Need-To-Know** – “Bilish kerak” tamoyili axborot xavfsizligi va foydalanishni boshqarishda asosiy tushuncha bo‘lib, foydalanuvchilarga faqat o‘zlarining muayyan ish vazifalarini yoki vazifalarini bajarishlari uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar yoki resurslardangina foydalanish imkoniyati berilishi;

3.1.39 **operatsion tizim** – kompyuter va boshqa avtomatlashtirilgan qurilmalarda, jumladan smartfonlarda, planshetlarda, noutbuklarda, serverlarda va boshqa qurilmalarda ishlovchi dasturlarning ishlashi uchun mo‘ljallangan dasturiy ta’minot (Windows, macOS, Linux, Android, iOS va boshqalar). Operatsion tizim qurilma va dasturlarning to‘g‘ri ishlashini boshqarib turadi hamda foydalanuvchi va qurilma o‘rtasidagi aloqani ta’minlaydi;

3.1.40 **parol** – shaxsning, o‘zini axborot kommunikatsiya tizimiga tanishtirish jarayonida qo‘llaniladigan belgilar ketma-ketligi bo‘lib, axborot kommunikatsiya tizimidan foydalanish huquqiga ega bo‘lish uchun foydalaniluvchining konfidensial bo‘lmagan qayd yozuvi hisoblanadi;

3.1.41 **parol bilan himoya qilish** – tizimga va uning resurslariga parollar orqali kirish jarayonini boshqarish;

3.1.42 **parol kompрometatsiyasi** – parolning sir saqlanmasligi, oshkor qilinishi;

3.1.43 **qayd yozuvi** – axborot tizimlari va manbalariga kirishda foydalaniladigan foydalanuvchi identifikatori;

3.1.44 **risk** – muayyan xavfni amalga oshirishda, ma’lumotlarni qayta ishlash tizimining muayyan zaifligidan foydalanish imkoniyati (ehtimoliy xavf);

3.1.45 **risklarni boshqarish** – riskka nisbatan va uni boshqarish bo‘yicha muvofiqlashtirilgan faoliyat;

3.1.46 **risklarni baholash** – risk mohiyatini aniqlash maqsadida bajariladigan, hisoblangan risk va risk mezonlarini taqqoslash jarayoni;

3.1.47 **server** – kompyuterga, boshqa bir kompyuterga xizmat ko‘rsatish imkonini beradigan apparat va dasturiy ta’minot yig‘indisi;

3.1.48 **spam-filtr** – elektron pochta xizmatlarida, foydalanuvchilarga elektron pochta orqali yuboriladigan xabarlar orasidan zararli xabarlarni aniqlash va ajratib olish uchun ishlatiladi;

3.1.49 **Spin-off** – bir kompaniyaning bir qismi (filiali yoki bo‘limi) sifatida ajralib chiqib yangi, mustaqil korxona tashkil etilishi;

3.1.50 **shaxsga doir ma’lumotlar** – muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo‘lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog‘ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot;

3.1.51 **tahdidlar modeli** – axborot xavfsizligi tahdidlari xarakteristikalari yoki xususiyatlarining fizik, matematik, tavsifiy taqdim etilishi;

3.1.52 **uchinchi shaxs** – subyekt, mulkdor va (yoki) operator bo‘lmagan, ammo shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berish bo‘yicha holatlar yoki munosabatlar orqali ular bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday shaxs;

3.1.53 **vakolat** – obyektni yoki obyektlar klassini identifikatsiya qilishni va ushbu obyektlardan foydalanishning barcha ruxsat etilgan turlarini taqdim etish;

3.1.54 **vakolatli organ** – O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;

3.1.55 **virtual xususiy tarmoq** – tarmoq kanal ustidan shifrlash va tunnellash protokollaridan foydalanadigan muhofazalangan tarmoq bog‘lanish. Virtual xususiy tarmoqni (VPN), korporativ Wi-Fi tarmoqlardan farqli ravishda, foydalanuvchilarning tarmoqqa ulanishini maksimal osonlashtirish uchun shifrlashga ega bo‘lmagan muhofazalanmagan Wi-Fi bog‘lanish ustidan amalga oshirish mumkin;

3.1.56 **virusga qarshi dastur** – viruslarni aniqlash uchun mo‘ljallangan va ularni yo‘q qilish taklifini berishi mumkin bo‘lgan yoki yo‘q qiluvchi dastur;

3.1.57 **xavfsizlik** – obyektning tasodifiy va qasddan qilinadigan tahdidlar ta’siriga qarshi tura olish qobiliyati;

3.1.58 **yaxlitlik** – axborot va uning tashuvchisining holati bo‘lib, bunda umuman va uning alohida tarkibiy qismlarining bo‘linmasligi va ruxsat etilmagan tarzda yoki qasddan yo‘q qilinishi, buzilishi, chiqib ketishi, o‘g‘irlanishi, qalbakilashtirilishining oldini olish ta’minlanadi;

3.1.59 **zaiflik** – ma’lumotlarni qayta ishlash tizimidagi kamchilik, undan foydalanish uning yaxlitligini buzishi va noto‘g‘ri ishlashiga olib kelishi mumkin;

3.1.60 **zarar** – obro‘sizlantirish natijasida yuzaga kelgan zarar yoki ziyonning moddiy o‘lchami.

4. Belgilar va qisqartmalar

4.1 Ushbu Axborot xavfsizligi siyosatida (keyingi o‘rinlarda – Siyosat) quyidagi belgilar va qisqartmalardan foydalanilgan:

AKT – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari;

AKHV – axborotlarni kriptografik himoyalash vositalaridan;

AXBT – axborot xavfsizligini boshqarish tizimi;

BD (Blu-ray Disk) – optik disk;

DDoS (Distributed Denial-of-Service) – xizmat ko‘rsatishni taqsimlangan rad etish;

DHCP (Dynamic Host Configuration Protocol) – tarmoq ichidagi IP-manzillarni tarqatish uchun tez va avtomatik markaziy boshqaruvni ta’minlash uchun foydalaniladigan protokol;

DLP (Data Loss Prevention) – ma’lumotlar sizib chiqishini oldini olish tizimi;

DoS (Denial-of-Service) – xizmat ko‘rsatishni rad etish;

DUK – davlat unitar korxonasi;

DVD (Digital Versatile Disc) – raqamli ko‘p qirrali disk;

ERI – elektron raqamli imzo;

HTTP (HyperText Transfer Protocol) – veb-saytlar orqali ma’lumot almashuvini boshqarish uchun ishlatiladigan protokol;

HTTPS (HyperText Transfer Protocol Secure) – veb-saytlar orasidagi ma’lumot almashuvi uchun ishlatiladigan xavfsizlikni ta’minlovchi protokol;

IDPS (Intrusion Detection & Prevention System) – hujumlarni aniqlash va bartaraf etish tizimi;

LDAP (Lightweight Directory Access Protocol) – iyerarxik katalog tuzilmasidan ma’lumotlarni saqlash va olish uchun ishlatiladigan ochiq protokol;

MB – ma’lumotlar bazasi;

MBBT– ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi;

MCHJ – mas’uliyati cheklangan jamiyat;

NAT (Network Address Translation) – tarmoq manzili tarjimoni;

SIEM (Security information and event management) – axborot xavfsizligi hodisalarini boshqarish tizimidan;

SSH (Secure Shell) – xavfsiz tarmoq orqali masofaviy qurilmalar yoki serverlarga kirish va boshqarishning xavfsiz usulini ta’minlovchi tarmoq protokoli;

SSL/TLS (Secure Sockets Layer/Transport Layer Security) – kriptografik protokollar bo‘lib, ular lokal va korporativ tarmoq, asosan internet orqali xavfsiz aloqani ta’minlaydi;

URL (Uniform Resource Locator) – internetdagi manbalarni, veb-saytlarni yoki boshqa onlayn resurslarni aniqlash uchun ishlatiladigan unikal manba (manzil) turi;

USB (Universal Serial Bus) – ish stansiyasini qo‘shimcha qurilmalar bilan bog‘lovchi tizim;

VPN (Virtual private network) – virtual xususiy tarmoq;

XDFU – xizmat doirasida foydalanish uchun;

CD (Compact disc) – kompakt disk;

Wi-Fi (Wireless Fidelity) – qurilmalarni lokal tarmoqqa ulash uchun ishlatiladigan simsiz aloqa standartlari to‘plami.

5. Foydalanish sohasi

5.1 Mazkur Siyosat Universitetda axborot xavfsizligini ta’minlash masalasida Universitetning harakatlarni rejalashtirish tizimini, axborot xavfsizligi sohasidagi maqsad va vazifalarni, qoidalarni, ko‘rsatmalarni, shuningdek, Universitet tomonidan o‘z faoliyatida qo‘llaniladigan boshqa asosiy tamoyillarni, axborot xavfsizligining tashkiliy, texnologik jihatlarini shakllantirishning asosiy tamoyillarini belgilaydi.

5.2 Siyosat Universitet axborot texnologiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va yaqin istiqbollari, maqsadlari, vazifalari va ularni ishlashining huquqiy asoslarini, ishlash rejimlarini hisobga oladi shuningdek, himoya obyektlari xavfsizligiga tahdidlar tahlilini o‘z ichiga oladi.

5.3 Siyosat Universitet tuzilmalarida integratsiyalashgan AXBT qurish uchun asos sifatida foydalanilishi lozim.

5.4 Universitet axborot xavfsizligi siyosatining talablari Universitet va uning barcha tarkibiy bo‘linmalari tomonidan bajarilishi shart, ularga quyidagilar kiradi:

1) Universitet bosh binosi (manzil: Buxoro viloyati, Buxoro shahri, M. Iqbol ko‘chasi, 11-uy) hududida joylashgan axborotlashtirish obyektlari:

- Fizika-matematika va axborot texnologiyalari fakulteti
- Jismoniy tarbiya va sport fakulteti
- Iqtisodiyot va turizm fakulteti
- San’atshunoslik va pedagogika fakulteti
- Tarix va yuridik fakulteti
- Kompyuter markazi
- Ilmiy amaliy muzey
- Axborot resurs markazi

2) Filologiya fakulteti (manzil: Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Alpomish ko‘chasi, 1-uy)

3) Xorijiy tillar fakulteti (manzil: Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Hamza ko‘chasi, 16-uy)

4) Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti (manzil: Buxoro viloyati, Buxoro tumani, Rabotiqalmoq MFY)

5) Sirtqi (maxsus sirtqi) va masofaviy ta’lim bo‘limi binosidagi (manzil: Buxoro viloyati, G‘ijduvon tumani, Soktare MFY)

6) Maktabgacha ta’lim innovatsion klasteri (manzil: Buxoro viloyati, Buxoro tumani, Gala Osiyo shaharchasi, Do‘stlik MFY);

7) 7-sonli talabalar turar joyi binosidagi (manzil: Buxoro viloyati, Buxoro shahri, B. Naqshband ko‘chasi, 158-uy).

5.5 Universitet tashkiliy tuzilmasidagi quyidagi tashkilotlar o‘z axborot infratuzilmalaridan kelib chiqqan holda o‘zlarining axborot xavfsizligi siyosatini Universitetning ushbu Siyosatiga asoslangan holda ishlab chiqadilar va Universitet Raqamli ta’lim texnologiyalari departamenti bilan kelishadilar:

- Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi;

- Buxoro davlat universiteti Qorako‘l akademik litseyi.

5.6 Raqamli ta’lim texnologiyalari departamenti (keyingi o‘rinlarda – Departament) Universitetning barcha axborot tizimlariga xizmat ko‘rsatadi, rivojlantiradi hamda axborot va kiberxavfsizligini ta’minlaydi. Shuningdek, Siyosatning 5.5-bandida keltirilgan Universitetning tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi davlat muassasalari hamda tashkilotlarning Siyosatini ishlab chiqishda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan autsorsing xizmatini ko‘rsatishi mumkin.

5.9 Universitetning O‘quv ishlar bo‘yicha prorektori axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish (Chief Digital Officer) hamda Universitetda axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha mas’ul rahbar (keyingi o‘rinlarda – Mas’ul rahbar) hisoblanadi. Mas’ul rahbarga ushbu vazifalar Universitet rektori buyrug‘i bilan yuklanadi. Mas’ul rahbar Universitetda axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtiradi.

5.10 Universitetda axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha mas’ul etib Departamentning Raqamli ta’lim texnologiyalarini joriy etish va axborot xavfsizligini ta’minlash sektori muhandis-dasturchisi (keyingi o‘rinlarda – Axborot xavfsizligi administratori) Rektor buyrug‘i bilan belgilanadi va axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha vazifalar yuklatiladi, shuningdek, mazkur Axborot xavfsizligi administratori qayta belgilanishi yoki yuklatilgan vazifalarni bajarishdan ozod etilishi mumkin.

Universitetda Departamentning Tarmoqlarni boshqarish va texnik qo‘llab-quvvatlash sektori bosh mutaxassisi Lokal tarmoq administratori hisoblanadi.

5.11 Axborot xavfsizligi administratori Departamentning tegishli mas’ul xodimlari bilan birgalikda Universitetda ushbu Siyosat qoidalariga rioya qilinishi ustidan doimiy monitoring olib borilishini ta’minlaydi. Bundan tashqari, ushbu Siyosatga muvofiq axborot xavfsizligi talablariga rioya etilishini davriy ravishda ichki audit tekshiruvini o‘tkazadi va keyinchalik audit natijalari to‘g‘risidagi hisobotni Departament boshlig‘iga kiritadi.

5.12 Departament boshlig‘i Universitetda axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtiradi va bajarilgan ishlar to‘g‘risida Axborot xavfsizligi administratori bilan birgalikda Mas’ul rahbarga ma’lumot kiritib borilishini ta’minlaydi.

6. Maqsad va vazifalar

6.1 Siyosatning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- axborot munosabatlari subyektlarini moddiy, jismoniy, ma’naviy yoki boshqa zarar yetkazilishidan, axborotlashtirish obyektlarining faoliyatiga tasodifiy yoki ataylab ruxsatsiz aralashish yoki ulardagi ma’lumotlarga ruxsatsiz kirish va undan noqonuniy foydalanishdan himoya qilish;

- axborot xavfsizligi bilan bog‘liq hodisalarning yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlarini bartaraf etish va minimallashtirish, tahdidlarni prognozlash, oldini olish, axborot tizimlaridagi zaifliklarni aniqlash va yo‘q qilish;

- keng qamrovli tahdidlarni hisobga olgan holda, axborot xavfsizligini, Universitet axborot resurslari va ma’lumotlar bazalarining uzluksiz, barqaror ishlashini ta’minlash bo‘yicha tashkiliy-texnik tadbirlar kompleksini shakllantirish;

- axborot xavfsizligi sohasidagi qonun hujjatlari, yo‘riqnomalar va nizomlarga va umumiy siyosatga rioya qilinishini ta’minlash;

- Universitet faoliyatiga oid axborotlar shuningdek, muhim axborot resurslarining konfidensialligi, yaxlitligi va foydalana olishligini ta’minlash;

- Universitet axborot tizimlari va resurslarini zaxiralash va qayta tiklash holatida bo‘lishini ta’minlash;

- zaxiralash tizimlarining doimiy aktualligini ta’minlash.

6.2 Siyosatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- axborot xavfsizligiga ichki va tashqi tahdidlarni, axborot munosabatlarining manfaatdor tomonlariga zarar yetkazadigan sabablar va sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va prognoz qilish;

- Universitetning axborotlashtirish obyektlariga ruxsatsiz kirishning oldini olish va urinishlarni aniqlash;

- konfidensial axborotlar va himoya obyektlarining konfidensialligi, yaxlitligi va foydalana olishligi ustidan nazoratni ta’minlash;

- mavjud axborot tizimlari va resurslar, AXBTlaridagi zaifliklarni aniqlash va bartaraf etish;

- axborot xavfsizligi nuqtai nazaridan Universitetning axborot-kommunikatsiya infratuzilmalarida foydalaniladigan axborot texnologiyalariga yagona talablarni ishlab chiqish;

- axborot xavfsizligiga tahdidlarni himoya qilish va ularga qarshi kurashishning tashkiliy-texnik usullari va zamonaviy texnik, shuningdek, dasturiy vositalaridan foydalangan holda axborot xavfsizligini ta’minlashga kompleks yondashuvni ta’minlaydigan AXBTni yaratish va rivojlantirish;

- axborotlashtirish obyektlarida axborot xavfsizligiga tahdidlarni amalga oshirish natijasida yetkazilgan zararni maksimal darajada kamaytirish uchun sharoit yaratish;

11.4.7 Axborot va kiberxavfsizlikni ta’minlash sohasida xodimlarning malakasini va xabardorligini oshirish nuqtai nazaridan quyidagi tashkiliy choralar ko‘riladi:

a) axborot xavfsizligini ta’minlash uchun mas’ul bo‘lgan xodimlarni kamida bir yilda bir marta malakasini oshirish;

b) Universitet xodimlarini xabardorligini oshirish va ushbu Siyosat talablari va qoidalarini bajarish maqsadida trening yoki o‘quv-seminarlarni tashkil etish va o‘tkazish;

d) Universitet xodimlarini ularning xabardorlik darajasini tekshirish bo‘yicha mashg‘ulotlar natijalari bo‘yicha sertifikatlash;

e) Universitetning har bir xodimini ushbu Siyosatning kerakli bo‘limlari bilan mazkur Siyosatning 21-ilovasida keltirilgan jurnalga imzo qo‘yish yo‘li bilan tanishtirish.

f) Axborot xavfsizligini ta’minlash uchun mas’ul xodimlarning malakasini doimiy oshirib borish.

Universitet xodimlarini axborot xavfsizligi masalalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish maqsadida, Axborot xavfsizligi administratori mas’ul bo‘linmalar bilan birgalikda har yili tashkil etiladigan o‘quv-seminarlar jadvalini tuzadi va tasdiqlash uchun Mas’ul rahbarga kiritadi.

11.4.8 Xavfsizlik darajasini baholash bo‘yicha quyidagi tashkiliy choralar ko‘riladi:

a) muhofaza qilinadigan obyektlarni muhofaza qilish darajasini baholash uchun ichki va tashqi auditlarni o‘tkazish;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 8-iyuldagi “Milliy axborot resurslarini muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1572-son qaroriga muvofiq akkreditatsiyadan o‘tgan tashkilotlar tomonidan Universitetning axborotlashtirish obyektlarini attestatsiyadan o‘tkazish;

d) Universitet rasmiy veb-saytlari hamda axborot tizimlarini axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligini ekspertizadan o‘tkazish;

e) tashkiliy, texnik va boshqa himoya choralarining samaradorligini baholash, shuningdek, ekspertiza va attestatsiyalar natijalariga ko‘ra aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish.

Ichki auditning muntazamligi yiliga kamida bir marta, tashqi audit esa kamida uch yilda bir marta o‘tkazilishi lozim.

Ichki audit Universitetning mas’ul bo‘linmalari, Universitet tuzilmalari mas’ul xodimlari bilan birgalikda Axborot xavfsizligi administratori hamda Bo‘lim boshlig‘i tomonidan amalga oshiradi. Axborot xavfsizligining tashqi auditini o‘tkazish uchun bunday auditni o‘tkazishga vakolatli uchinchi tomon tashkilotlari jalb qilinadi.

11.4.9 Jismoniy himoyani ta’minlash bo‘yicha quyidagi tashkiliy choralar ko‘riladi:

a) Universitet joylashgan binolar hududiga kirish joyida biometrik

autentifikatsiyaga asoslangan kirishni nazorat qilish tizimlarini tashkil etish;

b) axborotlashtirish obyektlarini nazorat qilinadigan hudud chegarasiga nisbatan mumkin bo‘lgan maksimal masofada joylashtirish;

d) axborotni qayta ishlash, saqlash, uzatish va himoya qilish uchun asosiy texnik vositalarni (axborot resurslari serverlari, tarmoq qurilmalari, axborot xavfsizligi vositalarini) himoyalangan server xonalarida joylashtirish;

e) kommutatsiya jihozlarini qulflanadigan shkaflarda, shuningdek, server xonalarida joylashtirish;

f) hujjatlashtirilgan konfidensial ma’lumotlarni va axborot tashuvchi va saqlovchi vositalarni seyflarda, shkaflarda yoki boshqa muhofaza qilinadigan omborlarda saqlash hamda ushbu vositalarini hisobini yuritish.

11.5 Texnologik (texnik) choralar

11.5.1 Universitetda axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha texnologik (texnik) tadbirlar quyidagilarga qaratiladi:

- axborotni qayta ishlash va saqlash vositalarining normal ishlashi uchun yong‘in xavfsizligi va iqlim sharoitlarini ta’minlash;
- axborotni qayta ishlash, saqlash, uzatish va himoya qilishning texnik vositalarini zaxiralash;
- aloqa kanallarini zaxiralash;
- axborot tizimlari va resurslarini zaxiralash;
- kafolatlangan elektr ta’minoti bilan ta’minlash;
- himoya qilinadigan obyektlarni axborot xavfsizligini ta’minlash.

11.5.2 Universitet serverlarida joylashgan axborot tizimlari va resurslari Universitetning server xonasida joylashgan alohida ma’lumotlarni saqlash tizimi (NAS)ga avtomat tarzda belgilangan muddatlarda Universitetning Raqamli ta’lim texnologiyalari departamenti xodimlari tomonidan zaxiraga olinadi va saqlanadi.

11.5.3 Axborotni qayta ishlash, saqlash, uzatish va muhofaza qilish vositalarini, shuningdek, aloqa kanallari ishdan chiqqanda tezkor qayta tiklashni ta’minlashga qo‘yiladigan talablar ushbu Siyosatning 18-ilovasi “Favqulodda vaziyatlarda ish faoliyatini tiklashni va uzluksiz ishlashni ta’minlash rejasi”da belgilangan.

11.5.4 Universitetda mavjud axborot tizimlari va resurslari, shuningdek, tarmoq qurilmalari va axborot xavfsizligi obyektlarining sozlamalari zaxiraga olinadi. Ma’lumotlarni uzatish tarmog‘ining quvvati har kuni ish vaqtidan tashqari (soat 18:00 dan ertasi soat 09:00 gacha) tegishli server xonalarida ma’lumotlarni zaxiralash jarayonini muvaffaqiyatli yakunlashi kerak. Ma’lumotlarning zaxira nusxasini yaratish va tiklash ushbu Siyosatning 7-ilovasida keltirilgan “Tizim va amaliy dasturlarni yangilash, shuningdek, ma’lumotlarning zaxira nusxalarini shakllantirish va tiklash bo‘yicha nizom”ga muvofiq amalga oshiriladi.

11.5.5 Himoyalangan obyektlarni ishlatish vaqtida axborot xavfsizligini ta’minlash yoki axborotni qayta ishlashni tugatish to‘g‘risida Universitet rahbariyati bilan kelishilgan holda qaror qabul qilingandan so‘ng, axborot tashuvchilaridan ma’lumotlarni va barcha qoldiq ma’lumotlarni yo‘q qilish va/yoki jismoniy tashuvchilarni xavfsiz yo‘q qilish bo‘yicha zarur choralar ko‘riladi.

11.5.6 Ma’lumotlarni saqlovchi va tashuvchi tashqi qurilmalarni xavfsiz yo‘q

qilish Siyosatning 10-ilovasida keltirilgan “Mobil, ma’lumot saqlovchi va tashuvchi qurilmalar bilan ishlashda axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yo‘riqnoma”ga muvofiq amalga oshiriladi.

11.5.7 Konfidensial ma’lumotlar bo‘lgan qog‘oz ko‘rinishidagi hujjatlar maxsus maydalagich (shreder) yordamida yo‘q qilinishi mumkin.

11.6 Muhandis-texnik choralar

11.6.1 Muhandis-texnik tadbirlar himoya qilinadigan obyektlarga ruxsatsiz shaxslarning kirishi uchun jismoniy kirishni oldini olish yoki to‘siqlar yaratishga qaratilgan va quyidagi tadbirlarni o‘z ichiga oladi:

1) Universitet joylashgan binolarga xodimlarning kirishini boshqarish tizimidan (keyingi o‘rinlarda – Face ID) foydalanish.

- hozirgi vaqtda Face ID tizimi Universitet (Buxoro viloyati, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy) joylashgan binoda mavjud;

2) Universitet joylashgan binoda 770 ta videokuzatuv kameralari mavjud bo‘lib, arxiv 15-20 kun saqlanadi. Nazorati Universitetning Departament xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

3) konfidensial ma’lumotlar qayta ishlanadigan xonalarga (muzokaralar xonasi va boshqalar) qo‘riqlash signalizatsiya tizimini o‘rnatish;

4) hujjatlashtirilgan konfidensial ma’lumotlar va konfidensial ma’lumotlarni saqlovchi va tashuvchi vositalarni saqlash uchun qulflanadigan yong‘inga chidamli shkaflar yoki seyflardan foydalanish;

5) ish stansiyalari va tarmoq qurilmalariga jismoniy kirishni cheklash (blokirovka) uchun muhrlardan foydalanish;

6) tarmoq qurilmalarini va axborotni muhofaza qilish vositalarini mexanik qulf bilan qulflangan maxsus javonlarga o‘rnatish;

7) tarmoq kabellarini ushbu Siyosatning 13-bo‘limi talablariga asosan binolar ichkarisida va tashqarisida muhofaza qilinadigan joylarda yotqizish.

11.7 Dasturiy-apparat choralari

11.7.1 Universitetning axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha apparat-dasturiy choralar quyidagilarga qaratilgan:

- axborotni texnik muhofaza qilishni tashkil etish;
- axborotning kriptografik himoyasini tashkil etish.

11.7.2 Axborotni texnik muhofaza qilishni ta’minlash uchun axborotni quyidagi texnik muhofaza qilish vositalari qo‘llaniladi:

- tarmoqlararo ekranlar;
- IDPS vositalari;
- virusga qarshi himoya vositalari;
- kirishni boshqarish vositalari va boshqalar.

11.7.3 Universitet O‘z DSt ISO/IEC 27039:2017 “Axborot texnologiyasi. Xavfsizlikni ta’minlash usullari. Bostirib kirishni aniqlash tizimlarini tanlash, qo‘llash va tizim operatsiyalari” davlat standartiga muvofiq bostirib kirishdan himoya qilish choralarini ta’minlashi kerak, ularga quyidagilar kiradi:

- Universitetning lokal tarmog‘ini tashqi tarmoqlarga ulashda IDPS tarmoq vositalaridan foydalanish;

- Internet tarmog‘iga kirish ta’minlangan ish stansiyalarida xost IDPS (HIPS) dan foydalanish;

- talablarni aniqlash va IDPS vositalarini tanlash;

- ularga tezkor javob berish uchun IDPS vositalari tomonidan aniqlangan bostirib kirishlarni monitoring qilish vositalarini joriy etish.

11.7.4 Axborot xavfsizligi risklaridan kelib chiqqan holda, Universitet IDPS apparat va dasturiy ta’minot tarmog‘i vositasidan quyidagi talab va funksiyalarga ega bo‘lishi kerak:

- barcha protokollar bo‘yicha tarmoq trafik paketlarini chuqur tahlil qilish;

- Universitetning barcha tashqi tarmoq trafigini qayta ishlash (paketlarni chuqur tahlil qilish) va uzatishni ta’minlovchi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi;

- tarmoq trafigida tarmoq tajovuzlarini aniqlash uchun signatur usulni qo‘llab-quvvatlash;

- ishlab chiqaruvchidan signatur ma’lumotlar bazasini yangilash imkoniyatiga ega bo‘lish:

- trafikdagi anomaliyalar va tarmoq protokollaridagi anomaliyalar asosida tarmoq trafigiga tarmoq tajovuzlarini aniqlashning xatti-harakatlar usulini qo‘llab-quvvatlash;

- shubhali trafikni bloklash va filtrlash;

- DoS va DDoS hujumlaridan himoya qilish funksiyasiga ega bo‘lishi;

- zararli koddan tarmoq trafigini aniqlash va filtrlash funksiyasiga ega;

- IDPS obyektining yaxlitligini nazorat qilish uchun boshqaruv funksiyasiga ega bo‘lishi;

- oddiy tarmoq boshqaruvi (administrator) protokoliga ega bo‘lish;

- aniqlangan va oldi olingan bosqinlar haqida xabar berish.

IDPS vositasi butun ichki lokal tarmoqni hamda Universitet serverlari va ularga ulangan ishchi stansiyalarini Universitet ulangan tashqi tarmoqdan kelib chiqadigan tashqi tarmoq tahdidlaridan himoya qilishi kerak.

Tarmoqlararo ekran tashqi tarmoq va lokal tarmoq ulanishi chegarasida marshrutizatordan kelayotgan kiruvchi tarmoq trafigini boshqarishni ta’minlaydi.

11.7.5 Universitetning lokal tarmoqqa ulangan ishchi stansiyalari va muhim serverlarida quyidagi talab va funksiyalarga ega HIPSni o‘rnatishi kerak:

- jarayonlarni, dasturlarni, fayllarni va operatsion tizimda ishlayotgan registrni monitoring qilishda kiruvchi faollikni aniqlash orqali tarmoqqa tajovuzlarni aniqlashning xatti-harakatlar usuliga ega bo‘lish;

- kiruvchi faoliyatni aniqlash uchun tarmoqni filtrlash imkoniyatiga ega bo‘lish;

- o‘zingizni zararli kod hujumlaridan himoya qila olishi;

- ilovalarni himoya qilish uchun ekspluatatsiyani blokirovka qilish funksiyasiga ega bo‘lishi;

- foydalanuvchiga kiruvchi faoliyat aniqlanganda fayllar, ilovalar va reestr bilan amallarni tanlash imkoniyatini taqdim etish.

HIPS sifatida Universitetda qo‘shimcha HIPS funksiyasiga ega bo‘lgan virusga qarshi himoya tizimidan foydalanadi.

HIPS ishlashi uchun antivirus ish stansiyalari va serverlarda mos ravishda sozlash.

11.7.6 Universitetda qo‘llaniladigan axborotni texnik muhofaza qilish usullari va vositalari, axborot xavfsiziligi siyosatining 13-ilovasidagi Axborotni texnik muhofaza qilishni tashkil etish bo‘yicha yo‘riqnomada keltirilgan.

11.7.7 Tarmoq infratuzilmasi xavfsizligini ta’minlash va tarmoqlararo ekranlardan foydalanish, axborot xavfsiziligi siyosatining 2-ilovasida keltirilgan Tarmoq infratuzilmasi va tarmoqlararo ekran darajasida axborot xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risida nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

11.7.8 Zararli dasturlardan himoya qilish, axborot xavfsiziligi siyosatining 7-ilovasida keltirilgan Antivirus himoyasi bo‘yicha yo‘riqnoma muvofiq texnik choralar ko‘riladi.

11.7.9 Universitetning axborot resurslariga kirishni tartibga solish axborot xavfsiziligi siyosatining 9-ilovasida keltirilgan Axborot manbalariga kirish matritsasini ishlab chiqish qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Universitet barcha AKT xizmatlaridan foydalanishni ta’minlash va javobgarlik doirasini belgilash maqsadida Universitetning har bir xodimiga taqdim etiladigan korporativ domenning foydalanuvchi qayd yozuvlari yordamida kirishni boshqarish vositalaridan foydalanadi.

11.7.10 Himoyalangan obyektlarga kirishda foydalanuvchilarning autentifikatsiyasi parollar va boshqa identifikatorlar, axborot xavfsiziligi siyosatining 6-ilovasida keltirilgan Parolli himoya bo‘yicha yo‘riqnoma muvofiq ishlab chiqariladi va foydalaniladi.

11.7.11 Universitetda axborotni kriptografik muhofaza qilish kriptografik ma’lumotlarni himoya qilish vositalari yordamida tashkil etilgan. Ma’lumotlarni uzatishda himoyalangan E-xat va E-ijro tizimlaridan foydalaniladi.

11.7.12 Universitet O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 3 apreldagi PQ-614-sonli farmoniga binoan kriptografik ma’lumotlarni himoya qilish vositalari uchun sertifikatlash organi tomonidan sertifikatlangan AKHVdan foydalanishi shart.

11.7.13 Universitetda axborotni kriptografik himoya qilish usullari va vositalari, axborot xavfsiziligi siyosatining 14-ilovasida keltirilgan “Axborotni kriptografik himoya qilishni tashkil etish bo‘yicha yo‘riqnoma”ga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

11.8 Tashqi foydalanuvchilar bilan ishlashda xavfsizlik choralari

11.8.1 Tashqi foydalanuvchilar bilan ishlashda xavfsizlik choralari quyidagilarga qaratiladi:

- himoya qilish obyektlariga tashqi foydalanuvchilarning ruxsatsiz jismoniy kirishini istisno qilish;
- axborot tizimlari va resurslariga kirishda tashqi tashkilotlarning foydalanuvchilari tomonidan ruxsatsiz tarmoqqa kirishni istisno qilish.

11.8.2 Tashqi foydalanuvchilar bilan ishlashda xavfsizlik choralariga quyidagilar kiradi:

- tashrif buyuruvchilarning kelishi va ketishi jurnalini yuritish;
- xodimlar tomonidan bino ichida mehmonlarni kuzatib borish;
- tashrif buyuruvchilarni va uchinchi tomon tashkilotlarini alohida qabul

xonalarida qabul qilish;

- Universitet uchun dasturiy ta’minot va qurilmalarni ishlab chiqish, texnik xizmat ko‘rsatish yoki yetkazib berish bilan shug‘ullanuvchi uchinchi tomon tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalarda konfidensial ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga tarqatmaslik talablarini belgilash.

11.8.3 Ishlab chiquvchilar, qurilmalarni yetkazib beruvchilar va shu kabi uchinchi tomon tashkilotlari xodimlari Universitetning himoya qilinadigan obyektlariga kirishni ta’minlashda ular bilan tuzilgan shartnomalarda “Konfidensial ma’lumotlarni oshkor etmaslik” shartlari va talablarini qat’iy belgilash. Shuningdek, uchinchi tomon tashkiloti tomonidan himoya obyektlariga kirish huquqini beradigan aniq shaxslar ro‘yxati aniqlanishi lozim va bunday ruxsat faqat shu shaxslarga berilishi shart.

11.8.4 Muhofaza qilish obyektlariga qabul qilingan uchinchi tomon tashkilotlari vakillari mas’ul xodim huzurida va nazoratida bo‘lishi hamda o‘ziga tegishli vazifani bajarishi shart.

11.8.5 Axborot tizimlari va resurslarga kirishda tashqi foydalanuvchilarning tarmoqdan ruxsatsiz kirishini istisno qilish maqsadida, ushbu Siyosatning 2-ilovasida keltirilgan “Tarmoq infratuzilmasi va tarmoqlararo ekran darajasida axborot xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risida nizom”ga muvofiq, shuningdek, axborot tizimlari va resurslarga kirishda foydalanuvchining autentifikatsiyasi ushbu Siyosatning 8-ilovasida keltirilgan “Parolli himoya bo‘yicha yo‘riqnoma”ga muvofiq amalga oshiriladi.

12. Axborot xavfsizligi hodisalariga munosabat

12.1 AXBTni qurishdagi muhim jarayonlardan biri axborot xavfsizligi hodisalarini boshqarish jarayonidir.

Universitetda axborot xavfsizligi hodisalarini boshqarish “O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan axborot xavfsizligi insidentlariga ta’sir etish, tekshirish va oldini olish bo‘yicha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik reglamenti”ga (keyingi o‘rinlarda – Hamkorlik reglamenti) muvofiq amalga oshiriladi.

12.2 Axborot xavfsizligi hodisalarini boshqarish jarayonining asosiy vazifalari yo‘qotishlarni minimallashtirish, shu jumladan, hodisalarini tezkorlik bilan aniqlash va takrorlanuvchi hodisalar riskini kamaytirishdir.

12.3 Axborot xavfsizligi hodisalarini boshqarish jarayonining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- axborot xavfsizligi hodisalarini tezkor aniqlash;
- axborot xavfsizligi hodisalarini tahlil qilish;
- axborot xavfsizligi hodisalarini ro‘yxatga olish;
- axborot xavfsizligi hodisalariga munosabatni muvofiqlashtirish va rahbariyatni va zarur bo‘lganda Hamkorlik reglamentiga muvofiq manfaatdor tashqi (masalan “Kiberxavfsizlik markazi” DUK) tashkilotni xabardor qilish;
- hodisalarning manbalari va sabablarini aniqlash, shuningdek, ularning oqibatlarini baholash;
- Universitetda hodisa aniqlangandan so‘ng, axborot xavfsizligi buzilishi

to‘g‘risida ishonchli va to‘liq ma’lumot olish hamda uning oqibatlarini baholash;

- ish tartibini buzish, axborot tizimlari va resurslariga yetkazilgan zararni minimallashtirish, axborot xavfsizligi hodisasi natijasida axborot tizimlari va resurslari, lokal tarmoq va axborot tizimlari va resurslari ishlamay qolgan taqdirda ularning faoliyatini qisqa vaqt ichida qayta tiklash;

- axborot xavfsizligi hodisasining oqibatlarini bartaraf etish natijalarini tahlil qilish;

- axborot xavfsizligi bilan bog‘liq hodisalar bo‘yicha tekshiruvlar o‘tkazish, axborot xavfsizligi hodisalari dalillarining xavfsizligi va yaxlitligini ta’minlash, sodir bo‘lgan axborot xavfsizligi hodisalari to‘g‘risida aniq ma’lumotlarni to‘plash va saqlash uchun sharoit yaratish;

- axborot xavfsizligi bilan bog‘liq hodisalarning takrorlanishini oldini olish bo‘yicha tavsiyalar va choralarni ishlab chiqish;

- Universitet xodimlarini axborot xavfsizligi hodisalarini aniqlash, oqibatlarini bartaraf etish va oldini olish bo‘yicha harakatlarga o‘rgatish va favqulodda vaziyatlarda tiklash rejalarini ishlab chiqish.

Universitetda Axborot xavfsizligi hodisalarini qayd etish jurnali shakli Siyosatning 20-ilovasida keltirilgan.

12.4 Universitetda axborot xavfsizligi hodisalarini aniqlash, oqibatlarini bartaraf etish va tekshiruvlar o‘tkazish uchun quyidagi tashkiliy-texnik tadbirlarni amalga oshirish kerak:

- hodisalarni aniqlash va ularga javob berish uchun mas’ullarni aniqlash;

- axborot xavfsizligi hodisalarini aniqlash va boshqarish uchun axborot xavfsizligi hodisalarini boshqarish tizimidan (SIEM) foydalanish;

- muhim muhofaza qilish obyektlarining Axborot xavfsizligi hodisalarini qayd etish jurnalini yuritish;

- har bir muhim himoya obyekti bo‘yicha Bo‘lim va boshqa manfaatdor bo‘linmalar mutaxassislaridan axborot xavfsizligi hodisalariga javob berish va tekshiruvlar o‘tkazish uchun javob guruhini tashkil etish;

- hodisalarni tahlil qilish, shu jumladan hodisalarning manbalari va sabablarini aniqlash, shuningdek, ularning oqibatlarini baholash;

- zarur hollarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarni jalb qilgan holda sodir bo‘lgan hodisalar yuzasidan tekshiruvlar o‘tkazish;

- hodisalarni va ularning oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish va hodisalarning takrorlanishini oldini olish uchun choralar ko‘rish.

Shuningdek, axborot xavfsizligi bilan bog‘liq hodisalarni ro‘yxatga olish jurnallari barcha obyektlarda tashkil etilishi va doimiy yuritilishi shart.

12.5 Axborot xavfsizligi to‘g‘risidagi hodisalar jurnaliga yuzaga kelgan barcha axborot xavfsizligi hodisalari qayd etiladi.

Axborot xavfsizligi hodisalarini qayd etish va Favqulodda (avariyaviy) vaziyatlarni hisobga olish jurnallarida hodisalar sodir bo‘lgan sana va vaqt, hodisalar turi, hodisaga bog‘liq bo‘lgan himoya obyektlari va oqibatlarning mohiyati ko‘rsatilishi kerak.

Kutilayotgan va haqiqiy axborot xavfsizligi hodisalarini to‘liq tahlil qilish uchun

jurnalda favqulodda vaziyatlar va dolzarb axborot xavfsizligi hodisalari to‘g‘risida yetarli miqdorda ma’lumot yozilishi zarur.

12.6 Universitetda Axborot xavfsizligi hodisalarini qayd etish jurnali Axborot xavfsizligi administratorlari tomonidan yuritiladi.

12.7 Universitetda axborot xavfsizligining quyidagi hodisalari qayd etiladi va hisobga olinadi:

- axborot tizimlari va resurslari faoliyatiga ruxsatsiz aralashuv natijasida tizimning ishlamay qolishi;
- rasmiy veb-saytlarning asosiy sahifasini ruxsatsiz o‘zgartirish (deface);
- keyinchalik zararli kontentni joylashtirish bilan axborot resursi fayl tizimiga ruxsatsiz kirish;
- axborot tizimiga bo‘lgan DoS va DDoS hujumlari;
- axborot tizimining ishlash qoidalarini buzish;
- axborot tizimiga ruxsatsiz kirish;
- axborot tizimi va resurslari himoyasini buzish;
- axborot tizimi va resurslarida saqlanayotgan ma’lumotlarni o‘zgartirish, shikastlash, yo‘q qilish, shuningdek, ushbu ma’lumotlar egasining yoki qonuniy egasining ruxsatisiz unga ataylab yolg‘on ma’lumotlarni kiritish;
- axborot tizimi va resurslari joylashgan server qurilmalari ishiga ruxsatsiz aralashuv;
- mavjud dasturlarga o‘zgartirishlar kiritish orqali axborot tizimi va resurslarida saqlanadigan yoki uzatiladigan ma’lumotlarni ruxsatsiz yo‘q qilish, blokirovka qilish, o‘zgartirish, nusxalash yoki ushlab turish;
- maxsus virusli dasturlarni ishlab chiqish, foydalanish va tarqatish;
- ma’lumotlarning konfidensialligi, yaxlitligi va mavjudligini buzilishi;
- texnologik jarayonning buzilishi;
- favqulodda vaziyatlar (yong‘inlar, toshqinlar va boshqa tabiiy ofatlar yoki ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar);
- tashqi tarmoqlar bilan aloqaning yo‘qolishi;
- har qanday sababga ko‘ra asosiy tarmoq, server qurilmalari, axborotni himoya qilish vositalari, ham texnik, ham dasturiy ta’minotning ishlamay qolishi;
- axborot tizimlari va resurslari dasturiy ta’minotining noto‘g‘ri ishlashi;
- uchinchi shaxslarning axborot tizimlari va resurslariga ruxsatsiz kirishi;
- ma’lumotlarni qayta ishlash, saqlash, uzatish bo‘yicha har qanday qoidalarning buzilishi;
- himoya vositalari yordamida aniqlangan tarmoq hujumlari;
- g‘ayritabiiy tarmoq faoliyati va g‘ayritabiiy dastur harakati;
- yangi tarmoq tugunlarini ulash va yangi xizmatlarning paydo bo‘lishi;
- ma’lumot tashuvchilar va ma’lumotlarning yo‘qolishi va o‘g‘irlanishi;
- zaifliklarning paydo bo‘lishi;
- ushbu Siyosatda belgilangan qoidalarning buzilishi.

12.8 Axborot xavfsizligini ta’minlash uchun doimiy monitoring olib borilishi va ular quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- tarmoqlararo ekran, marshrutizatorlar, serverlar, ish stansiyalar, operatsion

tizimlar, MBBT va boshqalar (log-fayllar);

- vositalarning holatini vizual nazorat qilish;
- zararli dasturlarga qarshi vositalar, tarmoqlararo ekran va shu kabilarni o‘z ichiga olgan ma’lumotlarni himoya qilish vositalari haqida ma’lumotlar;
- axborot xavfsizligining ichki yoki tashqi auditi natijalari;
- xodimlar va yordamchi xodimlar tomonidan bildirilgan hodisalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

12.9 Universitetda axborot va kiberxavfsizlik bilan bog‘liq hodisalarni aniqlashga javobgar shaxslar:

- Tarmoqlarni boshqarish va texnik qo‘llab-quvvatlash sektori xodimlari – Universitetning lokal tarmog‘i va tarmoq qurilmalari, ishchi stansiyalariga;
- Raqamli ta’lim texnologiyalarini joriy etish va axborot xavfsizligini taminlash sektori xodimlari – Universitetning ishchi stansiyalariga o‘rnatilgan axborot tizimlari va resurslariga, antiviruslarga, rasmiy veb-saytlarga, tarmoqlararo ekranga.

12.10 Xodimlar axborot xavfsizligi bilan bog‘liq hodisa yuz bergan taqdirda, yo‘nalishi bo‘yicha sektor bosh mutaxassislariga, o‘z navbatda sektor bosh mutaxassislari Departament boshlig‘i hamda Axborot xavfsizligi administratoriga xabar berishlari shart. Ushbu xodimlar hodisalarning oqibatlarini bartaraf etish uchun, ularning oqibatlarini ko‘paytirmaslik uchun ko‘rsatilgan mutaxassislar bilan kelishilmagan harakatlarni qilmasliklari kerak.

12.11 Sektorlar bosh mutaxassislari aniqlangan hodisalar to‘g‘risida Axborot xavfsizligi administratorini to‘liq va aniq ma’lumotlar (vujudga kelish vaqti, tahdidning xususiyati, tahdid sabablari va manbalari, ochiq muhofaza obyektlari, o‘lchovi, oqibatlari, qabul qilingan ustuvor choralar) bilan ta’minlashga majburdir.

12.12 O‘z navbatida, Axborot xavfsizligi administratori va Departament boshlig‘i hodisalar to‘g‘risida ma’lumotni tegishliligi bo‘yicha Axborot xavfsizligi hodisalarini qayd etish jurnaliga yozib qo‘yadi.

12.13 Axborot xavfsizligining muhim nomaqbul va salbiy oqibatlariga olib keladigan axborot xavfsizligi hodisalari yuz berganda, ular haqida Mas’ul rahbarga xabar berish shart.

12.14 Har bir axborot xavfsizligi hodisasi uchun hodisa ro‘y berishining sabablari, tahdid manbai aniqlanadi, oqibatlar ko‘lami baholanadi, tahdidni yo‘q qilish, hodisa oqibatlarini bartaraf etish choralari ko‘riladi, shuningdek, agar lozim topilsa, bunday hodisalarning takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun xavfsizlikni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rilishi lozim. Universitet rahbariyati qarori bilan oqibatlarni bartaraf etishga qo‘shimcha mutaxassislar va resurslar jalb qilinadi.

Hodisa oqibatlarini bartaraf etish uchun uchinchi tomon mutaxassislari yoki xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot mutaxassislari jalb qilinishi mumkin. Hodisalar oqibatlarini bartaraf etishda tashqi ekspertlar yoki xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot mutaxassislari jalb qilingan taqdirda, ular bilan konfidensial axborotlarni oshkor qilmaslik to‘g‘risida kelishuv imzolanishi kerak.

12.15 Aniqlangan axborot xavfsizligi hodisalariga javob berishda “Kiberxavfsizlik markazi” DUK bilan o‘zaro aloqada bo‘lishlari kerak.

12.16 Tekshiruv davomida hodisaning asl sabablari, buzg‘unchilar aniqlanadi va ushbu hodisa takrorlanmasligi uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ushbu tavsiyalar asosida Axborot xavfsizligi administratori va Departament boshlig‘i hodisa takrorlanishining oldini olish bo‘yicha choralar ko‘radi va zarur tadbirlarni amalga oshiradi.

12.17 Jiddiy oqibatlarga olib keladigan hodisalarni tekshirishda buzg‘unchilarni javobgarlikka tortish uchun huquqni muhofaza qilish organlari ishtirok etishi kerak.

12.18 Hodisa yuzasidan maxsus tekshiruv o‘tkazish, tashqi manfaatdor tomonlarga xabar berish va huquqni muhofaza qilish idoralarining ishtiroki to‘g‘risida qaror Universitet rahbariyati tomonidan voqeaning oqibatlaridan kelib chiqqan holda qabul qilinadi.

12.19 Axborot xavfsizligi bilan bog‘liq hodisalarga javob berishda mas’ul xodimlar ushbu Siyosatning 19-ilovasida keltirilgan “Hodisalar va favqulodda vaziyatlarni boshqarish, shuningdek, uchinchi tomon tashkilotlari bilan o‘zaro aloqalar bo‘yicha reglament”ga shuningdek, uchinchi tomon tashkilotlari bilan o‘zaro munosabatlarni boshqarish qoidalari asosida ish ko‘riladi.

13. Aloqa kanallarining xavfsizligini ta’minlash

13.1 Ma’lumot uzatish uchun ishlatiladigan elektr va tarmoq kabellari ma’lumotni o‘g‘irlash va buzilishining oldini olish uchun buzilishdan himoyalangan bo‘lishi kerak. Ushbu riskni kamaytirish uchun quyidagi himoya choralari qo‘llaniladi:

- elektr va aloqa kabellari (imkon qadar) yer ostida, kanalizatsiya va kollektorlarda, binolar ichida bo‘lishi kerak yoki ruxsatsiz jismoniy kirishdan himoyalangan bo‘lishi kerak;
- tarmoq simlarini ruxsatsiz ochilish va ma’lumotlarni to‘sib qo‘yish, shuningdek, shikastlanishdan himoya qilish uchun, jamoat joylaridan o‘tmaslik uchun yotqizilgan ekranlangan kabellar ishlatiladi. Jamoat joylarini aylanib o‘tib, kabel yotqizish uchun texnik imkoniyatlar bo‘lmagan taqdirda, bunday kabellar metalldan yasalgan qutilarga yotqizilishi kerak, ular ruxsatsiz ochish imkoniyatini istisno qiladi;
- ish stansiyalarini ulash uchun mo‘ljallangan foydalanilmagan tarmoq kabeli ulagichlari axborotni qayta ishlash qurilmalarini ruxsatsiz ulanish imkoniyatini istisno qilish uchun maxsus marka bilan muhrlangan bo‘lishi kerak.

13.2 Tarmoq simlari imkon qadar bir-biriga salbiy ta’sirlarining (magnit shovqin) oldini olish uchun iloji boricha elektr simlaridan alohida yotqizilishi kerak, shuningdek, ruxsatsiz ulanishlar yoki shikastlanishlardan himoyalangan bo‘lishi kerak masalan, kabel yo‘nalishi ommaviy joylarni chetlab o‘tkazilgan bo‘lishi kerak.

13.3 Universitetning telekommunikatsiya tarmoqlari orqali uzatishda axborotning konfidensialligini ta’minlash uchun quyidagi himoya choralari amalga oshiriladi:

- korporativ tarmoq orqali bog‘lashda muhofaza qilinadigan obyektlarda har 90 kunda shifrlash sertifikatlarini o‘zgartirgan holda himoyalangan VPN-kanallardan foydalanish;
- xodimlar va foydalanuvchilarning axborot tizimlariga ulanishini ta’minlash vaqtida VPN-kanallar, IPSec kabi xavfsizlik usullaridan hamda HTTPS, SSL/TLS,

SSH protokollaridan foydalangan holda xavfsiz ulanishlarni tashkil etish;

- Universitet, shuningdek, uchinchi tomon tashkilotlar o‘rtasida xabarlar (yozishmalar) almashish uchun Edo.ijro.uz – Ijro intizomi idoralararo hujjat aylanish tizimi tizimi va E-xat – Himoyalangan elektron pochta tizimi kabi himoyalangan axborot uzatish tizimlaridan foydalanish.

13.4 Universitet joylashgan binolarda ichki foydalanish uchun simsiz Wi-Fi tarmog‘ini tashkil qilishda quyidagi talablarga javob berish kerak:

- Wi-Fi signali tarqatiladigan hudud chegarasini aniqlash;
- qurilmalarni MAC manzili bo‘yicha Wi-Fi tarmog‘iga kirishda autentifikatsiya.
- Wi-Fi signali nazorat qilinadigan hududdan tashqariga chiqmasligi choralarini ko‘rish;
- Wi-Fi tarmog‘i Universitetning lokal tarmog‘iga ulanmagan holda, jismoniy jihatdan alohida tashkil etilishi kerak;
- Wi-Fi tarmog‘i uchun korporativ tarmoqning internetga ulanishidan farqli o‘laroq, internetga alohida ulanish tashkil qilinishi kerak;
- xodimlarning shaxsiy Wi-Fi qurilmalarini (ish stansiyalari, noutbuklar, planshetlar va uyali telefonlar) ichki tarmoq resurslariga, xususan lokal tarmoq, korporativ tarmoq va axborot tizimlariga ulashni taqiqlash;
- xavfsizlikni ta’minlash maqsadida lokal tarmoqqa oldin ulangan terminallarni (ish stansiyalari va noutbuklarni) ichki Wi-Fi tarmog‘iga ikkinchi kirish huquqi bilan ta’minlash taqiqlanadi (qat’iy belgilangan individual terminal qurilmalari Wi-Fi tarmoqlariga ulanishi kerak).

13.5 Foydalanish cheklangan axborotlarni hududdan tashqariga uzatish nazorat qilinadigan aloqa kanallari orqali, O‘zbekiston Respublikasida sertifikatlangan axborotni kriptografik himoya qilish vositalari bilan shifrlashni ta’minlash shart.

14. Javobgarlik taqsimoti

14.1 Axborot xavfsizligi rejimini yaratish va qo‘llab-quvvatlash uchun, alohida manbalarning axborot xavfsizligi uchun javobgarlikni aniq va hujjatlashtirilgan tarzda birlashtirish va axborotni muhofaza qilishning ba’zi jarayonlarini bajarish zarur.

14.2 Resurslarni taqsimlash va axborot xavfsizligini ta’minlash tartib-taomillarini amalga oshirish uchun javobgarlik Mas’ul rahbar zimmasiga yuklanadi.

14.3 Axborot xavfsizligini ta’minlashda Mas’ul rahbarning asosiy vazifalari:

- axborot xavfsizligi maqsadlarini aniqlash;
- Siyosatni shakllantirish, qayta ko‘rib chiqishni tashkillashtirish va tasdiqlash uchun Rektorga kiritish;
- Siyosatni amalga oshirish samaradorligini monitoring qilish;
- xavfsizlikni yaxshilash bo‘yicha tashabbuslarni doimiy, aniq va moddiy-ma’muriy qo‘llab-quvvatlash;
- zarur axborot xavfsizligi vositalarini ajratish bilan bog‘liq ishlarni tashkillashtirish;
- Universitetda axborot xavfsizligi uchun javobgarlarni ko‘rib chiqish va ularning vazifalarini belgilash, shuningdek, javobgarlarni belgilash uchun Rektorga takliflar kiritish;

- Axborot xavfsizligi administratorining axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha rejalari va dasturlarini tasdiqlash.

Universitetning AXBTni bevosita tashkil etish va nazoratni amalga oshirish Axborot xavfsizligi administratori zimmasiga, axborot tizimlarining xavfsizligini ta’minlash Raqamli ta’lim texnologiyalarini joriy etish va axborot xavfsizligini ta’minlash sektori zimmasiga yuklatilgan.

14.4 Lokal tarmoq administratori yo‘riqnomasi ushbu siyosatning 3-ilovasiga muvofiq, Axborot tizimi administratori yo‘riqnomasi 4-ilovaga muvofiq, Axborot va kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha mas’ul xodimning yo‘riqnomasi ushbu Siyosatning 5-ilovada keltirilgan.

14.5 Universitet raqamli infratuzilmasini rivojlantirish, uning uzluksiz ishlashini nazorat qilish shu bilan birga, ushbu axborot va kiberxavfsizligini ta’minlash ushbu siyosatning 6-ilovasi “Axborot xavfsizligini ta’minlash sektori va Raqamli ta’lim texnologiyalari departamentining Universitet infratuzilmasida axborot va kiberxavfsizlikni ta’minlash sohasidagi vazifalarini amalga oshirish to‘g‘risidagi nizom”da belgilangan.

14.6 Ushbu Siyosat Universitetda axborot xavfsizligini ta’minlash uchun quyidagi javobgarlikni taqsimlaydi:

- Universitetda axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha barcha tadbirlar uchun Axborot xavfsizligi administratori, Departament boshlig‘i hamda xodimlari javobgardir;

- xodimga ishonib topshirilgan har qanday shakldagi ma’lumotni saqlash va uni himoya qilishning tegishli darajasini ta’minlash uchun ushbu xodim shaxsan javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi;

- Universitet axborot tizimlari va resurslarida amalga oshirilgan harakatlar uchun Universitet xodimlari o‘zlariga yuklatilgan vazifalar doirasida javobgardirlar;

- xodimga xizmat vazifalarini bajarish uchun taqdim etilgan ish stansiyasining axborot xavfsizligi (shu jumladan jismoniy xavfsizligi) uchun xodimning shaxsan o‘zi javobgardir;

- Universitet joylashgan binolarga jismoniy joylashtirilgan lokal tarmoqning axborot xavfsizligi uchun Lokal tarmoq administratori javobgardir;

- soliq va bank muassasalari tomonidan taqdim etilgan ERIlardan foydalanish (qabul qilish, yangilash, xavfsiz saqlash, bekor qilish va boshqa harakatlar) Universitetda Buxgalteriya bosh buxgalteri javobgardir;

- Edo.ijro.uz va E-xat tizimlari uchun foydalaniladigan ERI kalitlaridan foydalanish (qabul qilish, yangilash, xavfsiz saqlash, bekor qilish va boshqa harakatlar) uchun Universitetda Rektor ijro apparati, Buxgalteriya bosh buxgalteri, Devonxona bosh mutaxassisi, Fakultet dekanlari, Kafedra mudirlari, shuningdek, barcha departament, markaz va bo‘limlar boshliqlari javobgardir;

- Universitetning Fuqaro va mehnat muhofazasi sektori xodimlari Universitetda yong‘in va texnik xavfsizlik, har bir xona ichidagi jihozlarning xavfsizligi uchun javobgardir.

14.7 Mas’ul rahbar va xodimlar uchun 14.5-bandda ko‘rsatilgan javobgarlik ushbu rahbar va xodimlarning lavozim yo‘riqnomalarida, shuningdek, Universitetning

tegishli boshqa ichki me’yoriy hujjatlarida belgilanadi.

14.8 Mas’ul rahbar yoki xodim ishda bo‘lmaganida (ta’til, kasallik, mehnat safari va boshqalar) uning vazifalarini belgilangan tartibda tayinlangan shaxs bajaradi. Ushbu shaxs tegishli huquqlarga ega bo‘ladi va o‘ziga yuklatilgan vazifalarning to‘g‘ri bajarilishi uchun javobgardir.

15. Siyosatni qayta ko‘rib chiqish va yangilash tartibi

15.1 Siyosatni qayta ko‘rib chiqish yilda bir marta yoki quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

- Siyosatni ayrim bandlari axborot xavfsizligiga tegishli yangi me’yoriy-huquqiy va me’yoriy texnik hujjatlarga zid bo‘lsa yoki amaldagi qonuniy hujjatlarga o‘zgartirish kiritilsa;
- Siyosat talablarini qayta ko‘rib chiqish zaruriyati paydo bo‘lsa;
- Universitet infratuzilmasiga dasturiy va texnik ta’minoti vositalarini yangi qo‘shilganda yoki o‘chirilganda, tizim konfiguratsiyasi o‘zgarganda, yangi himoya obyektlari qo‘shilganda;
- axborotni himoya qilish vositalari tarkibi o‘zgarganda;
- Universitet tarkibiy tuzilmasi o‘zgarganda (qayta tashkil etilganda).

15.2 Agar Siyosatning ayrim bandlari va boshqa me’yoriy hujjatlari O‘zbekiston Respublikasini axborot xavfsizligi sohasiga doir yangi qonuniy hujjatlariga zid bo‘lsa, bu holda Siyosatga o‘zgartirish kiritilguniga qadar ushbu bandlar o‘z yuridik kuchini yo‘qotadi.

15.3 Siyosatga o‘zgartirish va qo‘shimchalar, Mas’ul rahbar, Departament boshlig‘i va Axborot xavfsizligi administratori tashabbusi bilan kiritiladi va Rektor tomonidan tasdiqlanadi.

15.4 Siyosatni o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yoki dolzarbligi va samaradorligini baholash quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- tasdiqlangan Siyosat talablari va qoidalariga muvofiqligini baholash;
- Universitetning axborot tizimlari, infratuzilmasi axborot xavfsizligiga qo‘yilgan talablarga muvofiqligi;
- ko‘rilayotgan chora-tadbirlar, axborotni himoya qilish usullari va vositalarini samaradorligini baholash;
- Siyosatga o‘zgartirish, qo‘shimchalar kiritish yoki qayta ko‘rib chiqish zaruriyati tug‘ilganda.

15.5 Agar Universitetning axborot infratuzilmasi va shu bilan bog‘liq axborot texnologik jarayonlariga qo‘shimcha o‘zgartirishlar kiritilsa, uning AXBT tizimi o‘zgarsa, Siyosat to‘liq qayta ko‘rib chiqiladi.

15.6 Siyosatning yangi tahriri O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi, O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati bilan qayta kelishilishi shart.

15.7 Universitet xodimlari Siyosat qayta ko‘rib chiqilgan va tasdiqlanganidan so‘ng Siyosat bilan imzo qo‘yish orqali tanishishlari lozim. Siyosat bilan tanishish jurnali shakli ushbu Siyosatning 21-ilovasida keltirilgan.

Universitet axborot xavfsizligi
siyosatga 1-ilova

Lokal tarmoq va himoyalangan tarmoq ulanishlarini tashkil etish to‘g‘risidagi NIZOM

1. Umumiy qoidalar

1.1 Ushbu Nizom Universitetda lokal tarmoq va xavfsiz tarmoq ulanishlarini tashkil etish qoidalari va tartibini belgilaydi.

1.2 Universitet doimiy ravishda o‘zining lokal tarmog‘i xavfsizligini to‘liq nazorat qiladi.

2. Lokal tarmoq maqsadi

2.1 Universitet lokal tarmog‘i quyidagilarni ta’minlaydi:
- xodimlar o‘rtasida axborot aylanishini ta’minlash;
- xodimlarining ish stansiyalarini tashqi internetga ulash;
- tashqi ma’lumotlarni uzatish kanallari ulanish.

3. Lokal tarmoq tarkibi

3.1 Universitet lokal tarmog‘i tarkibiga quyidagilar kiradi:
- Universitet lokal tarmog‘ini internet tarmog‘iga ulash kanallari;
- tarmoqni kommutatsiya qilish qurilmalari;
- tarmoqlararo ekran (FortiGate 100F) apparat vositasi, internet tarmog‘iga binolarning lokal tarmog‘iga ulanishining nuqtasida o‘rnatilgan Proksi-server;
- fayl server;
- axborot tizimlari va resurslari joylashgan server;
- kommutatsiya panellari va tarmoq kabellari.

4. Lokal tarmoqni tashkiliy boshqarish va rivojlantirish bo‘yicha ishlarni tashkil etish

4.1 Universitet lokal tarmog‘ini tashkiliy boshqarish, uning rivojlanish yo‘nalishlari va bosqichlarini belgilash, shuningdek, uni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish Universitetda Raqamli ta’lim texnologiyalari departamenti Tarmoqlarni boshqarish va texnik qo‘llab-quvvatlash sektori bosh mutaxassisi (keyingi o‘rinlarda – Lokal tarmoq administratori) tomonidan amalga oshiriladi.

4.2 Lokal tarmoqlarni boshqarish Universitetda Lokal tarmoq administratori tomonidan amalga oshiriladi.

4.3 Lokal tarmoqlarni boshqarish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:
- lokal tarmoqning axborot xavfsizligini ta’minlash;
- xavfsiz ulanishlarini tashkil qilish;

- tashqi telekommunikatsiya tarmoqlari bilan lokal tarmoqning ma’lumot almashinuvini boshqarish;

- lokal tarmoq ichidagi axborot oqimlarini boshqarish;

- foydalanuvchilarning lokal tarmoq orqali axborot tizimlari va resurslariga kirishini boshqarish, ularning vakolatlari va foydalanish huquqlarini aniqlash;

- foydalanuvchilarni, shuningdek, axborot tizimlari va resurslarini lokal tarmoqqa ulash va ajratish;

- lokal tarmoqni tashkil etadigan tarmoq qurilmalari, tarmoq manbalariga texnik xizmat ko‘rsatish;

- tarmoqda ishlatiladigan dasturiy va texnik vositalarni tanlash.

4.4 Lokal tarmoq administratori tarmoq qurilmalariga (kommutator va routerlar) texnik xizmat ko‘rsatilishini va ishlashini ta’minlaydi.

4.5 Universitetda Lokal tarmoq administratori axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha mas’ul xodim (keyingi o‘rinlarda – Axborot xavfsizligi administratori)ni va Departament boshlig‘ini ushbu Nizom qoidalari buzilishining barcha holatlari to‘g‘risida xabardor qilishi shart.

5. Lokal tarmoqni rivojlantirish

5.1 Lokal tarmoqni yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari:

- markaziy kommutatorlarni – lokal tarmoq kommutator yadrosini modernizatsiya qilish;

- lokal tarmoq va internetning tashqi kanallariga ulanish uchun, ular o‘rtasida himoyalangan VPN-ulanishlarni tashkil etish funksiyasiga ega bo‘lgan apparat va dasturiy ta’minot sotib olish va ulardan foydalanish;

- tashqi tarmoqqa himoyalangan VPN-ulanishlarni, VPN-mijoz va proksi-server funksiyalari mavjud bo‘lgan tarmoqlararo ekran va DLP vositalarini sotib olish va foydalanish;

- zaxira nusxasini ta’minlash uchun ma’lumotlarni saqlash tizimlarini, shuningdek, lokal tarmoqni tashkil etuvchi muhim tugunlarning ishlashini nazorat qilish va zaxiralashni ta’minlash uchun yordamchi server tizimlarini olish va joylashtirish.

6. Lokal tarmoqda xavfsiz bog‘lanishlar sinflanishi

6.1 Universitetdagi lokal tarmoqlarda himoyalangan ulanishlar, uzatilayotgan ma’lumotlarning konfidensialligi va yaxlitligini ta’minlash uchun ishlatiladi.

6.2 Lokal tarmoqdagi xavfsiz ulanishlar ikkita mezon bo‘yicha tasniflanadi:

- ularni tashkil etish darajasi;

- himoya qilishning amaliy texnologiyalari.

6.3 Tashkilot darajasida Universitet lokal tarmoqlaridagi xavfsiz ulanishlar quyidagicha tasniflanadi:

- aloqa va axborot almashinuvini tashkil qilish uchun himoyalangan aloqalar;

- tashqi foydalanuvchilar va boshqa tashkilotlarning foydalanuvchilarini tashqi

tarmoq orqali axborot tizimlari va resurslariga (fuqarolarning murojaatlari, talabalar turar joylari uchun ariza berish kabi vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan axborot tizimlari) ulashda himoyalangan ulanish.

7. Lokal tarmoqda himoyalangan ulanishlardan foydalanish tamoyillari

7.1 Universitet lokal tarmoqlarida quyidagi himoyalangan ulanishlar tashkil etiladi:

- internet orqali Universitet (https://buxdu.uz/) rasmiy veb-saytiga, shuningdek, Universitetning boshqa ochiq axborot resurslariga kirish huquqini taqdim etishda HTTPS va SSL/TLS protokollaridan foydalangan holda himoyalangan ulanishlardan foydalanish. (Tashqi foydalanuvchilar hamda internet foydalanuvchilari tomonidan foydalaniladi);
- fuqarolarning murojaatlari, talabalar turar joylari uchun ariza berishi kabi vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan axborot tizimlariga ulanganda VPN-kanallar, IPSec kabi xavfsizlik usullaridan hamda HTTPS, SSL/TLS protokollaridan foydalangan holda xavfsiz ulanishlarni tashkil etish.

7.2 Universitet lokal tarmog‘ida 7.1-bandda ko‘rsatilgan himoyalangan ulanishlarni tashkil etish va buning ustidan nazorat Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘iga yuklatilgan.

8. Javobgarlik

8.1 Lokal tarmoq foydalanuvchilari, Lokal tarmoq administratori hamda departament xodimlari quyidagilarga javobgardir:

- ushbu yo‘riqnomada nazarda tutilgan talablarni bajarishga;
- o‘ziga biriktirilgan ish stansiya va lokal tarmoqdagi ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlashga;
- faqat avtorizatsiyaga ega bo‘lgan lokal tarmoqdagi resurslar va ma’lumotlarga kirishlari hamda kirishlarni boshqarish maqsadida joriy etilgan siyosatlarni yoki ruxsatlarni tushunishga va ularga qat’iy rioya qilishga;
- lokal tarmoq qurilmalaridagi o‘z faoliyatiga tegishli muhim ma’lumotlarning muntazam zaxira nusxasini yaratish va saqlab borishga;
- lokal tarmoqqa ulangan boshqa xodimlarga o‘zaro hurmat bilan munosabatda bo‘lishga.

8.2 Ushbu Nizomda belgilangan talablarning buzilishi Universitetning ichki mehnat qoidalari va O‘zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligiga muvofiq intizomiy javobgarlikka tortilishga olib keladi.

Universitet axborot xavfsizligi
siyosatga 2-ilova

Tarmoq infratuzilmasi va tarmoqlararo ekran darajasida axborot xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risida NIZOM

1. Umumiy qoidalar

1.1 Ushbu Nizom tarmoqlararo ekrandan foydalangan holda Universitetda joylashgan axborot tizimlari va resurslarga kirishni boshqarish orqali axborot xavfsizligini ta’minlash mexanizmi va qoidalarini tartibga solish maqsadida ishlab chiqilgan.

1.2 Nizom Universitetning lokal tarmoqlarini, axborot tizimlari va resurslarini tarmoq darajasida ruxsatsiz kirishdan himoya qilishni tashkil etishning asosiy tamoyillarini belgilaydi.

2. Atamalar va ta’riflar

2.1 Ushbu Nizomda O‘zDSt 2927:2015 “Axborot texnologiyalari. Axborot xavfsizligi. Atamalar va ta’riflar” va O‘zDSt 1047:2018 “Axborot texnologiyasi. Atamalar va ta’riflar” davlat standartlaridagi atamalar va ularning ta’riflari qo‘llaniladi:

2.1.1 **tarmoq infratuzilmasi** – aloqa tarmoqlari, shuningdek, ish stansiyalari va serverlar o‘rtasida mantiqiy aloqani ta’minlovchi kommutatsion qurilmalarni o‘z ichiga olgan;

2.1.2 **OSI modeli** – 7 darajadan iborat ochiq axborot tizimlarining tarmoqlararo ta’sirining bazaviy etalon modeli, ularning uchtasi tarmoq infratuzilmasiga tegishli;

2.1.3 **OSI modelining fizik (birinchi) darajasi** – ma’lumotlarni uzatish vositasi, signallar va ikkilik ma’lumotlar bilan ishlash;

2.1.4 **OSI modelining kanal (ikkinchi) darajasi** – kommutatsiya darajasida fizik manzilga murojaat qilish;

2.1.5 **OSI modelining tarmoq (uchinchi) darajasi** – marshrutni va mantiqiy adresni IP protokoli darajasida aniqlash;

2.1.6 **tarmoqlararo ekran** – tizimga kiradigan va/yoki tizimdan chiqadigan ma’lumot ustidan nazoratni amalga oshiradigan tarmoq (bitta komponentli) yoki funksional-taqsimlangan dasturiy ta’minot (apparat-dasturiy ta’minot) vositasi (kompleks);

2.1.7 **tashqi tarmoq** – Universitet tomonidan boshqarilmaydigan tarmoqlar, shu jumladan internet va boshqalar;

2.1.8 **hujumlarni aniqlash va bartaraf etish tizimi (Intrusion Detection & Prevention System IDPS)** – bu kirishni yoki xavfsizlik buzilishlarini aniqlaydigan va avtomatik ravishda ulardan himoya qiladigan dasturiy yoki apparat asosidagi tarmoq va kompyuter xavfsizligi vositasi.

3. Umumiy talablar va tarmoq infratuzilmasi darajasidagi talablar

3.1 Tarmoq infratuzilmasini muhofaza qilish OSI modelining har bir sathini-jismoniy, kanal, tarmoq, transport va boshqalarni himoya qilishga asoslangan.

3.2 Jismoniy himoya qilish ma’lumotlarni uzatishda foydalaniladigan oddiy juftlik va optik kabellarining xavfsizligini ta’minlashdan iborat.

3.3 Kanal sathidagi himoya tegishli axborot xavfsizligi funksiyalariga ega kommutatorlarga asoslangan holda qurilgan.

Universitetda joylashgan tarmoq kommutatorlari va marshrutizatorlari hamda tarmoqlararo ekran (Kerio Control 9.3.5 build 4367 yoki FortiGate 100F) orqali:

- DHCP snooping – bu DHCP hujumlaridan himoya qilish uchun mo‘ljallangan almashtirish funksiyasi.
- IP Source Guard – IP-spoofingga qarshi kurashish uchun mo‘ljallangan, IP-paketdagi yuboruvchining IP-manzilini tekshiradi.
- IP Source Guard (Dynamic IP Lockdown) – bu DHCP snooping majburiy jadvali va statik o‘yinlar asosida trafikni filtrlash orqali bog‘lanish qatlami interfeyslarida IP-trafikni cheklaydigan o‘chirish funksiyasi. Funksiya IP-firibgarlikka qarshi kurashish uchun ishlatiladi.

3.4 Tarmoq darajasida himoya qilish obyekt va subyekt o‘rtasidagi aloqani o‘rnatishni ta’minlaydigan ekranli modullardan foydalangan holda quriladi, so‘ngra voqealarni kuzatib borish va yozib olish vaqtida qoidalar asosida ma’lumotni yuboradi yoki bloklaydi.

Lokal tarmoq, uning segmentlari va manbalariga kirishni boshqarish tarmoqlararo ekran orqali ta’minlanadi.

3.5 OSIning ikki va undan yuqori sathlarini tarmoq hujumlardan himoya qilish, hujumlarni aniqlash va oldini olish vositalari (IDPS) yordamida ta’minlanishi lozim.

3.6 IDPS vositasi tekshirish usuli va xatti-harakatlarni tahlil qilish usuli yordamida tarmoq hujumlari va hujumlarini aniqlashi va ularning harakatlarini oldini olish ta’minlanadi.

3.7 IDPS vositalaridan foydalanganda ularda ishlatiladigan hujum usulini tekshirish va ma’lumotlar bazalarining davriy yangilanishi ta’minlanishi kerak.

3.8 IDPS vositasidan lokal tarmoqqa internet tarmog‘idan ulanishda tarmoq hujumlariga qarshi himoya qilish uchun qo‘llanilishi lozim.

3.9 Proksi-serverlar yoki ilovalarni boshqarish funksiyalariga ega tarmoqlararo ekran transport va amaliy qatlam protokollari orqali trafik uzatilishini boshqarish uchun ishlatiladi.

3.10 Proksi-serverlar yoki tarmoqlararo ekran internetga lokal tarmoq ulanishining chegarasida o‘rnatiladi. Proksi-server yoki tarmoqlararo ekran sozlamalarida va axborot resurslari uchun zarur bo‘lgan trafik tarmoq protokollari orqali ta’minlanadi.

4. Tarmoqlararo ekran

4.1 Tarmoqlararo ekran ma’lumotlarini (paketlarni va ulanishlarni) OSIning turli

darajalarida (tarmoq sathidan dasturiy darajasiga qadar) belgilangan tarmoq xavfsizligi qoidalariga muvofiq filtrlashi kerak, shuningdek, himoyalangan tarmoq tuzilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tashqi foydalanuvchilardan yashirishi kerak.

4.2 Tarmoqlararo ekran lokal tarmoqning internetga ulanish nuqtasiga o‘rnatiladi.

4.3 Ushbu Nizomning 4.2-bandda ko‘rsatilgan tarmoqlararo ekran O‘z DSt 2815:2014 “Axborot texnologiyalari. Tarmoqlararo ekranlar. Ma’lumotlarga ruxsatsiz kirishdan himoya qilish darajasi bo‘yicha tasniflash” davlat standartiga muvofiq kamida 3-xavfsizlik sinfidan iborat bo‘lishi kerak.

4.4 Tarmoqlararo ekranni sozlashda quyidagi talablar bajarilishi shart:

- internet tarmog‘idan lokal tarmoqqa to‘g‘idan-to‘g‘i kirishlarni cheklash (blokirovka qilish);
- xodimlar uchun internet tarmog‘idan (masofadan) lokal tarmoqqa ruxsat etilmagan hamda himoyalanmagan ulanishlarni cheklash (blokirovka qilish);
- faqat xodimlarning ish stansiyalarini internetga ulanishini ta’minlash, shuningdek, kirishlarni boshqarish;
- ushbu talablarni bajarish uchun filtrlash qoidalariga muvofiq turli protokol, IP-manzillar, URL-manzillar orqali so‘rovlarni va trafikni filtrlash;
- tarmoq manzili translyatsiyasini (NAT) ta’minlash;
- ilovalarni nazorat qilish.

5. Tarmoqlararo ekranni o‘rnatish va ishlatish tartibi

5.1 Joriy etiladigan tarmoqlararo ekran quyidagi talablarni bajarishi shart:

- himoyalangan tarmoq yoki uning segmenti xavfsizligini va tashqi ulanishlar va aloqa seanslari ustidan to‘liq nazoratni ta’minlash;
- Siyosatni to‘liq va sodda amalga oshirish uchun kuchli va moslashuvchan boshqaruv vositalariga ega bo‘lishi;
- tarmoq tarkibi o‘zgarganda tizimni oddiy qayta konfiguratsiyalash;
- tarmoq foydalanuvchilari uchun uzluksiz ishlashiga va ularning huquqiy harakatlariga to‘sqinlik qilmaslik;
- tarmoqqa bo‘lgan so‘rovlar soni oshgan, tig‘iz vaqtda barcha kiruvchi va chiquvchi trafiklarni qayta ishlash uchun samarali va o‘z vaqtida ishlashi;
- har qanday ruxsatsiz ta’sirlardan o‘zini himoya qilish xususiyatlariga ega bo‘lishi.

5.2 Tarmoqlararo ekranni joriy etishdan oldin ushbu Nizomning 6-bo‘limiga muvofiq sinovlardan o‘tkazilishi kerak.

5.3 Tarmoqlararo ekranni ishlatish (texnik xizmat ko‘rsatish, sozlamalarini o‘zgartirish) Universitetda Tarmoqlarni boshqarish va texnik qo‘llab-quvvatlash sektori bosh mutaxassisi (keyingi o‘rinlarda – Lokal tarmoq administratori) va Departament xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

5.4 Tarmoqlararo ekranni ishlatishdan oldin ushbu Nizomning 4-bo‘limi va Siyosat talablariga muvofiq sozlanadi.

5.5 Tarmoqlararo ekranni ishlatishda quyidagilar ta’minlanishi kerak:

- tarmoqlararo ekran ishini muntazam ravishda monitoring qilish va diagnostika qilish, shuningdek, tarmoqlararo ekran tomonidan nazorat funksiyalarining bajarilishini nazorat qilish;

- ushbu Nizomning 7-bo‘limida ko‘rsatilgan holatlarda tarmoqlararo ekranning sozlamalarini o‘zgartirish;

- tarmoqlararo ekran sozlamalari va konfiguratsiyasini belgilangan filtrlash talablariga asosan ishlashini har kuni tekshirish;

- tarmoqlararo ekranning so‘nggi sozlamalarini saqlash;

- tarmoqlararo ekran ishlamay qolganda yoki boshqasiga almashtirilganda uning so‘nggi barcha sozlamalari va konfiguratsiyasini tiklash orqali sozlash.

5.6 Uzatiladigan trafik hajmi ko‘payganda yoki tarmoqlararo ekran nazoratini oshirish va boshqa maqsadlarda tarmoqlararo ekranning ish tartibiga o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

5.7 Tarmoqlararo ekran ishlashiga o‘zgartirishlar kiritish ushbu Nizomning 5.3-bandida keltirilgan mas’ul xodimlar tomonidan amalga oshiriladi, shuningdek, zarurat tug‘ilganda tegishli xavfsizlik talablariga rioya qilgan holda uchinchi tomon tashkilotlari jalb qilinadi.

5.8 Tarmoqlararo ekranlarga xizmat ko‘rsatuvchi mas’ul xodimlar har kuni xavfsizlik jurnallarini va tarmoqlararo ekran hodisalarini kuzatib borishlari kerak.

5.9 Agar tashqi hujumlar aniqlansa, Universitetning axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha mas’ul xodimi (keyingi o‘rinlarda – Axborot xavfsizligi administratori) hamda Departament boshlig‘ini xabardor qilishlari shart.

6. Tarmoqlararo ekranni sinovdan o‘tkazish tartibi

6.1 Tarmoqlararo ekranni sinovdan o‘tkazishning maqsadi ushbu dasturiy-apparat vositaning (paket filtrlari, proksi-serverlari, dastur shlyuzlari) tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlar talablarga muvofiqligini tasdiqlash, shuningdek, filtrlashning talab qilingan qoidalarini bajarilishini tekshirish hisoblanadi.

6.2 Tarmoqlararo ekranni sinovdan o‘tkazish uchun boshqaruv xavfsizligi stendi yaratilib, u Axborot xavfsizligi administratori va Departament boshlig‘iga mustaqil ravishda paket yaratishga (ulanishni o‘rnatishga) va tarmoqlararo ekran sozlamalarining sinov natijalariga (tarmoqlararo ekrani orqali paket o‘tganligi yoki ulanish o‘rnatilganligi) tahlil qilishga imkoniyatini beradi.

Eng oddiy sinov bu paket (ulanish) generatori va trafikni tekshirgichlarni o‘z ichiga oladi. Ulanish o‘rnatilishini tekshirish uchun paket generatori ulanishni o‘rnatishi kerak va trafik tekshirgichi har qanday o‘zboshimchalik bilan belgilangan port yoki dasturga xizmat ko‘rsatadigan universal server bo‘lishi kerak.

6.3 Sinov jarayonida Axborot xavfsizligi administratori va Departament boshlig‘i paketni uzatish yoki tarmoqlararo ekranni “turli tomonlarida” ulanishni o‘rnatish natijalarini yaratishi va tahlil qilishi kerak (ya’ni paket generatori va trafik analizatori turli yo‘nalishlarda joylashgan bo‘lishi kerak).

6.4 Tarmoqlararo ekran orqali o‘tkazilgan sinov trafiklari natijalarini tahlil qilish va ularning aniq talabga javob beradigan deb hisoblangan natijalar bilan taqqoslash

asosida tarmoqlararo ekran sinovdan o‘tgan xavfsizlik mexanizmining to‘g‘ri bajarilishi to‘g‘risida xulosa chiqariladi.

6.5 Tarmoqlararo ekran sinovi barcha monitoring funksiyalari va filtrlash qoidalari tasdiqlanmaguncha amalga oshiriladi. Tarmoqlararo ekran sinov muddati kamida bir oy bo‘lishi kerak.

6.6 Tarmoqlararo ekranlar barcha sinov operatsiyasidan muvaffaqiyatli o‘tgan taqdirda Mas’ul rahbarga xabar beriladi.

7. Tarmoqlararo ekran konfiguratsiyasiga o‘zgartirishlar kiritish tartibi

7.1 Tarmoqlararo ekran konfiguratsiyasiga quyidagi hollarda o‘zgartirishlar kiritiladi:

- Siyosat talablari o‘zgarishi munosabati bilan yoki Universitet rahbariyatining topshirig‘iga binoan, shuningdek, alohida ulanishlar va kirishlarga cheklovlarni o‘rnatish zaruriyati bilan filtrlash qoidalarini o‘zgartirish;
- lokal tarmoq konfiguratsiyasini o‘zgartirish, yangi dasturlar, qurilmalar yoki foydalanuvchilarni qo‘shish;
- muvaffaqiyatsizliklar yoki hujumchilarning aniqlanishi va h.k.;
- qo‘shimcha yoki yangi axborot xizmatlarining joriy etilishi.

7.2 Mas’ul xodimlar tarmoqlararo ekranning konfiguratsiyasida har bir o‘zgarish haqida Universitetda Axborot xavfsizligi administratoriga va Departament boshlig‘iga xabar berishlari shart.

7.3 Tarmoqlararo ekran sozlamalari va konfiguratsiyasiga kiritilgan o‘zgartirishlar Lokal tarmoq administratori hamda departament xodimlari tomonidan ushbu Nizomga ilova qilingan shaklda jurnallarda qayd etilishi kerak.

7.4 Axborot xavfsizligi administratori tarmoqlararo ekran konfiguratsiyasiga kiritilgan o‘zgartirishlarni har chorakda kamida bir marta qayd etish jurnallari orqali tekshirishi kerak.

8. Javobgarlik

8.1 Axborot xavfsizligi administratori va Departament boshlig‘i Lokal tarmoq administratori hamda Departament xodimlarining ushbu Nizomda belgilangan talablarga rioya qilishlari uchun javobgardir.

8.2 Ushbu Nizomda belgilangan talablarning buzilishi Universitetning ichki mehnat qoidalari va O‘zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligiga muvofiq intizomiy javobgarlikka tortilishga olib keladi.

Tarmoq infratuzilmasi va tarmoqlararo ekran darajasida axborot xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risidagi Nizomga ilova

Tarmoqlararo ekran sozlamalariga kiritilgan o‘zgartirishlarni qayd qilish JURNALI

T/r	Sana va vaqt	Kiritilgan o‘zgartirish	O‘zgartirish kiritish sababi
1.			
2.			
3.			
4.			
5.			

Universitet axborot xavfsizligi
siyosatiga 3-ilova

Lokal tarmoq administratorining YO‘RIQNOMASI

1. Umumiy qoidalar

1.1 Ushbu yo‘riqnoma Universitet lokal tarmog‘ini boshqarish tartibi va qoidalarini, lokal tarmoq administratori vazifalarini, lokal tarmoqning uzluksiz ishlashini ta’minlash va uning axborot xavfsizligini tegishli darajada saqlash vazifalarini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

1.2 Universitetda lokal tarmoqni boshqarish uchun javobgarlik Lokal tarmoq administratoriga, u ma’lum sabab bilan ish joyida bo‘lmaganligi vaqtida Departament boshlig‘i qarori bilan Departamentning boshqa xodimi zimmasiga yuklanadi.

1.3 Lokal tarmoq administratori lavozimiga tayinlanadigan nomzodlar Departament boshlig‘i tomonidan ushbu Departament xodimlari orasidan tanlanadi va Universitet rahbariyati buyrug‘i bilan tayinlanadi.

1.4 Lokal tarmoq administratorining huquq va majburiyatlari ushbu yo‘riqnoma bilan belgilangan va uning lavozim yo‘riqnomasiga qo‘shimcha tarzda keltirilgan.

Betobligi tufayli yoki mehnat ta’tili paytida lokal tarmoq administratorining ishda bo‘lmagan vaqt, ushbu yo‘riqnomada ko‘rsatilgan lokal tarmoq administratorining huquqlari va majburiyatlari Departamentning boshqa xodimi zimmasiga yuklatiladi.

1.5 Lokal tarmoq administratori AKT sohasida kamida 3 yil ish tajribasiga ega bo‘lishi kerak.

1.6 Lokal tarmoq administratorining o‘z majburiyatlarini bajarishi bilan bog‘liq talablari Universitetning lokal tarmog‘idan foydalanuvchi barcha xodimlar uchun majburiydir.

1.7 Lokal tarmoq administratori quyidagilarga asoslangan holda ish yuritadi:

- Universitet axborot xavfsizligi siyosati;
- Universitet rektorining buyruqlari va farmoyishlari;
- qonun hujjatlari, ichki mehnat qoidalari;
- lokal tarmoqni boshqarish va axborot xavfsizligini ta’minlash usullari va qo‘llanmalari, ilmiy va uslubiy materiallar;
- ushbu yo‘riqnomaga asosan.

2. Lokal tarmoq administratorining vazifalari

2.1 Lokal tarmoq administratori hamda Departament xodimlari quyidagilarni bilishi kerak:

- lokal tarmoqda axborot texnologiyalaridan mukammal va samarali foydalanish;
- lokal tarmoqning tarmoq qurilmalaridan foydalanish qo‘llanmalarini;
- lokal tarmoq infratuzilmasini loyihalash va sozlash, jumladan kalitlar, marshrutizatorlar, kirish nuqtalari va kabellar;
- lokal tarmoq foydalanuvchilari hisoblarini yaratish, o‘zgartirish va o‘chirish,

shuningdek, kirish, ruxsatlar va xavfsizlik sozlamalarini boshqarish;

- xavfsizlik devorlari, hujumlarni aniqlash tizimlari va antivirus yechimlari kabi xavfsizlik choralarini qo‘llash va saqlash;
- himoyalangan VPN-ulanishlarni tashkil etish tartibi va usullarini amaliyotda qo‘llash;
- lokal tarmoq xavfsizligini kuzatish va xavfsizlik hodisalariga javob berish;
- lokal tarmoq ish faoliyatini baholash uchun monitoring qilish vositalaridan foydalanish;
- lokal tarmoq apparat va dasturiy ta’minotining so‘nggi yangilanishlar bilan yangilanib turishini ta’minlash;
- ma’lumotlarning zaxira nusxasini yaratish va ularni tiklash rejalarini ishlab chiqish va saqlash;
- xodimlarga texnik yordam ko‘rsatish, ularga tarmoq bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etishda tezkor yordam berish;
- lokal tarmoq konfiguratsiyasi, siyosati va protseduralarining batafsil yozuvlarini saqlash;
- LDAP yoki Active Directory kabi foydalanuvchi autentifikatsiya mexanizmlarini joriy qilish;
- ruxsatsiz kirishni cheklash uchun kirishni boshqarish siyosatlarini qo‘llash;
- lokal tarmoq muammolari, ulanish muammolari va uzilishlarni tekshirish, ularni tezkorlikda hal qilish;
- lokal tarmoqni kengaytirish, takomillashtirish bo‘yicha rejalarni ishlab chiqish va takliflar tayyorlash;
- dasturiy ta’minotlarni yangilash, qurilmalarni tozalash va zaxira nusxalarini yaratish kabi ishlarni muntazam rejalashtirish va tartibli bajarish;
- lokal tarmoq faoliyatini yaxshilash uchun mavjud konfiguratsiyasilar hamda sozlamalarni optimallashtirish;
- xodimlarning uchun lokal tarmoqdan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish, shuningdek, lokal tarmoqda xavfsizlik talablariga rioya qilish bo‘yicha xabardorligini oshirish;
- lokal tarmoqning axborot xavfsizligini ta’minlashga qo‘yiladigan talablarni bajarish;
- mehnatni muhofaza qilish qoidalari, normalari, xavfsizlik choralari va yong‘indan himoya qilish talablarini bajarish.

2.2 Lokal tarmoq administratori hamda Departament xodimlari quyidagilarga majbur:

- lokal tarmoq tarkibiga kiruvchi texnik, dasturiy ta’minot, tarmoq resurslarining ishlashini nazorat qilish;
- lokal tarmoq tarkibiga kiruvchi texnik, dasturiy ta’minot, tarmoq resurslarining ishlashini (o‘rnatish, sozlash, boshqarish va texnik xizmat ko‘rsatish) nazorat qilish;
- lokal tarmoqni profilaktika qilish bo‘yicha rejalar va jadvallarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- himoyalangan VPN-ulanishlarini tashkil etish va ishlashini ta’minlash;

- lokal tarmoqni profilaktika qilish boʻyicha rejalar va jadvallarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- kabellar infratuzilmasini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha ishlarni tashkil etish va amalga oshirish, shu jumladan, tarmoq obyektlari va axborotni qayta ishlash vositalarini lokal tarmoqqa ulash, kabel tizimidagi nosozliklarni aniqlash va tuzatish;

- lokal tarmoq ishidagi turli xil ogʻishlarni oʻz vaqtida bartaraf etish boʻyicha ishlarni aniqlash va amalga oshirish;

- lokal tarmoqdagi axborot xavfsizligini buzish bilan bogʻliq voqealarga tezkor va samarali javob berish;

- tegishli vakolatlar va tarmoq axborot tizimlari va resurslariga kirish huquqlarini berish bilan xodimlarning ish stansiyalarini lokal tarmoqqa ulash;

- axborotlashtirish obyektlarini lokal tarmoqqa ulash boʻyicha talablarga rioya qilish;

- lokal tarmoq faoliyati jurnallarining ma’lumotlarini tahlil qilish;

- himoya talablarining mumkin boʻlgan buzilishlarini aniqlash uchun lokal tarmoq faoliyati jurnallaridan ma’lumotlarni tahlil qilish;

- lokal tarmoq qurilmalarining jismoniy xavfsizligini nazorat qilish;

- ruxsatsiz shaxslarning lokal tarmoqqa ulanishiga va ishlashiga yoʻl qoʻymaslik;

- vaqti-vaqti bilan bir oyda kamida bir marta lokal tarmoqning tarmoq qurilmalarini ularning ishlashining toʻgʻriligini sinovdan oʻtkazgan holda nazorat tekshiruvlarini oʻtkazish. Ushbu tekshiruvlar va sinovlar har yili ishlab chiqiladigan texnik xizmat koʻrsatish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi;

- tarmoq qurilmalari dasturiy ta’minotining xavfsizligini, himoyasini va oʻz vaqtida yangilanishini ta’minlash;

- lokal tarmoq infratuzilmasini rivojlantirish va uning xavfsizlik darajasini oshirish boʻyicha takliflar tayyorlash va taqdim etish;

- lokal tarmoq qurilmalarining yakuniy sozlamalarini, shuningdek, tarmoq qurilmalarini (domen serveri va fayl serveri) zaxira nusxalarini muntazam ravishda zaxiralashni amalga oshirish;

- har oyda tegishliligi boʻyicha Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshligʻiga lokal tarmoqning ishlashi va axborot xavfsizligi holati toʻgʻrisida axborot berish, shuningdek, favqulodda vaziyatlar va xodimlar tomonidan axborotni muhofaza qilish boʻyicha belgilangan talablarning buzilishi toʻgʻrisida darhol xabar berish;

- xodimlar tomonidan Siyosat talablarining lokal tarmoqdan foydalanishda belgilangan tartib doirasida nazoratni ta’minlash.

2.3 Lokal tarmoqni boshqarishga mas’ul boʻlgan hamda Universitetda mehnat faoliyatini olib borayotgan boshqa xodimlarga quyidagilar taqiqlanadi:

- oʻz ish stansiyalarini nazoratsiz, shu jumladan ish holatida qoldirish;

- foydalanuvchilarning qayd yozuvi ma’lumotlarini foydalanuvchidan boshqa har qanday kishiga yetkazish;

- lokal tarmoq resurslariga ruxsatsiz kirish, shu jumladan tegishli ruxsatlarsiz tizimlar yoki ma’lumotlarga kirishga urinish;

- tarmoqlararo ekran yoki tahdidlarni aniqlash tizimlari kabi xavfsizlik choralarini chetlab o‘tish, ularni qasddan o‘chirishga yoki urinish;

- lokal tarmoqda zararli dasturlar, viruslar yoki zararli dasturlarni tarqatish, shuningdek, bila turib qasddan joriy etish;

- mualliflik huquqi bilan himoyalangan materiallarni ruxsatsiz almashish kabi noqonuniy fayl almashish bilan shug‘ullanish;

- lokal tarmoq konfiguratsiyasiga ruxsatsiz o‘zgartirishlar kiritish yoki ruxsatsiz o‘zgartirishga urinish;

- lokal tarmoq orqali ish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan kontentga kirish, ularni yuklab olish yoki almashish;

- boshqa xodimlarni aldash yoki ruxsatsiz kirishga erishish uchun fishing yoki ijtimoiy muhandislik hujumlarini amalga oshirishga urinish;

- lokal tarmoq xavfsizligini buzish, uning ish faoliyatini to‘xtatish va boshqa maqsadlarda sodir etiladigan DoS, DDoS hujumlarida ishtirok etish yoki ularga yordam berish;

- lokal tarmoq yaxlitligini saqlash uchun lokal tarmoqqa shaxsiy yoki ruxsatsiz qurilmalarni ulash yoki foydalanish.

3. Lokal tarmoq administratorining huquqlari

3.1 Universitetda lokal tarmog‘ini boshqarish huquqi Lokal tarmoq administratori hamda Departament xodimlariga beriladi.

3.2 Lokal tarmoq administratori hamda Departament xodimlari quyidagi huquqlarga ega:

- lokal tarmoqning himoyalangan resurslariga ruxsatsiz kirishni amalga oshirgan yoki boshqa axborot xavfsizligi talablarini buzgan xodimlarni lokal tarmoqdan uzish;

- lokal tarmoq faoliyatiga oid har qanday tekshirishda qatnashish;

- lokal tarmoqqa nostandart dasturiy ta’minot va qurilmalarni o‘rnatishni taqiqlash;

- lokal tarmoqning rivojlanishi ta’minlaydigan qarorlari loyihalari bilan tanishish;

- lokal tarmoq ishini takomillashtirish va axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha takliflarni Axborot xavfsizligi administratori va Departament boshlig‘iga taqdim etish;

- rahbariyat bilan o‘rnatilgan tartibda lokal tarmoqdan foydalanish qoidalarini belgilash va ularga o‘zgartirishlar kiritish;

- tegishliligi bo‘yicha Universitet hisobidan muntazam ravishda o‘z malakasini oshirish.

4. Lokal tarmoq administratorining javobgarligi

4.1 Lokal tarmoq administratori quyidagilarga javobgardir:

- ushbu yo‘riqnomada nazarda tutilgan o‘z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi;

- lokal tarmoqdan foydalanishda foydalanuvchilarning xatti-harakatlarini nazorat

qilish bo‘yicha u tomonidan olib borilayotgan ishlarning sifatsizligi;

- texnika xavfsizligi qoidalarini buzilishiga javobgardir.

Universitet axborot xavfsizligi
siyosatiga 4-ilova

Axborot tizimi administratori
YO‘RIQNOMASI

1. Umumiy qoidalar

1.1 Ushbu Yo‘riqnoma Universitetning axborot resurslarini boshqarish tartibi va qoidalarini, operatsion va to‘plangan ma’lumotlarning to‘liq hajmini dolzarb ish tartibida saqlab turish, shuningdek uning axborot xavfsizligini tegishli darajada saqlash va ruxsatsiz kirishdan himoya qilish bo‘yicha tizim administratorining vazifalarini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

1.2 Tizim administratori lavozimiga tayinlanadigan nomzodlar Departament boshlig‘i tomonidan ushbu Departament xodimlari orasidan tanlanadi va Universitet rahbariyatining tegishli buyrug‘i bilan tayinlanadi.

1.3 Tizim administratorining huquqlari va majburiyatlari ushbu Yo‘riqnoma bilan belgilangan va uning lavozim yo‘riqnomasiga qo‘shimcha tarzda keltirilgan.

Tizim administratorining ma’lum sabab bilan ish joyida bo‘lmaganligi vaqtida Tizim administratorining ushbu Yo‘riqnomada belgilangan huquqlari, vazifalari va majburiyatlari Departament boshlig‘i qarori bilan Departamentning boshqa bir xodimi zimmasiga yuklanadi.

1.4 Tizim administratori AKT sohasida oliy ma’lumotga hamda kamida 3 yillik tajribaga ega bo‘lishi kerak.

1.5 Tizim administratorining talablari o‘z majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq talablari, Universitetning barcha xodimlari uchun majburiydir.

1.6 Tizim administratori o‘z faoliyatida quyidagilar asosida ish olib boradi:

- Universitetning axborot xavfsizligi siyosati;
- Universitet rektorining buyruqlari va farmoyishlari;
- qonun hujjatlari, ichki mehnat qoidalari;
- ma’lumotlar bazalarini saqlash, boshqarish va axborot xavfsizligini ta’minlash usullari va ko‘rsatmalari;
- ushbu Yo‘riqnomaga asosan.

2. Tizim administratorining vazifalari va majburiyatlari

2.1 Ma’lumotlar bazalarining normal ishlashi va axborot xavfsizligini ta’minlash uchun Tizim administratori quyidagilarni bajaradi:

- axborot tizimlarining, shu jumladan server uskunalari, tizimli va amaliy dasturlarning uzluksiz ishlashi;
- axborot tizimining serverlarini sozlash va boshqarish, server saqlash tizimi va ma’lumotlarni saqlash tizimining barcha xususiyatlarini ko‘rish va o‘zgartirish;
- axborot tizimi foydalanuvchilari uchun rollar/vakolatlarni yaratish va belgilash;
- serverni saqlash va ma’lumotlarni saqlash tizimlarining parametrlari va konfiguratsiyasini, shuningdek ularning ishlashi va nosozliklari jurnallarini tekshirish;

- axborot tizimining serverlaridan ma’lumotlarni zaxiralash va tiklash;

- ma’lumotlar bazasidagi ma’lumotlarning yaxlitligini tekshirish vositalaridan foydalangan holda ma’lumotlar bazasini tekshirish;

- ma’lumotlar bazalari uchun zaxira va tiklash tizimlarini sozlash;

- MBBT ishini nazorat qilish;

- ma’lumotlar bazasini o‘rnatish va sozlash;

- tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish va jurnallarni to‘ldirish.

2.2 Tizim administratori:

- favqulodda vaziyatlarni o‘z ichiga olgan ma’lumotlarning oldingi talqinlarini tiklash;

- operatsiya bilan parallel ravishda ma’lumotlar bazalarini qayta tashkil etish;

- ma’lumotlar bazalarini ruxsatsiz kirishdan himoya qilish;

- MBBT parametrlarini o‘rnatish;

- MBBTning amaldagi holatini kuzatib borish;

- ma’lumotlar bazalari bilan ishlaydigan dasturlar uchun statistik ma’lumotlarni yig‘ish yoki taqdim etish vositalarining mavjudligini nazorat qilish;

- ma’lumotlar bazasining kelajakdagi joylashuvi parametrlarini o‘rnatish va u uchun yetarli darajada disk maydoni ajratish;

- ma’lumotlarning zaxira nusxasini yaratish;

- ma’lumotlar bazalari bilan ishlaydigan yoki ma’lumotlar bazalari bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan dasturlardan foydalaniladigan bo‘limlar xodimlarining harakatlarini nazorat qilish;

- kerakli apparat va dasturiy ta’minot bazalarini o‘rnatish va sozlash bo‘yicha ishlarni tashkil etish hamda amalga oshirish;

- ma’lumotlar bazalari ishidagi turli xil og‘ishlarni o‘z vaqtida bartaraf etish bo‘yicha ishlarni aniqlash va amalga oshirish;

- ma’lumotlar bazalariga, shuningdek ruxsatsiz shaxslarning ma’lumotlar bazalariga ulanishga yo‘l qo‘ymaslik;

- MBBT dasturining xavfsizligini, himoyasini va o‘z vaqtida yangilanishini ta’minlash;

- ma’lumotlar bazasi infratuzilmasini rivojlantirish va uning xavfsizligi darajasini oshirish bo‘yicha takliflar tayyorlash va taqdim etish;

- ma’lumotlar bazasi va ma’lumotlar bazalarining zaxira nusxalarini yaratish bilan bir qatorda, ma’lumotlar bazasi va ma’lumotlar bazalarining yakuniy sozlamalarini muntazam ravishda zaxiralashni amalga oshirish;

- ma’lumotlar bazasi vositalari va jihozlarining jismoniy xavfsizligini nazorat qilish;

- ma’lumotlar bazalariga, shuningdek ruxsatsiz shaxslarning ma’lumotlar bazalariga ulanishga yo‘l qo‘ymaslikka majbur.

2.3 Tizim administratori quyidagilarni bilishi kerak:

- ma’lumotlar bazalarini saqlash uchun hujjatlarni ishlab chiqish va rasmiylashtirish bo‘yicha qoidalar, nizomlar;

- MBBT uchun normativ-texnik va loyihalash hujjatlari;

- ma’lumotlar bazasi dasturiy ta’minotining tarkibiy qismlari arxitekturasi;

- boshqariladigan axborot-kommunikatsiya tizimida profilaktika ishlarini olib borish qoidalari;
- Universitetda tarmoq texnologiyasini amalga oshirish xususiyatlari;
- boshqariladigan operatsion tizimning xususiyatlari;
- ma’lumotlar bazasi dasturiy ta’minotining tarkibiy qismlari arxitekturasi.

1.8 Tizim administratori quyidagilarga majbur:
- operatsion va to‘plangan ma’lumotlarning to‘liq hajmini dolzarb ish sharoitida saqlash, shuningdek axborotni ruxsatsiz kirishdan himoya qilish;
- tashkilotning tarkibiy bo‘linmalarining axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini tahlil qilish;
- Universitetning manfaatdor bo‘linmalarining talabiga binoan yangi vazifalarni bajarish uchun dasturiy ta’minotni ishlab chiqish uchun texnik shartlarni tuzish;
- avtomatlashtirilgan axborotni qayta ishlash bilan bog‘liq hujjatlarni hisobga olish va saqlashni amalga oshirish;
- dasturiy vositalarni takomillashtirish bo‘yicha ishlar majmuini amalga oshirish;
- ma’lumotlarni qayta tiklash va qayta tashkil etishning zamonaviy usullarini qo‘llash;
- kasbiy vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni mustaqil izlashni amalga oshirish;
- ma’lumotlarni zaxira qilish uchun zamonaviy dasturlardan foydalanish;
- ma’lumotlar bazalarini arxivlash;
- ma’lumotlar bazasini boshqarish uchun maxsus vositalar bilan ishlash;
- ma’lumotlar bazasi foydalanuvchilarining haqiqiyligini tekshirish;
- MBBT tarkibiy qismlarini yuklash;
- ma’lumotlarni turli xil saqlash vositalariga nusxalash;
- o‘zi xizmat ko‘rsatadigan apparat, dasturiy, apprat-dasturiy vositalarning doimiy yangilanishi, va versiyasi hamda sborkasini tegishli jadvallarga kiritib borish;
- mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik, ishlab chiqarish sanitariyasi va yong‘indan himoya qilish qoidalariga rioya qilish.

2.3 Tizim administratoriga quyidagilar taqiqlanadi:
- ishchi stansiyalarni qarovsiz (shu jumladan ish holatida) qoldirish;
- axborot xavfsizligi talablarini buzish.

3. Tizim administratorining huquqlari

3.1 Tizim administratori quyidagi huquqlarga ega:
- himoya qilinadigan resurslarga ruxsatsiz kirishni amalga oshirgan yoki boshqa axborot xavfsizligi talablarini buzgan Universitet xodimlarini axborot tizimidan uzib qo‘yish;
- ma’lumotlar bazalarini tekshirishda qatnashish;
- MBBT va ma’lumotlar bazalarining ishlashi bilan bog‘liq risklarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan nostandart dasturiy ta’minotni o‘rnatishni taqiqlash;
- tizim administratorning o‘z faoliyati, ma’lumotlar bazalarining ishlashini va rivojlanishini ta’minlaydigan qarorlari loyihalari bilan tanishish;

- o‘z vazifalarini takomillashtirish va axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha Departament boshlig‘iga takliflar kiritish;

- Departament boshlig‘i bilan kelishilgan holda, MBBTdan foydalanish qoidalarini belgilash, o‘zgartirish va boshqarish;

- Universitet hisobidan muntazam malaka oshirish.

4. Tizim administratorining javobgarligi

4.1 Tizim administratori quyidagi hollarda javobgar bo‘ladi:

- ushbu Yo‘riqnomada nazarda tutilgan o‘z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi;

- ma’lumotlar bazalari bilan bog‘liq harakatlarni nazorat qilish bo‘yicha ularning ishlarining sifati, ularni himoya qilishning belgilangan darajasi va holati;

- texnika xavfsizligi qoidalarini buzganligi uchun javobgardir.

Universitet axborot xavfsizligi
siyosatiga 5-ilova

Axborot va kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha mas’ul xodim YO‘RIQNOMASI

1. Umumiy qoidalar

1.1 Ushbu yo‘riqnoma Universitet infratuzilmasida axborot va kiberxavfsizlikni ta’minlashga, shuningdek axborot va kiberxavfsizlik insidentlariga javobgar bo‘lgan xodim (keyingi o‘rinlarda — axborot xavfsizligi administratori)ning majburiyatlarini belgilashga mo‘ljallangan.

1.2 Universitetda axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish Axborot xavfsizligi administratori zimmasiga yuklatiladi.

1.3 Axborot xavfsizligi administratori lavozimiga tayinlanadigan nomzodlar Departament boshlig‘i tomonidan ushbu Departament xodimlari orasidan tanlanadi va Universitet rahbariyatining tegishli buyrug‘i bilan tayinlanadi.

1.4 Universitetda axborot xavfsizligi administratorining huquqlari va majburiyatlari ushbu yo‘riqnomada belgilangan va lavozim yo‘riqnomasiga qo‘shimcha tarzda keltirilgan.

Axborot xavfsizligi administratori ma’lum sabab bilan ish joyida bo‘lmaganligi vaqtida uning ushbu Yo‘riqnomada belgilangan huquqlari, vazifalari va majburiyatlari Departament boshlig‘i qarori bilan Departamentning boshqa bir xodimi zimmasiga yuklanadi.

1.5 Axborot xavfsizligi administratori axborot va kiberxavfsizlik sohasida kamida 3 yil ish tajribasiga ega bo‘lishi kerak.

1.6 Axborot xavfsizligi administratorining o‘z vazifalarini bajarish bilan bog‘liq talablari Universitetning barcha xodimlari uchun majburiydir.

1.7 Axborot xavfsizligi administratori quyidagilarga asoslangan holda ish yuritadi:

- Universitetning axborot xavfsizligi siyosati;
- axborot xavfsizligi ta’minlash sohasidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar;
- Universitet rektorining buyruqlari va farmoyishlari;
- qonun hujjatlari, ichki mehnat qoidalari;
- ushbu yo‘riqnomaga asosan.

2. Axborot xavfsizligi administratorining vazifalari

2.1 Universitet axborot xavfsizligi administratorining asosiy vazifalari va funksiyalari quyidagilardan iborat:

- Universitetning axborot xavfsizligi siyosatini qayta ko‘rib chiqishda va ma’lumotlarning himoyasini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbir rejalarini ishlab chiqishda qatnashish;

- axborot va kiberxavfsizlikni ta’minlash uchun Universitet tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlar rejalarini amalga oshirish;

- axborotlarni muhofaza qilish vositalari, antivirus serveriga xizmat koʻrsatish;
- lokal tarmoq hamda tizim administratorlari tomonidan ma’lumotlar himoyasini tashkil etish boʻyicha majburiyatlarini bajarishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;
- Universitetning axborot xavfsizligi vositalarining ishlashini nazorat qilish;
- Universitetda axborot xavfsizligi ichki va tashqi auditini tashkil etish va oʻtkazish, zaifliklar va axborot tarqalish kanallarini aniqlash;
- Axborot xavfsizligi holatini monitoring qilish va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash;
- Universitetda axborot xavfsizligi tizimini takomillashtirish boʻyicha Departament boshligʻiga takliflar kiritish;
- lokal tarmoq va tizim administratorlari tomonidan aniqlangan axborot va kiberxavfsizlik insidentlari toʻgʻrisida ma’lumot olish, yigʻish, tahlil qilish va bartaraf etish;
- Departament boshligʻini hodisalar toʻgʻrisida oʻz vaqtida xabardor qilish;
- Universitet axborot infratuzilmasida sodir boʻlgan hodisalarni tahlil qilish va ular boʻyicha tekshirish oʻtkazishda ishtirok etish;
- oʻzi xizmat koʻrsatadigan apparat, dasturiy, apprat-dasturiy vositalarning doimiy yangilanishi, va versiyasi hamda sborkasini tegishli jadvalga kiritib borish;
- Universitet xodimlarini Axborot xavfsizligi siyosati talablari va ularni bajarish yuzasidan brifinglar oʻtkazish, bilimlari va amaliy koʻnikmalarini baholash.

3. Axborot xavfsizligi administratorining huquqlari

3.1. Axborot xavfsizligi administratori quyidagi huquqlarga ega:
- axborot xavfsizligini ta’minlash vositalarini loyihalashtirish, qabul qilish, foydalanishga topshirishda ishtirok etish;
- axborot xavfsizligi siyosatiga va axborot xavfsizligini ta’minlash bilan bogʻliq ichki normativ hujjatlarga, shu jumladan boʻlim xodimlari faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlarga oʻzgartirishlar kiritish boʻyicha takliflar kiritish;
- Universitet xodimlaridan axborotni qayta ishlash texnologiyalarini qoʻllash va axborot resurslarining ishlashi boʻyicha ma’lumot olish;
- Universitet xodimlari tomonidan axborot xavfsizligi talablari bajarilishini nazorat qilish;
- Universitetda antivirus himoya vositalaridan foydalanish, shuningdek axborot xavfsizligining boshqa vositalaridan foydalanish bilan bogʻliq faoliyatni boshqarish;
- avariyalar va baxtsiz hodisalardan soʻng ish faoliyatini tiklash boʻyicha tadbirlarda qatnashish.

4. Axborot xavfsizligi administratorining javobgarligi

4.1 Axborot xavfsizligi administratori quyidagilarga javobgardir:
- ushbu yoʻriqnomada nazarda tutilgan oʻz majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi;
- foydalanuvchilarning xatti-harakatlarini, ularning himoyalanganlik holatini va saqlanishini boshqarish boʻyicha ishlarning sifatsizligi;

- himoya vositalarining ekspluatatsiyasi;
- axborotga kirish bo‘yicha vakolatlarni taqsimlash;
- kompyuter tizimlarini faoliyatini monitoringini o‘tkazish;
- axborot xavfsizligi siyosati bilan xodimlarni tanishtirish haqidagi jurnalni to‘ldirish;
- texnika xavfsizligi qoidalarini buzish.

Universitet axborot xavfsizligi
siyosatiga 6-ilova

Axborot xavfsizligini ta’minlash sektori va Raqamli ta’lim texnologiyalari departamentining Universitet infratuzilmasida axborot va kiberxavfsizlikni ta’minlash sohasidagi vazifalarini amalga oshirish to‘g‘risidagi NIZOM

1. Asosiy qoidalar

1.1 Ushbu Nizom Axborot xavfsizligini ta’minlash sektori va Raqamli ta’lim texnologiyalari departamentining axborot xavfsizligi sohasidagi vazifalari, huquqlari va majburiyatlarini taqsimlash maqsadida ishlab chiqilgan.

1.2 Universitetda axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish Axborot xavfsizligini ta’minlash sektoriga va texnik tatbiq qilish esa Departamentga yuklangan.

1.3 Departament va Axborot xavfsizligini ta’minlash sektori birgalikda Universitetda axborot xavfsizligini ta’minlash sohasida quyidagi keltirilgan hujjatlar asosida amalga oshiradi:

- Universitetning axborot xavfsizligi siyosati;
- axborot va kiberxavfsizlik sohasidagi normativ hujjatlar;
- Universitet raisining buyruqlari, farmoyishlari va ko‘rsatmalari;
- qonun hujjatlari, ichki mehnat qoidalari;
- ushbu Nizom.

1.5 Axborot xavfsizligini ta’minlash sektori va Departament xodimlari quyidagilar uchun javobgardirlar:

- ushbu Yo‘riqnomada nazarda tutilgan o‘z vazifalarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik;
- Universitetda axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ishlarning sifati.

2. Asosiy vazifalar va funksiyalar

2.1 Axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha Axborot xavfsizligini ta’minlash sektorining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Universitetda axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yo‘nalishlarni shakllantirish, me’yoriy hujjatlar va chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqish;
- AXBTni joriy etish, ishlab chiqish va ishlatish uchun talablarni aniqlash;
- Universitetning axborot xavfsizligini ta’minlash bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar o‘rtasida vazifalarni taqsimlash;
- axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejalarining bajarilishini nazorat qilish;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 8-iyuldagi “Milliy axborot resurslarini muhofaza qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-

1572-son qaroriga muvofiq akkreditatsiyadan o‘tgan tashkilotlar tomonidan Universitet axborotlashtirish obyektlarini attestatsiyadan o‘tkazish;

- himoya choralarining samaradorligini baholash, shuningdek, audit, ekspertiza va sertifikatlashtirish natijalari bo‘yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish;

- Universitet xodimlarini axborot xavfsizligi masalalari bo‘yicha xabardor qilish, o‘qitish va Universitetda axborot xavfsizligini ta’minlash uchun mas’ul mutaxassislarni tayyorlash;

- Axborot xavfsizligi siyosatining 9-bo‘limiga muvofiq axborot xavfsizligi risklarini tahlil qilish va baholash;

- axborot xavfsizligi intsidentlariga javob berish, axborot xavfsizligi qoidalarining buzilishi holatlari yuzasidan rasmiy tekshiruvni tashkil etish;

- Universitetda axborot xavfsizligini ta’minlash uchun ichki qoidalarini ishlab chiqish va joriy etish;

- axborot xavfsizligi sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha taklif tayyorlash va rahbariyatga taqdim etish;

- axborot xavfsizligi siyosatiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

- axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha ishlarni tashkil etish;

- konfidensial ma’lumotlar ro‘yxatini, unga kirish huquqiga ega bo‘lgan xodimlar ro‘yxatini va ularga kirish tartibini belgilash;

- himoya qilish obyektlari ro‘yxatini va ularning tasnifini, tahdid modellarini aniqlash;

- axborot tizimlari va boshqa himoya vositalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan xodimlar ro‘yxatini tuzish va nazorat qilish;

- himoyalangan obyektlarga kirishni taqsimlash va kirishni nazorat qilishni o‘rnatish;

- ichki va tashqi axborot xavfsizligi auditini tashkil etish va o‘tkazish;

- Universitet rasmiy veb-sayti va boshqa veb-resurslarining axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligini tekshirish;

- axborot xavfsizligi hodisalarini aniqlash va ularga javob qaytarish bo‘yicha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish;

- axborot xavfsizligi bilan bog‘liq hodisalarni tekshirishni tashkil etish;

- axborot xavfsizligi bilan bog‘liq hodisalarning takrorlanishining oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish;

- Universitet bo‘linmalari va xodimlariga axborot xavfsizligini ta’minlash masalalarida uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatish;

- Universitet xodimlari tomonidan tizimni muhofaza qilish va axborot xavfsizligi bo‘yicha tashkiliy-ma’muriy hujjatlarni amalga oshirish talablariga rioya etilishi ustidan muntazam monitoringni tashkil etish;

- Universitet xodimlari uchun axborot xavfsizligi bo‘yicha brifinglar, treninglar va seminarlar tashkil etish va o‘tkazish.

2.2 Axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha Departamentning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Universitetda axborot resurslari va tizimlarini texnik tashkil etish va himoya qilishni ta’minlash;

- axborot xavfsizligi tizimlarini joriy etish va rivojlantirish bo‘yicha amaliy tadbirlarni rejalashtirish va tashkil etish, shu jumladan axborot xavfsizligi vositalarini xarid qilish, sotib olish, o‘rnatish, sinovdan o‘tkazish va qabul qilishni tashkil etish;

- Universitetning axborot infratuzilmasini himoya qilish uchun foydalaniladigan xavfsizlik tizimi uchun mas’ul bo‘lgan xodimlarni aniqlash;

- texnik jihozlarni joylashtirish, kabel yo‘llari va muhandislik tizimlarini yotqizish, zaxiralash va arxivlash, shuningdek, axborot xavfsizligini ta’minlash va unga ishlov berishni boshqarish uchun dasturiy ta’minotning namunaviy nusxalarini yaratish va ulardan foydalanish bo‘yicha maxsus talablarning bajarilishini nazorat qilish;

- ma’lumotlarni qayta ishlash markazining ishlashi, shuningdek, axborot resurslari va tizimlari uchun serverlar va telekommunikatsiya uskunalarini sotib olish, yetkazib berish, o‘rnatish va texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha uchinchi shaxslar bilan Universitet shartnomalariga muvofiqligini tekshirish.

3. Huquq va majburiyatlar

3.1 Axborot xavfsizligini ta’minlash sektori axborot xavfsizligini ta’minlash uchun quyidagi huquqlarga ega:

- Universitetning axborot xavfsizligini ta’minlash uchun joriy o‘zgartirishlar va yangi ichki qoidalarni qabul qilish;

- Universitet xodimlarini rahbariyat bilan kelishilgan holda axborot xavfsizligini ta’minlash jarayoniga jalb etish, ularning vazifalari va vakolatlarini belgilash;

- Universitet xodimlarini axborot infratuzilmasidan foydalanish qamrovi nuqtai nazaridan nazorat qilish, birinchi navbatda, maksimal vakolatlarga ega bo‘lgan xodimlar tomonidan axborot xavfsizligi talablari buzilishining oldini olish;

- o‘z vakolatlari doirasida boshqarish, saqlash va nazorat qilish usullari, vositalari va mexanizmlarini tanlash, amalga oshirish va qo‘llash;

- axborot xavfsizligi talablarining buzilishi bilan bog‘liq hodisalarni tekshirishni tashkil etish, axborot xavfsizligi talablarini buzganlik uchun qonunbuzarlarni javobgarlikka tortish bo‘yicha rahbariyatga takliflar kiritish.

3.2 Departament quyidagi huquqlarga ega:

- Universitet axborot xavfsizligi siyosatiga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha takliflar tayyorlash va rahbariyatga kiritish;

- axborot tizimlarida texnik va dasturiy vositalarning ishlashi uchun shaxsiy javobgarlikni belgilash;

- Universitet axborot xavfsizligi siyosatida belgilangan axborot xavfsizligi talablariga rioya qilish bo‘yicha administratorlar tomonidan o‘z vazifalarini bajarishini nazorat qilish.

4. Javobgarlik

4.1 Departament va Axborot xavfsizligini ta’minlash sektori xodimlari ushbu Nizomning talablarini bajarish uchun javobgardir.

4.2 Departament va Axborot xavfsizligini ta’minlash sektori xodimlari o‘zlariga yuklangan vazifalarning sifatliligi uchun javobgardir.

Universitet axborot xavfsizligi
siyosatiga 7-ilova

Tizim va amaliy dasturlarni yangilash, shuningdek, ma’lumotlarning zaxira nusxalarini shakllantirish va tiklash bo‘yicha
NIZOM

1. Umumiy qoidalar

1.1 Tizim va amaliy dasturiy ta’minotni yangilash, shuningdek, ma’lumotlarni zaxiralash va tiklash to‘g‘risidagi ushbu Nizom quyidagilarni belgilaydi:

- qurilmalarning ishlamay qolishi, axborot xavfsizligi buzilishi, foydalanuvchilarning xatolari, favqulodda vaziyatlar (yong‘in, tabiiy ofatlar va boshqalar) natijasida to‘liq yoki qisman yo‘qolgan axborot resurslari yoki ularning qismlari ishini keyinchalik tiklash uchun ma’lumotlarni zaxira qilish tartibi;
- ma’lumotlarni zaxiralash, tizim va amaliy dasturlarni o‘rnatish, o‘zgartirishlar kiritish, sozlash va yangilash tartibi va mas’ul xodimlarning vazifalari;
- tizim va amaliy dasturiy ta’minotni yangilash uchun javobgarlik;
- zaxira nusxalash turlarining tasnifi;
- zaxira nusxa olish va qayta tiklash tartibi;
- zaxira nusxalanadigan ma’lumotlar ro‘yxati;
- zaxira nusxalarini o‘z ichiga olgan axborot tashuvchilarni hisobga olish, saqlash va hisobdan chiqarish tartibi;
- zaxiralash natijalarini boshqarish va javobgarlik.

1.2 Universitetda foydalaniladigan barcha dasturiy ta’minotlar Kiberxavfsizlik to‘g‘risidagi qonuni 19-moddasiga muvofiq sertifikatsiyadan o‘tgan bo‘lishi shart.

1.3 Ushbu Nizom quyidagi faoliyat turlarini tartibga soladi:

- dasturiy ta’minotni o‘rnatish, sozlash, yangilash, o‘zgartirish;
- dasturiy ta’minotni tekshirish va sinovdan o‘tkazish;
- zaxira nusxalarini saqlash va xavfsizligini ta’minlash;
- zaxira nazorati;
- dasturiy ta’minotni yangilash.

1.4 Zaxiralashning maqsadi – apparat, dasturiy ta’minot ishdan chiqqanda yoki favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda ma’lumotlarning yo‘qolishini oldini olish.

1.5 Ushbu Nizom tizim va amaliy dasturiy ta’minotga nisbatan qo‘llaniladi.

1.6 Mazkur Nizom talablariga rioya etilishini nazorat qilish Departament boshlig‘i zimmasiga yuklanadi.

2. Ma’lumotlarni zaxiralash, tizim va amaliy dasturlarni o‘rnatish, o‘zgartirishlar kiritish, sozlash va yangilash tartibi va mas’ul xodimlarning vazifalari

2.1 Dasturiy ta’minotni o‘rnatish, o‘zgartirish, sozlash va yangilash ishlari quyidagi maqsadda amalga oshiriladi:

- dasturiy ta’minotning normal ishlashini ta’minlash;

- dasturiy ta’minot faoliyatida aniqlangan xatoliklar yoki buzilishlarni bartaraf etish;

- dasturiy ta’minotning vazifalari va funksiyalariga o‘zgartirishlar kiritish;

- dasturiy ta’minotning zaif tomonlarini bartaraf etish;

- dasturiy ta’minotning ishlash parametrlarini o‘zgartirish.

2.2 Ma’lumotlarni zaxiralash, tizim va amaliy dasturlarni o‘rnatish, o‘zgartirishlar kiritish, sozlash va yangilash uchun Universitetda Departamentning Tarmoqlarni boshqarish va texnik qo‘llab-quvvatlash sektori bosh mutaxassisi (keyingi o‘rinlarda – Lokal tarmoq administratori) va Departament xodimlari mas’ul bo‘ladi.

2.3 Lokal tarmoq administratori hamda Departament xodimlarining tizim va amaliy dasturlarni yangilash, shuningdek, ma’lumotlarning zaxira nusxalarini shakllantirish va tiklash bo‘yicha vazifalariga quyidagilar kiradi:

- operatsion tizimlarni (masalan, Windows, Linux) o‘rnatish, sozlash va boshqarish;

- yangi ishlab chiqilgan, o‘zgartirilgan yoki sotib olingan dasturiy ta’minotni o‘rnatish;

- foydalanuvchilarning hisoblarini yaratish, o‘zgartirish, bloklash, parollarni boshqarish;

- tizimlarning faoliyatini nazorat qilish, monitoring tizimlarini ishlatish va xato yoki muammolarni aniqlash;

- dasturiy ta’minotni sozlash;

- dasturiy ta’minotni sozlamalariga o‘zgartirish kiritish;

- dastur yoki axborot tizimining ba’zi vazifa va funksiyalarini o‘zgartirish zarurati tug‘ilganda, shuningdek, dastur ishida aniqlangan xatoliklarni bartaraf etish uchun dasturiy ta’minotning manba kodiga o‘zgartirishlar kiritish;

- mavjud qurilmaga o‘rnatilishidan oldin yangi ishlab chiqilgan dasturiy ta’minotni yoki o‘zgartirilgan dasturiy ta’minotni sinovdan o‘tkazish (ishga tushirish);

- ishlab chiqaruvchilarning dasturiy ta’minot yangilanishlarini kuzatib borish;

- dasturiy ta’minotni yangilash;

- o‘rnatish va sozlashdan so‘ng dasturiy ta’minotning to‘g‘ri ishlashini tekshirish, sozlamalarga o‘zgartirishlar kiritish va dasturiy ta’minotni yangilash.

2.4 Dasturiy ta’minotni o‘rnatish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- axborot tizimini yoki obyektni foydalanishga topshirishda;

- bo‘linmalarning arizasi asosida;

- almashtirishda, yangisini o‘rnatishda yoki mavjud qurilmani qayta o‘rnatishda.

2.5 O‘zgarishlar va dasturiy ta’minotni yangilash quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- dasturiy ta’minot ishlab chiqaruvchisining yangi versiyasi yoki yangilanishlarining paydo bo‘lishi;

- aniqlangan zaifliklarni yoki dasturiy ta’minotdagi xatolarni bartaraf etish zarurati;

- dasturiy ta’minot vazifalari va funksiyalarini o‘zgartirish zarurati.

2.6 Yangilanadigan asosiy dasturlarga quyidagilar kiradi:

- ish stansiyalar va serverlarning operatsion tizimlari, MBBT, log-fayllar;

- axborot tizimlari va resurslari, korporativ elektron pochta va boshqa veb-ilovalar uchun dasturiy ta’minot;

- axborot xavfsizligi va tarmoq qurilmalari uchun dasturiy ta’minot.

2.7 Ishlab chiqaruvchi muhim deb hisoblagan o‘zgarishlar va yangilanishlar o‘z navbatida qo‘llash tartibini belgilash kerak. Muhim sozlamalar yoki yangilanishlarni qo‘llash zarurligi to‘g‘risida xabar olingan kundan boshlab 3 (uch) kun ichida obyektga javobgar administrator tomonidan yangilanish bo‘yicha qaror qabul qilinadi. Bunday yangilanishlarni o‘rnatishdan bosh tortgan taqdirda, aniqlangan zaifliklarni yoki xatoliklarni bartaraf etish uchun yetarli choralar ko‘rilishi shart.

2.8 Dasturiy ta’minot va tizim dasturiy ta’minotidagi yangilanishlar to‘g‘risida ma’lumot manbai dasturiy ta’minot ishlab chiqaruvchisi, internet saytlari bo‘lishi mumkin. Yangilanishlar haqidagi ma’lumotlarning yana bir manbai bu zaiflikni aniqlash va boshqarish tizimining natijalari, xavfsizlik skanerlarining natijalari bo‘lishi mumkin.

2.9 Korporativ elektron pochta dasturiy ta’minotini yangilash zarurligi to‘g‘risida qaror Universitetning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘yicha mas’ul rahbari (keyingi o‘rinlarda – Mas’ul rahbar) tomonidan qabul qilinadi. Ushbu yangilanishlar ish vaqtidan tashqarida (serverning haddan tashqari yuklanishi bo‘lmasligi uchun) amalga oshirilishi kerak. Yangilanishdan so‘ng serverlar yoki vositalarning normal ishlashini, yangilangan dasturiy ta’minotni, ularga o‘rnatilgan dasturiy ta’minotni va ma’lumotlarning yaxlitligini baholash uchun barcha tekshiruvlar va testlar o‘tkazilishi kerak.

2.10 Tizim dasturiy ta’minotini, axborotni muhofaza qilish vositalarini va tarmoq qurilmalarini yangilash tizim administratorlari tomonidan avtomatik ravishda yangilaydigan qilib sozlanishi kerak.

2.11 Ilova dasturiy ta’minotiga o‘zgartirishlar, uni ishlab chiquvchi tomonidan o‘zgartirilganda, Universitetning funksional imkoniyatlariga o‘zgartirish kiritish zarurati yoki axborot resurslarini yanada rivojlantirish zarurati bilan bog‘liq holda kiritiladi.

2.12 Axborot tizimlari va resurslari uchun ularni dasturiy ta’minotini o‘zgartirish bo‘yicha quyidagi talablar bajarilishi kerak:

- o‘zgartirilgan dasturiy ta’minot yoki axborot tizimining barcha mavjud va yangi funksiyalarining ishlashini tekshirish alohida sinov serverida amalga oshirilish;

- o‘zgartirilgan dasturiy ta’minotni to‘liq tekshirilgandan so‘ng ish vaqtidan tashqari vaqtda o‘rnatish;

- o‘zgartirilgan dasturiy ta’minotni o‘rnatishda axborot tizimi ma’lumotlar bazasidagi barcha ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minlash;

virusga qarshi dastur – viruslarni aniqlash uchun mo‘ljallangan va ularni yo‘q qilish taklifini berishi mumkin bo‘lgan yoki yo‘q qiluvchi dastur;

zararlovchi dastur – apparat, dasturiy-apparat yoki dasturiy usulda amalga oshirilgan va biror-bir ruxsat etilmagan yoki jinoyatkorona harakatlarni bajarish uchun mo‘ljallangan dastur;

dasturiy virus, virus – boshqa dasturlarga o‘zining o‘zgartirilgan nusxalarini qo‘yish yo‘li bilan o‘z-o‘zidan ko‘payadigan, uni o‘zgartiradigan, zararlangan dasturni ochishda amalga oshadigan maxsus ishlab chiqilgan zararlovchi dastur;

antivirusni boshqarish vositasi – parametrlarni markazlashtirilgan boshqarish, antivirus vositalari va antivirus himoyasi sohasidagi intsidentlarni yangilashning avtomatlashtirilgan tizimi.

3. Umumiy talablar

3.1 Axborot xavfsizligini ta’minlash uchun Universitetda faqat litsenziyalangan antivirus vositalaridan foydalanishga ruxsat beriladi.

Ish stansiyalari va serverlarda o‘rnatilgan antivirus dasturlari uchun markazlashtirilgan boshqaruv tizimidan foydalanish kerak.

3.2 Ish stansiyalari va serverlarda o‘rnatilgan barcha antivirus dasturlarini boshqarish va yangilashni boshqarishning markazlashtirilgan tizimidan foydalanishni tashkil etish Universitetda Raqamli ta’lim texnologiyalari departamenti Tarmoqlarni boshqarish va texnik qo‘llab-quvvatlash sektori bosh mutaxassisi (keyingi o‘rinlarda – Lokal tarmoq administratori) va Raqamli ta’lim texnologiyalari departamenti (keyingi o‘rinlarda – Departament) xodimlarining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lishi kerak.

3.3 Markazlashtirilgan antivirus tizimi Universitetning o‘z binolarida joylashgan serverlariga o‘rnatiladi. Markazlashtirilgan antivirus tizimi ish stansiyalar va serverlarda o‘rnatilgan antiviruslarning ishlashi va boshqarilishini

markazlashtirilgan nazorat qilish, shuningdek, ularning antivirus ma’lumotlar bazalarini markazlashtirilgan ravishda yangilashni ta’minlaydi.

3.4 Barcha ish stansiyalari, serverlar va tarmoq trafigi majburiy antivirus nazorati ostida bo‘ladi.

4. Antivirus muhofazasi tadbirlarini tashkil etish

4.1 Virusga qarshi tizimni boshqarish va xizmat ko‘rsatish Lokal tarmoq administratori hamda Bo‘lim xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

4.2 Ish stansiyalari va serverlarda antivirus vositalarini o‘rnatish va sozlash Universitetda Lokal tarmoq administratori va Departament xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

4.4 Agar tarmoqlararo ekran vositasi sozlamalarida trafikni boshqarish funksiyasi mavjud bo‘lsa, yoqilishi kerak.

4.5 Disklar va ish stansiyalari fayllarni antivirus bilan tekshirish har kuni avtomatik ish stansiyalarini ishga tushirishda va serverlar qayta ishga tushirilganda amalga oshirilishi kerak.

4.6 Antivirus ma’lumotlar bazasi muntazam ravishda avtomatik rejimda yangilanib turishi kerak, buni Lokal tarmoq administratori hamda Departament xodimlari antivirus dasturiy ta’minotini ishlab chiqaruvchisi yangilanish serverlariga kirishni sozlashi kerak. Agar antivirus vositalari ishlab chiqaruvchisi yangilanish serverlariga kirishni sozlash imkonsiz bo‘lsa, Lokal tarmoq administratori hamda Departament xodimlari haftada bir marta viruslar ma’lumotlar bazasini yangilash paketlarini o‘rnatishi, ularning antivirus paketiga ulanishini nazorat qilishi va ish stansiyalari va serverlarini viruslarga tekshirishi kerak.

4.7 Lokal tarmoq orqali, shuningdek, tashuvchida qabul qilingan va uzatiladigan har qanday ma’lumotlar (har qanday formatdagi matnli fayllar, ma’lumotlar va fayllar) majburiy antivirus nazoratidan o‘tishi lozim.

4.8 Tizim va amaliy dasturiy ta’minotni o‘rnatish (o‘zgartirish) Lokal tarmoq administratori hamda Departament xodimlari tomonidan Universitetning axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha mas’ul xodimi (keyingi o‘rinlarda – Axborot xavfsizligi administratori) va Departament boshlig‘i nazoratida amalga oshirilishi kerak. O‘rnatilgan (o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan) dasturiy ta’minot tegishliligi bo‘yicha Lokal tarmoq administratori hamda Departament xodimlari tomonidan oldindan tekshirilishi zarur. Dastur o‘rnatgandan (o‘zgartirgandan) so‘ng darhol antivirus tekshiruvi o‘tkazilishi kerak.

4.9 Xodimlarga mustaqil ravishda ish stansiyalariga dasturiy ta’minotni o‘rnatishning oldini olish uchun ularga ishchi (administrator bo‘lmagan) foydalanuvchi sifatida kirish huquqi berilishi kerak.

5. Virusdan himoya qilish ishlarining ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar

5.1 Ish stansiyalari va serverlarni o‘rnatilgan antivirus dasturisiz ishlatish taqiqlanadi. Antivirus dasturini doimo yangilab turish kerak.

5.2 Agar zararli dastur mavjudligiga shubha tug‘ilsa (dasturlarning noto‘g‘ri ishlashi, grafik va ovozli effektlarining paydo bo‘lishi, ma’lumotlarning buzilishi, yo‘qolgan fayllar, tizim xatosi haqidagi xabarlarning tez-tez paydo bo‘lishi), foydalanuvchining o‘zi yoki Lokal tarmoq administratori va Departament xodimlari bilan birgalikda o‘z ish stansiyasida antivirus nazoratini amalga oshirishi kerak.

5.3 Ish stansiyalarida viruslarni yuqtirgan fayllar antivirus tekshiruvi vaqtida aniqlangan bo‘lsa, xodimlar:

- ish stansiyasining ishini to‘xtatib qo‘yish;
- virusni yuqtirgan fayllar aniqlanganligi to‘g‘risida Lokal tarmoq administratoriga yoki Departament xodimlariga, shuningdek, ushbu fayllardan o‘z ishlarida foydalanadigan foydalanuvchilarni darhol xabardor qilishi shart;
- undan keyingi foydalanish tahlilini o‘tkazish;
- zararlangan fayllarni zararsizlantirish yoki yo‘q qilish;
- agar antivirus dasturi zararsizlantira olmagan yangi virus aniqlansa, virus bilan zararlangan faylni Axborot xavfsizligi administratoriga va/yoki Departament boshlig‘iga taqdim etish.

5.4 Xodimlarga ish stansiyasidan Axborot xavfsizligi administratori va Departament boshlig‘i roziligisiz quyidagilar taqiqlanadi:

- antivirus himoya vositalari sozlamalari va konfiguratsiyasini o‘zgartirish;
- virusga qarshi himoya vositalarini olib tashlash yoki tizimga qo‘shish;
- ish stansiyasida o‘rnatilgan antivirus himoyasi vositalarida tekshirmasdan turib saqlash vositalaridan foydalanish;
- elektron pochta orqali kelgan noma’lum dasturlarni ishga tushirish.

5.5 Xodimlar quyidagilarga majbur:

- noma’lum, shubhali yoki ishonchsiz manbalardan olingan elektron pochta xabarlariga qo‘shimchalarni ochmaslik. Bunday biriktirilgan fayllar tezda o‘chirilishi kerak;
- noma’lum yoki shubhali manbalardan ma’lumotlarni yuklamaslik;
- mantiqiy disklarga kirishni bekor qilish;
- noma’lum yoki shubhali manbalardan foydalanishdan oldin uni viruslardan tekshirish;
- har kuni, ish stansiyasini dastlabki yuklashda, xodim antivirus monitor mavjudligiga ishonch hosil qilish va agar mavjud bo‘lmasa, Lokal tarmoq administratorini yoki Departament xodimlarini xabardor qilish;
- Lokal tarmoq administratori yoki Departament xodimlaridan tizimda virus mavjudligi to‘g‘risida, shuningdek, virusga shubha tug‘ilganda xabarnoma olingandan so‘ng, ish stansiyasini rejadan tashqari antivirus tekshiruvini mustaqil ravishda amalga oshirish.

6. Virusdan himoya qilish ishlarida ishtirokchilarning javobgarligi

6.1 Lokal tarmoq administratori hamda Departament xodimlari ushbu Yo‘riqnomaning talablariga muvofiq virusga qarshi nazoratni tashkil etish uchun javobgardir.

6.2 Ushbu Yo‘riqnomaning talablariga rioya qilish uchun javobgarlik barcha mas’ul xodimlarga yuklatilgan.

6.3 Virusga qarshi himoya holatini, shuningdek, virusga qarshi kurashning belgilangan tartibiga rioya etilishini va xodimlar tomonidan ushbu Yo‘riqnoma talablariga rioya qilinishini vaqti-vaqti bilan monitoring qilish Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘i tomonidan amalga oshiriladi.

6.4 Ushbu Yo‘riqnomada belgilangan talablarning bajarilmasligi Universitetning ichki mehnat qoidalari va O‘zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligiga muvofiq intizomiy javobgarlikka tortilishga olib keladi.

Mobil, ma’lumot saqlovchi va tashuvchi qurilmalar bilan ishlashda axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha YO‘RIQNOMA

1. Umumiy qoidalar

1.1 Ushbu Yo‘riqnoma Universitetda foydalaniladigan axborot tashuvchi vositalar, mobil qurilmalar, ma’lumotlarni saqlash moslamalari bilan ishlashda axborot xavfsizligini ta’minlash talablari va tartiblarini belgilaydi.

1.2 Axborot-kommunikatsiya tizimlarida, ish stansiyalari va lokal tarmoqda ma’lumotlarni qayta ishlash, qabul qilish, uzatish maqsadida mobil qurilmalar va qo‘shimcha ma’lumotlarni saqlovchi va tashuvchi tashqi qurilmalar foydalanishni anglatadi.

1.3 Foydalaniladigan axborot tashuvchi vositalar, mobil qurilmalar sifatida USB flesh-xotiralar, qattiq disklar va noutbuklardan (keyingi o‘rinlarda – Mobil qurilmalar) foydalaniladi.

2. Atamalar va ta’riflar

2.1 Ushbu Yo‘riqnomada quyidagi atamalar va ularning ta’riflari qo‘llaniladi:

2.1.1 **zararlovchi dastur** – apparat, dasturiy-apparat yoki dasturiy usulda amalga oshirilgan va biror-bir ruxsat etilmagan yoki jinoyatkorona harakatlarni bajarish uchun mo‘ljallangan dastur.

2.1.2 **nazorat qilinadigan hudud** – doimiy yoki bir martalik ruxsati bo‘lmagan begona shaxslar va transport vositalarining nazoratsiz bo‘lishi taqiqlangan joy (hudud, bino, binoning bir qismi).

Izoh – Nazorat qilinadigan hududning chegaralari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- tashkilotning nazorat qilinadigan hududi perimetri;
- himoyalanadigan bino yoki binoning himoyalanadigan qismini o‘rab olish konstruksiyalari, agar u himoya qilinmaydigan hududda joylashgan bo‘lsa.

2.1.3 **mobil qurilmalar** – smartfonlar, planshetlar, elektron kitoblar, telefonlar, shaxsiy raqamli yordamchilar, operatsion tizimga ega netbuklar va mobil tarmoqlarga, Wi-Fi va internetga ulanish imkonini beradigan mobil ilovalar, shuningdek, ish stansiyalari va boshqa shunga o‘xshash qurilmalar.

2.1.4 **ma’lumotlarni saqlash qurilmasi** – ma’lumotni zaxiralash va saqlash, shuningdek, uni tashish uchun foydalaniladigan ma’lumotni o‘qiydigan yoki yozadigan qurilma.

2.1.5 **ma’lumotlarni tashish qurilmasi** – oflayn rejimida saqlash uchun mo‘ljallangan qurilma. Ular quyidagi shaklda bo‘lishi mumkin: qattiq disklar (HDD), flesh-xotira (USB flash), optik lazer disklari (CD, DVD), disketalar.

3. Qo‘llash qoidalari va talablar

3.1 Universitetda xodimlarga tegishli bo‘lgan tashuvchi, saqlovchi va Mobil qurilmalardan foydalanish quyidagi hollarda taqiqlanadi:

- konfidensial muzokaralar va konfidensial xarakterdagi tadbirlar o‘tkaziladigan xonalarda;
- lokal tarmoq va axborot resurslariga ulanish uchun;
- masofadan foydalanuvchilarning Mobil qurilmalarini umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmog‘i va internet orqali axborot resursiga va lokal tarmoqqa ulash;
- konfidensial yoki boshqa himoyalangan ma’lumotlarni, shu jumladan parollarni va boshqalarni tashuvchilar sifatida foydalanish.

3.2 Universitet hududida bir martalik ruxsatnomasi bo‘lgan uchinchi shaxslar tomonidan Mobil qurilmalardan foydalanishni taqiqlash choralari ko‘rilishi mumkin.

3.3 Universitet binolaridagi axborot-kommunikatsiya tizimida faqat Universitetning mulki bo‘lgan va ro‘yxatdan o‘tgan Mobil qurilmalar, ma’lumotlarni saqlovchi va tashuvchi tashqi qurilmalardan foydalanishga ruxsat beriladi.

Ma’lumotlarni tashuvchi, saqlovchi va mobil qurilmalarni qayd qilish jurnali Universitetning axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha mas’ul xodimi (keyingi o‘rinlarda – Axborot xavfsizligi administratori) tomonidan yuritiladi.

3.4 Hisobga olingan Mobil qurilmalarni haftasiga kamida bir marta virusga qarshi vositalar tomonidan zararli dastur bor-yo‘qligini aniqlash maqsadida tekshirib turilishi kerak.

3.5 Universitetda konfidensial ma’lumotlarni saqlash uchun Mobil qurilmalardan foydalanish taqiqlanadi.

3.6 Mobil qurilmalardan Universitetning axborot tizimlari va resurslariga ulanish uchun faqat boshqariladigan hudud doirasida foydalanish mumkin. Bunday holda, ularga qo‘yiladigan talablar ish stansiyalari bilan bir xil.

3.7 Mobil qurilmalar va ma’lumotlarni saqlovchi va tashuvchi tashqi qurilmalardan foydalanish vaqtida Universitet xodimlari quyidagi talablarni bajarishlari kerak:

- ulardan belgilangan maqsadlarda va faqat xizmat vazifalarini bajarishda foydalanish;
- ushbu Yo‘riqnomaning talablari buzilganligi ma’lum bo‘lsa, Raqamli ta’lim texnologiyalari departament boshlig‘i (keyingi o‘rinlarda – Departament boshlig‘i) va Axborot xavfsizligi administratoriga darhol xabar berish;
- Axborot xavfsizligi administratori va Departament boshlig‘iga Mobil qurilmalar, ma’lumotlarni saqlovchi va tashuvchi tashqi qurilmalarning yo‘qolishi (o‘g‘irlanishi) to‘g‘risida tezkorlikda xabar berish;
- Mobil qurilmalar, ma’lumotlarni saqlovchi va tashuvchi tashqi qurilmalarni jismoniy xavfsizligini har qanday oqilona usulda ta’minlash;
- Mobil qurilmalar va ma’lumotlarni saqlovchi va tashuvchi tashqi qurilmalarni boshqa shaxslarga bermaslik.

3.8 Hisobga olingan Mobil qurilmalar, ma’lumotlarni saqlovchi va tashuvchi tashqi qurilmalar mas’ul xodimlar tomonidan qarovsiz qoldirilishi taqiqlanadi.

3.9 Universitet hududidan tashqarida (xizmat safarlari, uchrashuvlar, muzokaralar va boshqalar) ishlatilganda Mobil qurilmalarning axborot va jismoniy xavfsizligini ta’minlash uchun quyidagi choralar qo‘llanilishi kerak:

- Mobil qurilmaga kirishda foydalanuvchi biometrik ma’lumotlari asosida kirish parolini o‘rnatish yoki autentifikatsiya vositalaridan foydalanish;
- Mobil qurilmaning ma’lum dasturlariga kirish uchun parolni o‘rnatish;
- Mobil qurilmada virusga qarshi himoya va shaxsiy tarmoqlararo ekranidan foydalanish.

4. Axborot tashuvchi vositalardan foydalanish qoidalari va talablari

4.1 Axborot tashuvchi vositalaridan foydalanish

4.1.1 Universitetning axborot infratuzilmasida faqat Universitetning mulki bo‘lgan va nazoratga olinadigan, ro‘yxatdan o‘tgan axborot tashuvchi vositalaridan foydalanishga ruxsat beriladi.

4.1.2 Axborot tashuvchi vositalar vaqti-vaqti bilan haftasiga kamida bir marta virusga qarshi dasturlar yordamida zararli dasturlarni tekshirilishi kerak.

4.1.3 Axborot tashuvchi vositalarni boshqariladigan hududdan olib chiqish Universitetning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘yicha mas’ul rahbari (keyingi o‘rinlarda – Mas’ul rahbar) hamda Departament boshlig‘i ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Axborot tashuvchi qurilmalarni olib chiqish uchun ruxsatnomada quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

- qurilmadan foydalanadigan xodimning to‘liq F.I.Sh va lavozimi;
- qurilmaning modeli va qayd raqami;
- olib chiqish sababi (xizmat safarlar, uchrashuvlar, muzokaralar va boshqalar);
- ruxsatnomaning amal qilish muddati.

4.2 Konfidensial ma’lumotlarni saqlash uchun ishlatiladigan ma’lumotlarni saqlovchi tashqi qurilmalarni boshqariladigan hududdan tashqariga olib chiqishga yo‘l qo‘yilmaydi.

4.3 Mobil qurilmalardan foydalanish

4.3.1 Universitetda faqat Universitet mulki bo‘lgan va muntazam audit va nazorat ostida bo‘lgan Mobil qurilmalardan foydalanishga ruxsat beriladi.

4.3.2 Xodimlarga Mobil qurilmalardan foydalanishda faqat o‘z xizmat vazifalarini bajarish uchun ruxsat etiladi.

4.3.3 Mobil qurilmalar xodimlarga tarkibiy bo‘linmalar rahbarlarining tashabbusi bilan quyidagi hollarda beriladi:

- xodimning o‘z xizmat vazifalarini bajarish zarurati;
- xodim uchun ishlab chiqarish ehtiyojining paydo bo‘lishi.

4.3.4 Mobil qurilmalarning jismoniy xavfsizligini ta’minlash mobil qurilma foydalanuvchisiga yuklatiladi.

4.4 Konfidensial ma’lumotlarni saqlash uchun ishlatiladigan ma’lumotlarni tashuvchi, saqlovchi va mobil qurilmalarni boshqariladigan hududdan tashqariga ruxsatsiz olib chiqishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Universitetning mulki bo‘lgan va ro‘yxatga olingan (nazorat qilinadigan) mobil qurilmalar, ma’lumotlarni saqlovchi va tashuvchi tashqi qurilmalarni harakatini (ro‘yxatga olish, xodimga biriktirish (ayrim hollarda qayta biriktirish, foydalanishdan chiqarish, tarkibini ishonchli tozalash, foydalanishdan chiqarish va yo‘q qilish) nazorat qilish Departament xodimlari tomonidan olib boriladi.

Mobil qurilmalar, ma’lumot saqlovchi va tashuvchi qurilmalarni harakatini nazorat qilish uchun lozim bo‘lgan “Universitet hududiga mobil qurilmalar, ma’lumot saqlovchi va tashuvchi qurilmalarni (ma’lumot to‘plagichlar, noutbuk va h.k.) olib kirish yoki hududdan olib chiqish uchun ruxsat berishga bildirgi” shakli 1-ilovaga muvofiq, “Mobil qurilmalar, ma’lumot saqlovchi va tashuvchi qurilmalarni yo‘q qilinganligi to‘g‘risidagi dalolatnoma” shakli 2-ilovaga muvofiq, “Mobil qurilmalar, ma’lumot saqlovchi va tashuvchi qurilmalarni hisobga olish jurnali” shakli 3-ilovaga muvofiq, “Konfidensial ma’lumotlar tashuvchilaridagi ma’lumotlarni yo‘q qilish bo‘yicha operatsiyalarni hisobga olish jurnali” shakli 4-ilovaga muvofiq keltirilgan.

Ish faoliyati bilan bog‘liq zarurat tufayli Mobil qurilmalar, ma’lumot saqlovchi va tashuvchi qurilmalarni harakati uchun ruxsat berish Mas’ul rahbarning yozma ruxsati bilan amalga oshiriladi.

4.5 Alohida grifli ma’lumotlarni tashuvchi, saqlovchi qurilmalarni ro‘yxatga olish, saqlash, foydalanish, bekor qilish hamda yo‘q qilish Universitetning Birinchi bo‘limi bosh mutaxassisi tomonidan Vakolatli organ talablari asosida amalga oshiriladi.

4.6 Konfidensial ma’lumotlarni saqlash uchun ishlatiladigan ma’lumotlarni tashuvchi, saqlovchi va mobil qurilmalar tegishliligi bo‘yicha Universitet logotipi va nomi bilan belgilab qo‘yiladi.

4.7 Konfidensial ma’lumotlarni saqlash uchun ishlatiladigan ma’lumotlarni tashuvchi, saqlovchi va Mobil qurilmalar Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘i tomonidan inventarizatsiya qilinadi.

Axborot tashuvchisi va ularda markirovkaning mavjudligini tekshirish Axborot xavfsizligi administratori tomonidan Universitetda yiliga kamida bir marta amalga oshiriladi.

4.8 Universitet xodimlari axborot tashuvchi, saqlovchi va Mobil qurilmalardan foydalanishda quyidagi talablarga rioya qilishlari shart:

- vositalardan faqat o‘zlarining ish faoliyatiga oid vazifalarini bajarish uchun foydalanishi;
- Axborot xavfsizligi administratoriga va Departament boshlig‘iga ushbu Yo‘riqnoma talablarining buzilishining har qanday faktlari to‘g‘risida xabar berish;
- ma’lumotlarni tashuvchi, saqlovchi va Mobil qurilmalarni yo‘qotish (o‘g‘irlash) yoki ishlamay qolish faktlari to‘g‘risida Axborot xavfsizligi administratori va Departament boshlig‘iga xabar berish;
- axborot tashuvchi, saqlovchi va Mobil qurilmalarni jismoniy xavfsizligini barcha oqilona usullar bilan ta’minlash;

- axborot tashuvchi, saqlovchi va Mobil qurilmalarni boshqa shaxslarga bermaslik.

4.9 Axborot tashuvchi, saqlovchi va Mobil qurilmalarni vositalardan foydalanishda xodimlarga ularni xavfsizligini ta’minlash choralari ko‘rilmagan bo‘lsa, ularni qarovsiz qoldirish taqiqlanadi.

4.10 Agar ish stansiyani yoki serverni uchinchi shaxslar ta’mirlashni talab qilsa, ta’mirlashni boshlashdan oldin ma’lumotlarni tashuvchi, saqlovchi va Mobil qurilmalar ma’lumotlardan tozalanishi kerak. Ushbu ta’mirlash ishlari Universitetning Raqamli ta’lim texnologiyalari departamenti Tarmoqlarni boshqarish va texnik qo‘llab-quvvatlash sektori bosh mutaxassisi (keyingi o‘rinlarda – Lokal tarmoq administratori) va Departament xodimlari tomonidan nazorat qilinadi.

5. Axborot tashuvchi vositalarni hisobdan chiqarish va yo‘q qilish tartibi

5.1 Agar xodim ishdan bo‘shatilgan yoki boshqa ish joyiga o‘tkazilgan bo‘lsa, unga berilgan Universitetga tegishli bo‘lgan tashuvchi, saqlovchi va Mobil qurilmalar Universitetning Axborot xavfsizligi administratoriga va Departament boshlig‘iga topshirilishi shart.

5.2 Ishlamay qolgan yoki yo‘q qilishga mo‘ljallangan tashuvchi, saqlovchi va Mobil qurilmalar qulflanadigan metall shkaflarda (seyflarda) saqlanishi kerak.

5.3 Axborot tashuvchi vositalarni hisobdan chiqarish va yo‘q qilish bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqish uchun maxsus komissiya tuziladi (keyingi o‘rinlarda – Komissiya). Komissiya tarkibi kamida 3 (uch) kishidan iborat bo‘ladi.

Komissiya tarkibi Universitetda Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘i tomonidan shakllantiriladi va Rektor buyrug‘i bilan tasdiqlanadi. Mas’ul rahbar Komissiya raisi hisoblanadi.

5.4 Komissiyaning axborot tashuvchi, saqlovchi va Mobil qurilmalardan foydalanishni bekor qilish to‘g‘risidagi qarori qabul qilinganidan so‘ng, ularni yo‘q qilinganligi to‘g‘risida dalolatnoma tuzish orqali amalga oshiriladi.

Universitetga tegishli ma’lumot saqlovchi va tashuvchi qurilmani yo‘q qilinganligi to‘g‘risida tuziladigan dalolatnoma shakli Yo‘riqnomaning 3-ilovasida keltirilgan.

5.5 Foydalanish uchun yaroqsiz bo‘lgan tashuvchi, saqlovchi va Mobil qurilmalarni formatlash va ularni jismoniy yo‘q qilish orqali tozalanishi kerak.

5.6 Konfidensial ma’lumotga ega bo‘lmagan tashuvchi, saqlovchi va Mobil qurilmalarni boshqa xodimga berishdan oldin ushbu qurilmalarda saqlanadigan barcha ma’lumotlarni uni formatlash orqali o‘chirib yo‘q qilinishi kerak.

5.7 Agar ma’lumotlarni tashuvchi, saqlovchi va Mobil qurilmalardan konfidensial ma’lumotlardan tozalash zarur bo‘lsa, axborotni kafolatlangan yo‘q qilish vositalaridan foydalanish va ushbu vositalarga ega bo‘lgan ixtisoslashtirilgan tashkilotlarning xizmatlariga murojaat qilish mumkin.

6. Javobgarlik

6.1 Ushbu Yo‘riqnoma talablarini buzganlik uchun Universitetning barcha xodimlari shaxsan javobgardirlar.

6.2 Ushbu Yo‘riqnomada belgilangan tashuvchi, saqlovchi va Mobil qurilmalardan foydalanish qoidalarini buzish Universitetning ichki mehnat qoidalari va O‘zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligiga muvofiq intizomiy javobgarlikka tortishga sabab bo‘ladi.

6.3 Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘i Universitet xodimlari tomonidan ushbu Yo‘riqnoma talablarini bajarilishini nazorat qilinishi va ta’minlanishi uchun javobgardir.

Mobil qurilmalar, ma’lumot saqlovchi va tashuvchi qurilmalar bilan ishlashda axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yo‘riqnomaga 1–ilova

Universitet binolariga mobil qurilma, ko‘chma ma’lumot tashish vositasini olib kirish, olib chiqish uchun xodimga ruxsat berish TALABNOMASI

Ish faoliyatidagi mavjud ehtiyojdan kelib chiqib, quyidagi xodimga mobil qurilma, ko‘chma ma’lumot tashish vositasini olib kirish, olib chiqish uchun ruxsat berishingizni so‘rayman:

_____,
to‘liq F.I.SH

_____ _____
(lavozimi) (bo‘limning nomi)

Tel.raqami_____,

_____
(mobil qurilma ko‘chma ma’lumot tashish vositasining nomi)

Bo‘linma rahbari: _____
tarkibiy bo‘linmaning nomi

20___-yil “ ” to‘liq F.I.SH

Kelishildi:

Raqamli ta’lim texnologiyalari departamenti boshlig‘i _____ _____
Imzo to‘liq F.I.SH

Axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha mas’ul _____ _____
Imzo to‘liq F.I.SH

Bino komendanti _____ _____
Imzo to‘liq F.I.SH

Mobil qurilmalar, ma’lumot saqlovchi va tashuvchi qurilmalar bilan ishlashda axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yo‘riqnomaga 2–ilova

Yo‘q qilishga ruxsat beraman

_____ rahbari

_____

(lavozimi, unvoni, F.I.Sh.)

_____

20____ yil “___” _____

_____-sonli
Mobil qurilmalar, ma’lumot saqlovchi va tashuvchi qurilmalarni yo‘q qilinganligi to‘g‘risidagi
DALOLATNOMA

_____

(lavozimi, unvoni, F.I.Sh.)

_____

_____ tarkibidagi komissiya

_____ ga asos, yo‘q qilish uchun quyidagi axborot tashuvchi vositasini tanlab oldi:

T/R	Ro‘yxatga olish raqami	Konfidensiallik belgisi	Mobil qurilmalar, ma’lumot saqlovchi va tashuvchi qurilmalar	Tashuvchi turi	Tashuvchini yo‘q qilish bo‘yicha amalga oshirilgan harakat	Izoh

Jami bo‘lib ____ _____ axborot tashuvchi vositalari
(soni, yozuv bilan)
yo‘q qilindi.

Komissiya a’zolari: _____ _____
(imzo) (F.I.Sh.)

_____ _____
(imzo) (F.I.Sh.)

Mobil qurilmalar, ma’lumotlarni saqlovchi va tashuvchi tashqi qurilmalar bilan ishlashda axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yo‘riqnomaga 3-ilova

Mobil qurilmalar, ma’lumot saqlovchi va tashuvchi qurilmalarni hisobga olish jurnali shakli

T/r	Sana	Ma’lumot tashuvchi, saqlovchi va mobil qurilmalarning xotira hajmi, nomi va seriya raqami	Ma’lumot tashuvchi, saqlovchi va mobil qurilmalarni qabul qilganlik haqida qaydnoma (qabul qiluvchi imzosi)	Ma’lumot tashuvchi, saqlovchi va mobil qurilmalarning topshirilganligi to‘g‘risidagi qaydnoma (oluvchining imzosi)	Ma’lumot tashuvchi, saqlovchi va mobil qurilmalarni saqlash joyi (seyf, shkaf, javon raqami)	Ma’lumot tashuvchi, saqlovchi va mobil qurilmalarni yo‘q qilish to‘g‘risidagi ma’lumot (administratorlarning imzosi, sanasi)	Izoh
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							

Mobil qurilmalar, ma’lumotlarni saqlovchi va tashuvchi tashqi qurilmalar bilan ishlashda axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yo‘riqnomaga 4-ilova

Konfidensial ma’lumotlar tashuvchilaridagi ma’lumotlarni yo‘q qilish bo‘yicha operatsiyalarni hisobga olish jurnali shakli

T/r	Xat raqami	Ma’lumotlar (model, o‘lcham, qattiq disk s/n)	Yo‘q qilinganligi sanasi	DBAN (versiyasi, o‘chirish algoritmi)	Mas’ul shaxslarning ismlari	imzo
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						

Universitet axborot
xavfsizligi siyosatiga 11-ilova

Axborot manbalariga kirish matritsasini ishlab chiqish QOIDALARI

1. Umumiy qoidalar

1.1 Ushbu Qoidalar Universitetning axborot tizimlari va resurslariga kirish matritsasini ishlab chiqish tartibini tavsiflaydi.

1.2 Ushbu Qoidalarning talablari Universitetga tegishli axborot tizimlari va resurslari uchun majburiydir.

1.3 Axborot tizimlari va resurslariga kirish matritsasi, Universitet faoliyatining asosiy qismi bo‘lib, axborot tizimlari va resurslarining xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Matritsa, kim qanday axborot tizimlari va resurslariga, qanday shartlarda va qanday maqsadlar uchun kirishi mumkinligini belgilaydi.

1.4 Axborot tizimlari va resurslaridan foydalanishni cheklash qoidalari (foydalanish siyosati) kirish matritsasida shakllantirilgan bo‘lib, unda qaysi subyektlarga (subyektlar guruhlariga), qaysi obyektlarga (obyektlar guruhlariga) kirish huquqlariga (o‘qish, yozish, ijro etish va boshqalar) ruxsat berilgan yoki taqiqlanganligini belgilaydi.

1.5 Kirish matritsasi Universitetning axborot tizimlari va resurslaridan foydalanish huquqini qo‘lga kiritgan xodimlar toifasini hamda ularning ma’lumotlarga kirish va ishlov berish huquqlari va vakolatlarini belgilaydi. Shuningdek, Universitetning xodimi bo‘lmagan, ammo axborot tizimidan yoki axborot resursidan foydalanishga huquqiga ega bo‘lgan shaxslar kiradi.

Kirish matritsasi asosida foydalanuvchining axborot tizimlari va resurslaridan foydalanishi boshqariladi.

Foydalanuvchilar toifalari – bu xodimlarning birlashtirilgan guruhi bo‘lib funksional majburiyatlari, faoliyat turi, bajarilgan ishlari, lavozimi va boshqalar kiradi.

1.6 Kirish matritsasi Universitetning Raqamli ta’lim texnologiyalari departamenti Tarmoqlarni boshqarish va texnik qo‘llab-quvvatlash sektori bosh mutaxassisi (keyingi o‘rinlarda – Lokal tarmoq administratori) hamda Raqamli ta’lim texnologiyalari departamenti (keyingi o‘rinlarda – Departament) xodimlari tomonidan taqdim etilgan identifikatorlar asosida Universitetning axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha mas’ul xodimi (keyingi o‘rinlarda – Axborot xavfsizligi administratori) va Departament boshlig‘i tomonidan ishlab chiqiladi va amalga oshirilishi tashkil qilinadi.

2. Atamalar va ta’riflar

2.1 Ushbu Qoidalarda quyidagi atamalar va ularning ta’riflari qo‘llaniladi:

2.1.1 **kirish matritsasi** – foydalanishni boshqarish huquqlarini ko‘rsatadigan jadval;

2.1.2 **kirish huquqi** – obyektga uning vakolati doirasida kirish huquqini beradigan ruxsat.

2.1.3 **hujjatlashtirilgan axborot** – identifikatsiya qilish imkonini beradigan rekvizitlarga ega moddiy tashuvchida qayd etilgan axborot;

3. Kirish matritsasini ishlab chiqish uchun talablar

3.1 Axborot tizimlari va resurslariga kirmaydigan boshqa axborot resurslariga (fayllar, papkalar, qurilmalar, xizmatlar va alohida ma’lumotlar bazalariga) kirish matritsasi xodimlarning kirish darajasidan kelib chiqqan holda Axborot xavfsizligi administratori va Departament boshlig‘i tomonidan ishlab chiqiladi.

3.2 Axborot xavfsizligi administratori kirish matritsasida ko‘rsatilgan axborot tizimlari va resurslari ro‘yxatini yuritishi kerak.

Ko‘rsatilgan axborot tizimlari va resurslariga kirish matritsasi Universitetda Active Directory va boshqa tarmoqqa kirishni boshqarish xizmatlari orqali ta’minlanadi.

3.3 Axborot tizimlari va resurslaridan foydalanish matritsasini ishlab chiqish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- Universitetdagi barcha mavjud axborot tizimlari va resurslar ro‘yxati shakllantiriladi. Bularga fayllar, papkalar, qurilmalar, axborot tizimlari va ularning ma’lumotlar bazalari, fayl serverlar, bulutli saqlash va boshqa ma’lumotlar omborlari kiradi;

- axborot tizimlari va resurslaridagi axborotlarning sezgirligi va ahamiyatiga qarab tegishli toifalarga ajratiladi. Bu axborot tizimlari va resurslariga kirish darajasini aniqlashga yordam beradi;

- har bir axborot tizimi va resursi uchun unga kirish huquqiga ega foydalanuvchilarning ro‘yxati tuziladi;

- foydalanuvchilarning ro‘yxati xodimlarning egallab turgan lavozimi, funksional majburiyatlari va vakolatlarini hisobga olgan holda, ularning kirish huquqlarini ko‘rsatgan holda foydalanuvchilar toifalariga bo‘linadi;

- axborotlarning toifalari va foydalanuvchilari rollariga mos keladigan turli kirish darajalari yoki ruxsatlar aniqlanadi;

- axborot tizimlari va resurslarining himoyalanganligini va kutilmagan hodisalar yoki favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda foydalanish imkoniyatini ta’minlash uchun falokatlarni tiklash rejasi ishlab chiqiladi;

- ruxsat berish tartib-taomillarini amalga oshiriladi. Individual axborot tizimlari va resurslar uchun kirish matritsasi ularga berilgan huquqlarga muvofiq ma’lum bir foydalanuvchi uchun axborot tizimlari va resurslariga kirish jadvalini (belgilangan vaqt orasida axborot manbasiga kirish) ko‘rsatishi mumkin.

3.4 Axborot tizimlari va resurslaridan foydalanuvchilarga quyidagi huquqlar va vakolatlar berilishi mumkin:

- Read (R) – obyektdan ma’lumot olish;
- Write (W) – obyektdagi ma’lumotlarni yangilash;
- Append (A) – obyektga yangi ma’lumotlar qo‘shish;
- Execute (E) – obyektni bajariladigan kod sifatida talqin qilish;

- Delete (D) – obyektni o‘chirish;
- Get info (G) – obyekt haqida ma’lumot olish;
- Set info (S) – obyekt haqida ma’lumot o‘rnatish;
- Privilege (P) – obyektga kirish huquqlarini sozlash;
- Full (F) – obyektga nisbatan barcha huquqlar berilgan;
- (—) – obyektga nisbatan hech qanday huquq berilmagan.

3.5 Kirish matritsasini ishlab chiqishda quyidagi talablarni hisobga olish kerak:

- “Need-to-Know” (Bilish kerak) tamoyiliga ko‘ra foydalanuvchilarga faqat o‘z vazifalarini samarali bajarishlari uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlargagina kirish huquqi berish;
- foydalanuvchilarga axborot tizimlari va resurslarida o‘z vazifalarini bajarish uchun kerak bo‘ladigan eng past darajadagi ruxsatlarni berish;
- muayyan sharoitlarda qo‘llaniladigan majburiy va tavsiya etilgan qoidalar o‘rtasidagi farqlar;
- “Taqiqlanmaguncha hamma narsaga ruxsat beriladi” degan zaif tamoyil asosida emas, balki “Hamma narsaga aniq ruxsat berilmaguncha umuman taqiqlanishi kerak” mazmundagi tamoyilga asoslanib qoidalarni shakllantirish;
- axborotni qayta ishlash vositalari tomonidan avtomatik ravishda hosil qilinadigan va foydalanuvchilarning ixtiyoriga binoan boshlangan ma’lumotlarning konfidensiallik darajasidagi o‘zgarishlar;
- axborot tizimi tomonidan avtomatik ravishda o‘rnatiladigan va tizim administrator tomonidan belgilanadigan foydalanuvchi huquqlarining o‘zgarishi;
- kuchga kirgunga qadar maxsus tasdiqlashni talab qiladigan va talab qilmaydigan qoidalar.

3.6 Kirish matritsasi asosida xodimlarga berilgan huquqlar va rollar to‘g‘risida axborot tizimlari va resurslariga kirishni farqlash tizimlari amalga oshiriladi.

3.7 Axborot tizimlari va resurslariga kirishda axborotni qayta ishlashning yangi vositalaridan foydalanishga ruxsat olish uchun quyidagi choralarni ko‘rish kerak:

- axborot tizimlari va resurslariga kirishda axborotni qayta ishlashning yangi vositalarini joriy etish Universitetning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘yicha mas’ul rahbari (keyingi o‘rinlarda – Mas’ul rahbar) tomonidan ma’qullangan bo‘lishi;
- joriy etilgunga qadar dasturiy ta’minotni tizimning boshqa tarkibiy qismlari bilan mosligini sinab ko‘rish;
- ish joyida axborotni qayta ishlash uchun shaxsiy texnik vositalardan (masalan, noutbuklar, uy kompyuterlari va boshqalar) foydalanishni taqiqlash.

3.8 Universitetning asosiy axborot tizimlari va resurslariga kirish matritsasi ushbu Qoidalarning ilovasida keltirilgan.

4. Javobgarlik

4.1 Kirish matritsasini ishlab chiqish uchun Axborot xavfsizligi administratori, amalga oshirish uchun esa Lokal tarmoq administratori hamda Departamentning barcha xodimlari javobgardir.

Axborot manbalariga kirish matritsasini
ishlab chiqish qoidalariga ilova

Universitetning asosiy axborot tizimlari va resurslariga kirish MATRITSASI

Bo‘linma nomi va mas’ul xodim lavozimi		buxdu.uz	moodle.buxdu.uz	hemis.buxdu.uz	masofaviy.buxdu.uz	student.buxdu.uz	uniwork.buxdu.uz	citrus.buxdu.uz	journal.buxdu.uz	srep.buxdu.uz	pedskills.buxdu.uz	Korporativ elektron pochta	Fayl serverlar	Ishchi stansiyalar	Server uskunalari	Ichki telefon tarmog‘i	Kirish chiqishni nazorat qilish tizimi	Videokuzatuv tizimi
Rektorat	Rektor	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	RWA DG
	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	RWA DG
	Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	RWA DG
	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	RWA DG
	Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	RWA DG

Bo‘linma nomi va mas’ul xodim lavozimi		buxdu.uz	moodle.buxdu.uz	hemis.buxdu.uz	masofaviy.buxdu.uz	student.buxdu.uz	uniwork.buxdu.uz	citrus.buxdu.uz	journal.buxdu.uz	srep.buxdu.uz	pedskills.buxdu.uz	Korporativ elektron pochta	Fayl serverlar	Ishchi stansiyalar	Server uskunalari	Ichki telefon tarmog‘i	Kirish chiqishni nazorat qilish tizimi	Videokuzatuv tizimi
	Rektor yordamchisi	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Kotib-ish yurituvchi	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Universitet kengashi kotibi	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	RWA DG
	Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Ilmiy kengashning ilmiy kotibi	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	RWA DG
	Universitet matbuot kotibi	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	RWA DG
	Talabalar orasida ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashga mas’ul bo‘lgan rektor maslahatchisi	R	-	-	-	-	-	RW	-	-	-	-	-	-	-	R	-	-

Bo‘linma nomi va mas’ul xodim lavozimi		buxdu.uz	moodle.buxdu.uz	hemis.buxdu.uz	masofaviy.buxdu.uz	student.buxdu.uz	uniwork.buxdu.uz	citrus.buxdu.uz	journal.buxdu.uz	srep.buxdu.uz	pedskills.buxdu.uz	Korporativ elektron pochta	Fayl serverlar	Ishchi stansiyalar	Server uskunalari	Ichki telefon tarmog‘i	Kirish chiqishni nazorat qilish tizimi	Videokuzatuv tizimi
	Universitet kengashi mutaxassisi	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	RWA DG
Rektor ofisi	Rektor ofisi boshlig‘i	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	RWA DG
	Yetakchi mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
Yoshlar ma’naviy yuksaltirishiga ko‘maklashish departamenti	Departament boshlig‘i	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	RWA DG
	Bosh mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Yetakchi mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Psixolog	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
Klub va to‘garaklar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi sektor	Bosh mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Klub mudiri	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
Tyutorlar faoliyatini	Bosh mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Yetakchi mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-

Bo‘linma nomi va mas’ul xodim lavozimi		buxdu.uz	moodle.buxdu.uz	hemis.buxdu.uz	masofaviy.buxdu.uz	student.buxdu.uz	uniwork.buxdu.uz	citrus.buxdu.uz	journal.buxdu.uz	srep.buxdu.uz	pedskills.buxdu.uz	Korporativ elektron pochta	Fayl serverlar	Ishchi stansiyalar	Server uskunalari	Ichki telefon tarmog‘i	Kirish chiqishni nazorat qilish tizimi	Videokuzatuv tizimi
muvofiqlashtiruvchi sektor	Tyutor	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
Talabalarni turar joy bilan ta’minlash sektori	Talabalar turar joyi direktori	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Bosh mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Yetakchi mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
O‘quv-uslubiy departament	Departament boshlig‘i	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	RWA DG
Akademik faoliyat va o‘quv normativ ta’minot sektori	Departament boshlig‘i o‘rinbosari-sektor mudiri	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Yetakchi mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
Malaka oshirish va amaliyot sektori	Bosh mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Yetakchi mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
Offis registrator va	Bosh mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Yetakchi mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-

Bo‘linma nomi va mas’ul xodim lavozimi		buxdu.uz	moodle.buxdu.uz	hemis.buxdu.uz	masofaviy.buxdu.uz	student.buxdu.uz	uniwork.buxdu.uz	citrus.buxdu.uz	journal.buxdu.uz	srep.buxdu.uz	pedskills.buxdu.uz	Korporativ elektron pochta	Fayl serverlar	Ishchi stansiyalar	Server uskunalari	Ichki telefon tarmog‘i	Kirish chiqishni nazorat qilish tizimi	Videokuzatuv tizimi
talabalar bilan ishlash sektori	Mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
Ta’lim kredit tizimini boshqarish sektori	Bosh mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Yetakchi mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti	Departament boshlig‘i	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	RWA DG
	Bosh mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Yetakchi mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Ilmiy-texnik va patent materiallariga ishlov beruvchi	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘limi	Bosh mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Yetakchi mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
Talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini	Bosh mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	RWA DG
	Yetakchi mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-

Bo‘linma nomi va mas’ul xodim lavozimi		buxdu.uz	moodle.buxdu.uz	hemis.buxdu.uz	masofaviy.buxdu.uz	student.buxdu.uz	uniwork.buxdu.uz	citrus.buxdu.uz	journal.buxdu.uz	srep.buxdu.uz	pedskills.buxdu.uz	Korporativ elektron pochta	Fayl serverlar	Ishchi stansiyalar	Server uskunalari	Ichki telefon tarmog‘i	Kirish chiqishni nazorat qilish tizimi	Videokuzatuv tizimi
tashkil etish sektori																		
Axborot-resurs markazi	Direktor	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Direktor muovini	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
Ilmiy-uslubiy va axborot-ma’lumot bo‘limi	Bo‘lim mudiri	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Yetakchi mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Uslubchi	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Bibliograf 1-toifa	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Kutubxonachi 1-toifa	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
Axborot — kutubxona resurslari bilan xizmat ko‘rsatish bo‘limi (abonimentlarga xizmat ko‘rsatish, o‘quv zallari	Bo‘lim mudiri	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Bosh kutubxonachi	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Bibliograf 1-toifa	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Kutubxonachi 1-toifa	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-

Bo‘linma nomi va mas’ul xodim lavozimi		buxdu.uz	moodle.buxdu.uz	hemis.buxdu.uz	masofaviy.buxdu.uz	student.buxdu.uz	uniwork.buxdu.uz	citrus.buxdu.uz	journal.buxdu.uz	srep.buxdu.uz	pedskills.buxdu.uz	Korporativ elektron pochta	Fayl serverlar	Ishchi stansiyalar	Server uskunalari	Ichki telefon tarmog‘i	Kirish chiqishni nazorat qilish tizimi	Videokuzatuv tizimi
va kitob saqlashni inobatga olgan holda)																		
Elektron axborot resurslari bo‘limi	Bo‘lim mudiri	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Axborot kutubxona texnologiyalari bo‘yicha yetakchi mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Kutubxonachi 1-toifa	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
Axborot — kutubxona resurslarini butlash, kataloglashtirish va tizimlashtirish bo‘limi	Bo‘lim mudiri	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Axborot kutubxona texnologiyalari bo‘yicha yetakchi mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Bibliograf 1-toifa	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Kutubxonachi 1-toifa	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-

Bo‘linma nomi va mas’ul xodim lavozimi		buxdu.uz	moodle.buxdu.uz	hemis.buxdu.uz	masofaviy.buxdu.uz	student.buxdu.uz	uniwork.buxdu.uz	citrus.buxdu.uz	journal.buxdu.uz	srep.buxdu.uz	pedskills.buxdu.uz	Korporativ elektron pochta	Fayl serverlar	Ishchi stansiyalar	Server uskunalari	Ichki telefon tarmog‘i	Kirish chiqishni nazorat qilish tizimi	Videokuzatuv tizimi
Moliyalashtirish, iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirish departamenti	Departament boshlig‘i	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Bosh mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Yetakchi mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
Buxgalteriya	Bosh buxgalter	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Bosh buxgalter o‘rinbosari	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Buxgalter	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	G‘aznachi	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Xarid bo‘yicha bosh mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
To‘lov-kontrakt asosida o‘qitish bo‘yicha shartnomalarni rasmiylashtirish va hisobga olish guruhi	Buxgalter	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-

Bo‘linma nomi va mas’ul xodim lavozimi		buxdu.uz	moodle.buxdu.uz	hemis.buxdu.uz	masofaviy.buxdu.uz	student.buxdu.uz	uniwork.buxdu.uz	citrus.buxdu.uz	journal.buxdu.uz	srep.buxdu.uz	pedskills.buxdu.uz	Korporativ elektron pochta	Fayl serverlar	Ishchi stansiyalar	Server uskunalari	Ichki telefon tarmog‘i	Kirish chiqishni nazorat qilish tizimi	Videokuzatuv tizimi
Inson resurslarini boshqarish departamenti	Departament boshlig‘i	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	RWA DG
	Bosh mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Kadrlar bo‘yicha menedjer	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
Birinchi bo‘lim	Bosh mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
Harbiy hisobga olish sektori	Bosh mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Yetakchi mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
Arxiv	Mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
Marketing va karyera bo‘limi	Bo‘lim boshlig‘i	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	RWA DG
	Yetakchi mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
Xalqaro hamkorlik departamenti	Departament boshlig‘i	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	RWA DG
	Bosh mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-
	Yetakchi mutaxassis	R	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RW	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	RWA DG	-	R	-	-

Universitetda saqlanadigan va qayta ishlanadigan har xil turdagi ma’lumotlarni himoya qilishning turli darajalarini ta’minlash zarurligidan kelib chiqib, shuningdek, boshqa tashkilotlarga yoki xodimlarga zarar yetkazilishining mumkin bo‘lgan usullarini hisobga olgan holda, kirish toifalari, yaxlitligi va mavjudligi himoyalangan axborot resurslari joriy etiladi.

5.5 Ma’lumotlarning belgilangan sinfiga muvofiq, axborot aktiviga tegishli kirish va uni himoya qilish darajasi tashkil etiladi.

6. Axborot aktivlarini tasniflashning asosiy tamoyillari

6.1 Kirish toifalari bo‘yicha axborot tizimlari va resurslari quyidagilarga bo‘linadi:

1) ochiq axborot resurslari (O) – cheksiz ko‘p foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan;

2) cheklangan kirish imkoniyatiga ega bo‘lgan axborot resurslari (K) – konfidensial ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan va cheklangan miqdordagi foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan;

6.2 Konfidensial ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy axborot resurslarini muhofaza qilishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2011-yil 8-iyuldagi PQ-1572-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 296-son qarori 2-ilovasiga muvofiq foydalanishi cheklangan ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

6.3 Axborot va axborot resurslari quyidagi kirish toifalariga bo‘linadi:

1) to‘siqsiz foydalana olishlik (T) – har doim axborot resursidan foydalana olish mumkin (kutish vaqti bir necha soniya yoki daqiqadan oshmasligi kerak);

2) yuqori foydalana olishlik (Y) – vaqtincha kutishlarsiz axborot resursidan foydalana olish mumkin (kechikish vaqti bir necha soatdan oshmasligi kerak);

3) o‘rtacha foydalana olishlik (O‘) – belgilangan kechikish vaqti bilan axborot resursidan foydalana olish mumkin (kechikish vaqti bir necha kundan oshmasligi kerak);

4) quyi foydalana olishlik (Q) – vaqtinchalik kechikishlar bilan, ammo limit chegaralanmagan axborot resursining mavjudligi (natijasini olishdagi ruxsat etilgan kechikish — bir necha hafta).

6.4 Axborot va axborot resurslari himoyalangan ma’lumotlarning yaxlitligi quyidagi toifalariga bo‘linadi:

1) yuqori (Y) – axborot resurslarini ruxsatsiz o‘zgartirish yoki soxtalashtirish jiddiy zarar yetkazilishiga olib kelishi mumkin, uning yaxlitligi kafolatlangan uslublar (masalan, ERI vositasi) bilan qonunchilik talablariga ko‘ra ta’minlanishi kerak;

2) quyi (Q) – axborot resurslarini ruxsatsiz o‘zgartirish yoki soxtalashtirish kamroq ahamiyatli zarar yetkazilishiga olib kelishi mumkin, uning yaxlitligi kafolatlangan

uslublar, xesh-funksiya kabi vositalar bilan qonunchilik talablariga ko‘ra ta’minlanishi kerak;

3) hech qanday talab yo‘q (-) – da’vo talab etilmaydigan butunligi ta’minlanadigan axborot resurslari.

7. Himoyalangan ma’lumotlarni inventarizatsiya qilish tartibi

7.1 Axborot aktivlarini aniqlash, Reestrni yuritish va axborot aktivlarini tasniflash uchun Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘i har yili bir marta Universitetdagi mavjud bo‘lgan axborot resurslarini inventarizatsiya qilish ishlarini tashkillashtiradi.

7.2 Axborot aktivlarini inventarizatsiya qilish jarayonida ushbu Tartibga muvofiq tasniflashning to‘g‘riligi, shuningdek, axborot aktivlari uchun belgilangan xavfsizlik sinfiga muvofiq ularni himoya qilish talablarining bajarilishi ham aniqlanadi.

7.3 Inventarizatsiya natijalari bo‘yicha Reestrga, shuningdek, Universitetning konfidensial ma’lumotlari ro‘yxatiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

Shuningdek, inventarizatsiya natijalariga ko‘ra kamchilik aniqlansa, Universitetning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘yicha mas’ul rahbari kamchilik aniqlangan axborot aktivlari egalariga mavjud kamchiliklarni bartaraf etish to‘g‘risida ko‘rsatma beradi.

8. Aktivlarni markirovkalash

8.1 Universitet tomonidan qabul qilingan tasniflash tizimiga muvofiq, Universitetning axborot resurslariga axborotni qayta ishlash jarayonida markirovkalash qo‘llaniladi.

Markirovkalash jarayonlari axborot aktivlariga jismoniy va elektron shaklda qo‘llaniladi.

8.2 Axborot aktivlari ularning egasi tomonidan markirovkalanadi.

8.3 Fizik yorliqlar markalashning keng tarqalgan shakli hisoblanadi. Axborot aktivlari, xuddi elektron hujjatlar singari, jismoniy yorliq bilan belgilanishi mumkin emas, shuning uchun ekranlarda yoki displeylarda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan bildirish yorliqlari kabi elektron yorliq vositalaridan foydalaniladi.

8.4 Yorliqda yoki markalashning elektron vositalarida axborot aktivining seriya raqami, konfidensiallik belgisi, shuningdek, axborot aktivi egasining qaroriga binoan boshqa ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

8.5 Chop etilgan hisobotlar, ekran shakllari, axborot tashuvchilar (lentalar, disklar, kompakt-disklar, kassetalar), elektron xabarlar va uzatilgan fayllar belgilanishi kerak.

8.6 Belgilanishdan noo‘rin foydalanilgan taqdirda, axborotni tasniflash darajasini belgilashning boshqa vositalari qo‘llanilishi mumkin.

8.7 Axborot aktivini tasniflashning har bir darajasi uchun uning egasi axborot aktivini qayta ishlash va undan foydalanish tartibini, shu jumladan xavfsiz ishlash, saqlash, o‘tkazish va yo‘q qilishni belgilaydi.

Ushbu jarayon axborot aktividan foydalanuvchilar tomonidan bajarilishi kerak.

8.8 Axborot aktivini qayta ishlash va undan foydalanish tartibi, shuningdek, boshqa tashkilotlar bilan ma’lumot almashishni ta’minlaydigan shartnomalarga

kiritilishi kerak. Konfidensial axborot bilan xavfsiz ishlash ma’lumot almashish bo‘yicha kelishuvlarning asosiy talabidir.

9. Javobgarlik

9.1 Ma’lumot manbalari toifasiga qarab talab qilinadigan xavfsizlik darajasini belgilanishi (markirovkalash) uchun javobgarlik Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘i zimmasiga yuklanadi.

9.2 Ushbu Tartib talablarining buzilishi Universitetning ichki mehnat qoidalari hamda O‘zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligiga muvofiq intizomiy javobgarlikka tortishga sabab bo‘ladi.

Axborot aktivlarini boshqarish tartibiga ilova

Universitetning axborot resurslari REESTRI

T/r	Resurs nomi	Resurs tavsifi	Joylashishi	Formati	Konfidensiallik	Yaxlitlik	Foydalana olishlilik	Yangilash davriyligi	Resurs foydalanuvchilari	Egasi
1.	buxdu.uz	Universitet faoliyatini internetda yoritib borish uchun mo‘ljallangan	Arsenal-D	Raqamli	O	Y	Y	Doimiy	Universitet xodimlari va internet foydalanuvchilari	Raqamli ta’lim texnologiyalar departamenti Universitet matbuot xizmati
2.	Onlayn o‘qitish tizimi (moodle.buxdu.uz)	Ushbu tizim talabalarni onlayn o‘qitish uchun qo‘llaniladi	Universitet bosh binosidagi serverda	Raqamli	O	Y	Y	Doimiy	Universitet xodimlari va internet foydalanuvchilari	Raqamli ta’lim texnologiyalar departamenti O‘quv-uslubiy departament
3.	Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi (hemis.buxdu.uz)	Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi	Universitet bosh binosidagi serverda	Raqamli	K	Y	Y	Doimiy	Universitet xodimlari va internet foydalanuvchilari	Raqamli ta’lim texnologiyalar departamenti O‘quv-uslubiy departament
4.	Masofaviy o‘qitish tizimi (masofaviy.buxdu.uz)	Ushbu tizim talabalarni masofaviy o‘qitish uchun qo‘llaniladi	Universitet bosh binosidagi serverda	Raqamli	O	Y	Y	Doimiy	Universitet xodimlari va internet foydalanuvchilari	Raqamli ta’lim texnologiyalar departamenti O‘quv-uslubiy departament

T/r	Resurs nomi	Resurs tavsifi	Joylashishi	Formati	Konfidensiallik	Yaxlitlik	Foydalana olishlilik	Yangilash davriyligi	Resurs foydalanuvchilari	Egasi
5.	Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi talabalar uchun (student.buxdu.uz)	Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi	Universitet bosh binosidagi serverda	Raqamli	K	Y	Y	Doimiy	Universitet xodimlari va internet foydalanuvchilari	Raqamli ta’lim texnologiyalar departamenti O‘quv-uslubiy departament
6.	uniwork.buxdu.uz	Raqamli universitet tizimi	Universitet bosh binosidagi serverda	Raqamli	K	Y	Y	Doimiy	Universitet xodimlari va talabalar	Raqamli ta’lim texnologiyalar departamenti
7.	Universitetning “Comparative linguistics, translation and literary studies” jurnali sayti (citrus.buxdu.uz)	Xorijiy tillar fakultetining “Comparative linguistics, translation and literary studies” jurnaliga maqola qabul qilish hamda chop etish tizimi	Arsenal-D	Raqamli	O	Y	Y	Doimiy	Universitet xodimlari va internet foydalanuvchilari	Raqamli ta’lim texnologiyalar departamenti Tahririy-nashriyot bo‘limi
8.	Professor-o‘qituvchilar tomonidan ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarni kiritish tizimi (journal.buxdu.uz)	Universitet Professor-o‘qituvchilari tomonidan ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarni joylashtirish tizimi	Arsenal-D	Raqamli	O	Y	Y	Doimiy	Universitet xodimlari va internet foydalanuvchilari	Raqamli ta’lim texnologiyalar departamenti Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti

T/r	Resurs nomi	Resurs tavsifi	Joylashishi	Formati	Konfidensiallik	Yaxlitlik	Foydalana olishlilik	Yangilash davriyligi	Resurs foydalanuvchilari	Egasi
9.	“Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti” ilmiy jurnali sayti (srep.buxdu.uz)	Universitet ilmiy maqolalar jurnali	Arsenal-D	Raqamli	O	Y	Y	Doimiy	Universitet xodimlari va internet foydalanuvchilari	Raqamli ta’lim texnologiyalar departamenti Tahririy-nashriyot bo‘limi
10.	Universitetning “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal sayti (pedskills.buxdu.uz)	Universitet ilmiy maqolalar jurnali	Arsenal-D	Raqamli	O	Y	Y	Doimiy	Universitet xodimlari va internet foydalanuvchilari	Raqamli ta’lim texnologiyalar departamenti Tahririy-nashriyot bo‘limi
11.	Universitetning korporativ elektron pochta tizimi (mail.buxdu.uz)	Universitetning ishchi xodimlari, Professor-o‘qituvchilari, doktorant hamda magistrlari uchun korporativ elektron pochta tizimi	Arsenal-D	Raqamli	K	Y	Y	Doimiy	Universitet xodimlari va internet foydalanuvchilari	Raqamli ta’lim texnologiyalar departamenti
12.	Fayl serverlar	Universitet xodimlari o‘rtasida hujjat (fayl) almashish uchun mo‘ljallangan	Universitet bosh binosidagi serverda	Turli xil elektron formatda	K	-	Y	Zarurat tug‘il-ganda	Universitet xodimlari	Raqamli ta’lim texnologiyalar departamenti
13.	Ishchi stansiyalar	Universitet xodimlariga biriktirilgan o‘z xizmat faoliyatini olib	Universitet binosida	Raqamli	K	Y	T	Zarurat tug‘ilgan-da	Universitet xodimlari	Raqamli ta’lim texnologiyalar departamenti

T/r	Resurs nomi	Resurs tavsifi	Joylashishi	Formati	Konfidensiallik	Yaxlitlik	Foydalana olishlilik	Yangilash davriyligi	Resurs foydalanuvchilari	Egasi
		boradigan ishchi stansiyalar								
14.	Server uskunalari	Universitetning axborot resurslari va tizimlarining asosiy kommutatsiya uskunalari va server uskunalari uchun ajratilgan joy	Universitet binosining 2-qavatida	Raqamli	K	Y	T	Zarurat tug‘ilgan-da	Universitet xodimlari	Raqamli ta’lim texnologiyalar departamenti
15.	Ichki telefon tarmog‘i	Apparat-dasturiy kompleks asosida qurilgan IP telefoniya tizimi	Universitet server xonasida	Raqamli	O	Y	O‘	Zarurat tug‘ilganda	Universitet xodimlari	Raqamli ta’lim texnologiyalar departamenti
16.	Kirish chiqishni nazorat qilish tizimi	Universitet binosiga kirish chiqishlarni nazorat qilish tizimi	binoning kirish qismida	Raqamli	K	Y	Y	Zarurat tug‘ilganda	Inson resurslarini boshqarish departamenti	Raqamli ta’lim texnologiyalar departamenti
17.	Videokuzatuv tizimi	Universitet hududidagi mavjud kameralarni ro‘yxatga olish, online kuzatuv jarayonlarini tashkil etish, fakultet rahbarlari, bo‘lim va departament	Arsenal-D, Universitet bosh binosidagi serverda	Raqamli	O	Y	Y	Doimiy	Universitet xodimlari va internet foydalanuvchilari	Raqamli ta’lim texnologiyalar departamenti

T/r	Resurs nomi	Resurs tavsifi	Joylashishi	Formati	Konfidensiallik	Yaxlitlik	Foydalana olishlilik	Yangilash davriyligi	Resurs foydalanuvchilari	Egasi
		boshliqlari uchun alohida sahifa orqali o‘quv jarayonlarini kuzatish hamda universitetda bo‘lib o‘tadigan ijodiy imtihonlarni onlayn ko‘rish tizimi								

Konfidensiallik darajasi: K, O;
Yaxlitlik: Y, Q, – hech qanday talab yo‘q ;
Foydalana olishlilik: T, Y, O‘, Q;
Foydalanuvchilar: Kirish matritsasi asosida resurs bilan ishlash huquqiga ega bo‘lgan xodimlar;
Egasi: Resursga javobgar.

Universitet axborot xavfsizligi
siyosatiga 15-ilova

Axborotni texnik himoya qilishni tashkil etish bo‘yicha YO‘RIQNOMA

1. Umumiy qoidalar

1.1 Ushbu Yo‘riqnomada axborotni texnik himoya qilishning asosiy chora-tadbirlari, usullari va vositalari, Universitetda ma’lumotlarini himoya qilish tizimiga kiritilgan foydalanuvchilar va mansabdor shaxslarning majburiyatlarini belgilaydi.

1.2 Ushbu Yo‘riqnomaning talablari Universitetda foydalanish uchun majburiydir.

1.3 Axborotni ishonchli himoya qilishni tashkil etish va ta’minlash Universitetning axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha mas’ul xodimi (keyingi o‘rinlarda – Axborot xavfsizligi administratori) hamda Raqamli ta’lim texnologiyalari departamenti (keyingi o‘rinlarda – Departament) boshlig‘ining eng muhim vazifalaridan biridir.

1.4 Axborotni ishonchli himoya qilishni ta’minlash Departamentning Tarmoqlarni boshqarish va texnik qo‘llab-quvvatlash sektori bosh mutaxassisi (keyingi o‘rinlarda – Lokal tarmoq administratori) hamda Departament xodimlarining eng muhim vazifalaridan biridir.

2. Asosiy tushunchalar

2.1 Ushbu Yo‘riqnomada quyidagi atamalar va ta’riflar qo‘llaniladi:

2.1.1 **axborotni texnik himoya qilish vositalari** – axborotning hayotiy siklining barcha bosqichlarida (axborotni yaratish, uzatish, qabul qilish, o‘zgartirish, namoyish qilish va saqlash) xavfsizlikni ta’minlaydigan apparat, apparat-dasturiy yoki dasturiy ta’minot.

2.1.2 **axborotni texnik muhofaza qilish** – muhandislik va kriptografik bo‘lmagan usullardan foydalangan holda axborot xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan faoliyat.

3. Axborotni texnik himoya qilishni tashkil etish tartibi va majburiyatlari

3.1 Axborotni texnik himoyalashni tashkil etish Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘i tomonidan ta’minlanadi.

3.2 Axborotni texnik himoyalashni ta’minlash Universitetda Lokal tarmoq administratori hamda Departament xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

3.2.1 Axborotni texnik himoyalashni tashkil etish bo‘yicha Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘ining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- axborotni texnik himoyasini ta’minlash va axborotni himoya qilish tizimini tashkil etish bo‘yicha talablarni ishlab chiqish;
- axborot xavfsizligi tizimini rivojlantirish va axborot xavfsizligi texnik vositalarini joriy etish rejalarini tayyorlash va amalga oshirish;

- axborotni texnik himoya qilish vositalariga talablarni ishlab chiqish, ularni sotib olishni, amalga oshirishni va foydalanishga topshirishni tashkil etish;

- axborot xavfsizligi tizimi va unga kiritilgan texnik axborot xavfsizligi vositalarining uzluksiz ishlashini tashkil etish.

3.3 Konfidensial axborotlarni texnik muhofaza qilishni tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 16-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi axborotlashtirish obyektlarida konfidensial axborot xavfsizligini tashkil etish va ta’minlash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 295-son qarori talablariga muvofiq ta’minlanishi kerak.

3.4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 16-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi axborotlashtirish obyektlarida konfidensial axborot xavfsizligini tashkil etish va ta’minlash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 295-son qaroriga binoan Axborot xavfsizligi administratori va Departament boshlig‘i quyidagi bosqichlarda axborotni muhofaza qilish tizimini yaratadi (modernizatsiya qiladi):

- loyihalashdan oldingi ekspertiza, himoya tizimini yaratish (modernizatsiya qilish) zarurati asoslarini ishlab chiqish;

- axborot xavfsizligi tizimini loyihalash (loyihalarni ishlab chiqish) va amalga oshirish;

- xavfsizlik vositalarini ekspluatatsiya va qabul sinovlarini o‘tkazgan holda, axborot xavfsizligi tizimini ishga tushirish.

Loyiha oldidan o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, axborot xavfsizligi tizimini rivojlantirish bo‘yicha texnik topshiriq ishlab chiqish.

Himoya tizimini loyihalashtirish va amalga oshirish bosqichida texnik loyihani ishlab chiqish, tashkiliy-texnik tadbirlarni ishlab chiqish, axborot xavfsizligini ta’minlash vositalarini sotib olish va ularni o‘rnatish, agar kerak bo‘lsa, axborot xavfsizligini ta’minlash uchun dasturiy ta’minotni ishlab chiqish amalga oshiriladi.

Axborotni muhofaza qilish tizimini ishga tushirish bosqichida sinovdan o‘tkazish, axborotni muhofaza qilish bo‘yicha texnologik jarayonlarni ishlab chiqish, qabul qilish sinovlari o‘tkaziladi.

3.5 Ushbu Yo‘riqnomada ko‘rsatilgan ma’lumotlarni texnik muhofaza qilish choralari va vositalarini amalga oshirish va axborot xavfsizligi tizimini rivojlantirish maqsadida Axborot xavfsizligi administratori Departament boshlig‘i bilan birgalikda axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yillik tadbirlar rejalarini, shu jumladan sotib olish, o‘rnatish, sozlash, axborotni texnik muhofaza qilish vositalarini sinovdan o‘tkazish va ishga tushirish ishlarini amalga oshiradi.

3.6 Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘ining dolzarb vazifalariga quyidagilar kiradi:

- axborot xavfsizligi tizimini rivojlantirish va texnik axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha rejalarni amalga oshirish;

- axborotni himoya qilishning texnik vositalarini joriy etish va ulardan foydalanishni tashkillashtirish.

3.7 Axborotni himoya qilish bo‘yicha texnik choralar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshirilishi kerak:

- tarmoq xavfsizligi;

- zararli dasturlardan ma’lumotlarni himoya qilish;
- ruxsatsiz kirishdan himoya qilish;
- texnik kanallar orqali ma’lumot tarqalishidan himoya qilish.

3.8 Universitetning axborot infratuzilmasining barcha tarkibiy qismlari, axborot resurslari texnik jihatdan muhofaza qilinadi.

3.9 Universitetda axborot xavfsizligi tizimini yaratishda axborot xavfsizligining texnik usullarini joriy etish inobatga olinadi.

4. Axborotni texnik himoya qilishda foydalanilgan usullar va vositalar

4.1 Tarmoq xavfsizligi

4.1.1 Universitetning mavjud tarmoqlarida ma’lumotni texnik himoya qilish vositalariga tarmoqlararo ekran va proksi-server vositalari kiradi.

4.1.2 Ushbu vositalar sifatida Universitetda “Kerio Control”, “FortiGate” yordamida amalga oshiriladi.

4.1.3 Universitetda Lokal tarmoq administrator hamda Departament xodimlari tomonidan tarmoqlararo ekrandan foydalanish bo‘yicha quyidagi choralar ko‘riladi:

- lokal tarmoqning internet tarmog‘iga ulanishi chegarasida tarmoqlararo ekran apparat va dasturiy ta’minoti o‘rnatiladi;
- xodimlarning internet tarmog‘iga chiqishi yoki internet tarmog‘idan ma’lumotlarni qabul qilishida tarmoqlararo ekran orqali foydalanishda uzatilayotgan ma’lumotlarning xavfsizligini saqlash choralarini ko‘radi;
- tarmoqlararo ekranga kiritilgan siyosatlarni doimiy yangilab boradi;
- tarmoqni virusli dasturlardan himoyalashni ta’minlaydi.

4.1.4 Tarmoqlararo ekran apparat vositalari sozlamalarida keraksiz tarmoq trafigini filtrlash uchun URL filtri, spam-filtr va zararli dasturlar uchun trafikni boshqarish vositalaridan foydalanish kerak.

4.2 Zararli dasturlardan himoya

4.2.1 Zararli dasturlardan, shu jumladan kompyuter viruslari, troyan va josuslik dasturlari va boshqalardan himoya qilish uchun quyidagi choralar ko‘rilishi kerak:

- zararli dasturlarga qarshi vositalardan (antiviruslar) foydalanish;
- xavfsizlik darajasini oshirish uchun veb-brauzerlarni sozlash, jumladan, ochilgan oynalarni va veb-reklamalarni blokirovka qilish, zararli yoki shubhali kontentni yuklab olishda ogohlantirish, veb-saytlar uchun xavfsiz ko‘rish rejimidan foydalanish va h.k..
- axborotga ishlov berish, saqlash va uzatish vositalarini ishlatilishidan oldin antivirusdan himoya qilish vositasida viruslar mavjudligini tekshirish;
- serverlarda va ish stansiyalarida tashuvchi vositalardan foydalanishni cheklash;
- kiruvchi elektron pochta xabarlarini antivirus himoyasi yordamida skanerlash;
- kontentni filtrlash va proksi-serverlar (tarmoqlararo ekran) yordamida zararli saytlarga kirishni blokirovka qilish;
- foydalanuvchilarning ish stansiyalariga ruxsat etilmagan dasturlarni foydalanuvchilar tomonidan o‘rnatishni taqiqlash va anonimayzerlardan foydalanishni cheklash choralarini qo‘llash.

4.2.2 Virusga qarshi himoya ESET Endpoint hamda boshqa dasturiy ta’minotlardan foydalangan holda ta’minlanadi.

Antivirusdan himoya qilish obyektlari: Universitet binosida foydalanishdagi ish stansiyalari, mobil qurilmalar va serverlar.

4.2.3 Antivirusdan himoya vositalarini boshqarish Universitetda Lokal tarmoq administratori hamda Departament xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

4.2.4 Antivirus himoyasi Siyosatning 9-ilovasidagi “Antivirus himoyasi bo‘yicha yo‘riqnoma”ga muvofiq tashkil qilinishi va ta’minlanishi kerak.

4.3 Ruxsatsiz kirishdan himoyalash

4.3.1 Ruxsatsiz kirishdan himoya qilishning quyidagi texnik usullarini ta’minlashi kerak:

- ruxsatsiz jismoniy harakatlar yoki kirishning oldini oluvchi yoki to‘sib qo‘yadigan muhandislik himoya vositalaridan (eshiklar, devorlar, shiftlar, deraza panjaralari, to‘siqlar va boshqalar) qulflar bilan jihozlangan (mexanik, elektromexanik, elektron), tamg‘alardan foydalanish;
- axborotga ishlov berish, saqlash va uzatishda foydalanadigan vositalari tashqi korpuslarida bir marta ishlatiladigan, muhrlar, yopishqoq lentalar yoki gologramma yorliqlardan foydalanish;
- server xonalarida signalizatsiya va videokuzatuv tizimini o‘rnatish;
- axborotga, tarmoqqa, axborot resurslariga kirishda autentifikatsiya vositalaridan foydalanish.

4.3.2 Tarmoq resurslari (fayl server, printerlar, ish stansiyalari va boshqalar), xizmatlarga (korporativ elektron pochta va h.k.) kirishni boshqarish, chegaralash hamda foydalanuvchilar va ish stansiyalarining hisobini yuritish Active Directory xizmati orqali amalga oshiriladi.

4.3.3 Tarmoq resurslariga kirishni boshqarish Domen serverida amalga oshiriladi, uning konfiguratsiyasi Universitetda Lokal tarmoq administratori hamda Departament xodimlari tomonidan ta’minlanadi.

4.3.4 Universitetda axborotlashtirish obyektlariga kirishni nazorat qilish, chegaralash va boshqarish tizimi Siyosatning 8-ilovasi “Parolli himoya bo‘yicha yo‘riqnoma”da keltirilgan talablar asosida tashkil etilishi kerak.

4.3.5 Axborot resurslariga kirishlarni Siyosatning 11-ilovasi “Axborot manbalariga kirish matritsasini ishlab chiqish qoidalari”da keltirilgan talablar asosida amalga oshirilishi kerak.

4.4 Texnik kanallar orqali ma’lumotlarning sizib chiqishidan himoya qilish

4.4.1 Texnik kanallar orqali ma’lumot sizib chiqishidan himoya qilishning asosiy usullari quyidagilardan iborat:

- axborotni uzatish, qayta ishlash va saqlashda sertifikatlangan texnik vositalar va tizimlardan foydalanish;
- qo‘riqlanadigan obyektni uning chegaralaridan maksimal darajada masofada boshqariladigan hududga joylashtirish;
- qo‘riqlanadigan binolar ro‘yxati va ulardan foydalanish uchun javobgar shaxslar haqidagi ma’lumotlarni to‘liq hujjatlashtirilishi;

- zarurat tug‘ilganda nutq signalini faol himoya qilish vositalaridan foydalanish (shovqin generatorlari);

— himoyalangan xonalarni jihozlash bo‘yicha tavsiya etilgan tadbirlarni amalga oshirish: devorlar, pollar va shiftlar boshqa tashkilotlarning binolari yonida bo‘lmasligi derazalar esa pardalar bilan yopilgan bo‘lishi kerak;

- ma’lumotlarning sizib chiqishi texnik kanallari mavjudligini aniqlash uchun binolarda maxsus tekshirishlar o‘tkazish;

- yong‘in va qo‘riqlash signalizatsiya tizimining bitta qo‘riqlanadigan boshqariladigan zonasida joylashtirish va boshqaruv paneli bilan simli aloqa;

- muhofaza qilinadigan binolarning atrofidagi inshootlarning, ularning shamollatish va muhofaza qilinadigan bino tashqarisidagi undagi suhbatlarni tinglash imkoniyati yo‘qligini ta’minlash;

- muhofaza qilinadigan binolarning atrofidagi inshootlar, muhandislik kommunikatsiyalari tashqarisiga begona (g‘ayritabiiy) narsalarni o‘rnatish imkoniyatini istisno qilish, vibroakustik kanallar orqali ma’lumotni ushlab qolish ehtimolini kamaytirish.

4.4.2 Universitet joylashgan binoda texnik kanallar orqali ma’lumotlarni himoya qilish choralarini amalga oshirishni tashkil etish va nazorat qilish Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘i tomonidan amalga oshiriladi.

4.4.3 Universitetning axborot tizimlari joylashgan binolarida texnik kanallar orqali ma’lumotlarni himoya qilish choralarini amalga oshirishni tashkil etish va nazorat qilish Departament boshlig‘i tomonidan amalga oshiriladi.

4.4.4 Konfidensial ma’lumotlarni axborot-kommunikatsiya tizimidan chiqib ketishidan himoya qilish uchun, DLP konfidensial ma’lumotlarning chiqib ketishini oldini olish tizimlaridan foydalanishni tashkil etish Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘ining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

4.5 Ish faoliyatini nazorat qilish

4.5.1 Asosiy himoya obyektlarining (server qurilmalari, tarmoq qurilmalari, aloqa kanallari) ishlash holatini kuzatib borish uchun Universitet kecha-kunduz ishlaydigan va himoya obyektlarining ishlashini kuzatish imkonini beradigan tizimni yaratadi, shuningdek, mazkur tizimdan maqsadli foydalanishni tashkil etadi.

4.5.2 Ish faoliyati monitoringi tizimi, shu jumladan monitoring monitorlari Universitet bosh binosida joylashadi.

4.5.3 Ish samaradorligini kuzatish tizimining ishlashi va texnik ta’minoti Departament xodimlari tomonidan ta’minlanadi.

5. Axborotni texnik himoya qilish choralari va vositalarini qo‘llash

5.1 Texnik axborot xavfsizligi vositalarining uzluksiz ishlashi Lokal tarmoq administratori hamda Departament xodimlari tomonidan Siyosat talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

5.2 Axborotni muhofaza qilishning texnik va dasturiy vositalarini ishlatish bo‘yicha yo‘riqnomalar Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘i tomonidan Universitetda qo‘llaniladigan va foydalaniladigan har bir texnik

himoya vositalariga nisbatan ishlab chiqiladi. Ushbu yo‘riqnomalarda vositalarni ishlab chiqaruvchilarning qo‘llanmalari va foydalanish bo‘yicha hujjatlarida keltirilgan talablar inobatga olinadi.

6. Javobgarlik

6.1 Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘i ushbu Yo‘riqnomaga muvofiq axborotni texnik himoya qilish tadbirlarini amalga oshirilishining nazoratiga mas’uldirlar.

6.2 Ushbu Yo‘riqnomada belgilangan talablarning buzilishi Universitetning ichki mehnat qoidalari va O‘zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligiga muvofiq intizomiy javobgarlikka tortilishga olib keladi.

Universitet axborot xavfsizligi
siyosatiga 16-ilova

Axborotni kriptografik himoya qilishni tashkil etish bo‘yicha YO‘RIQNOMA

1. Umumiy qoidalar

1.1 Ushbu Yo‘riqnoma Universitetda axborotni kriptografik muhofaza qilishning asosiy chora-tadbirlarini, usullarini va vositalarini belgilaydi, shuningdek, axborotlarni kriptografik himoya vositalari sifatida ishlatiladigan elektron raqamli imzo (ERI) kalitlari bilan ishlashga vakolatli xodimlarining harakatlarini tartibga soladi.

1.2 Ushbu Yo‘riqnomaning talablari Universitetning barcha xodimlari uchun majburiydir.

1.3 Universitetda uzatilayotgan ma’lumotlarning yaxlitligini ta’minlashda kriptografik himoyalangan E-xat tizimidan foydalaniladi.

1.4 Uzatilayotgan axborotlarning kriptografik himoyasini ta’minlash, ushbu AKHVni ishlab chiquvchi va texnik qo‘llab-quvvatlovchi tashkilot zimmasiga yuklatiladi.

1.5 Universitetning axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha mas’ul xodimi (keyingi o‘rinlarda – Axborot xavfsizligi administratori) hamda Raqamli ta’lim texnologiyalari departamenti (keyingi o‘rinlarda – Departament) boshlig‘i tegishli bo‘linmalar bilan birgalikda E-xat tizimidan foydalangan holda axborotning kriptografik himoyasini tashkil etish bo‘yicha belgilangan talablarning bajarilishini nazorat qiladi.

1.6 Foydalaniladigan axborotlarni himoya qiluvchi kriptografik vositalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 3-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida axborotni kriptografik himoyasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-614-son qaroriga muvofiq sertifikatlangan bo‘lishi shart.

2. Asosiy tushunchalar

2.1 Ushbu Yo‘riqnomada quyidagi atamalar va ta’riflar qo‘llaniladi:

2.1.1 **axborotni kriptografik himoya qilish** – kriptografik o‘zgartirish algoritmlari (kriptoalgoritmlar) yordamida amalga oshiriladigan axborotning yaxlitligini, erkinligini va konfidensialligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui;

2.1.2 **axborotni kriptografik himoya qilish vositalari (AKHV)** – axborotning xavfsizligini ta’minlash uchun axborotning kriptografik o‘zgartirilishini amalga oshiradigan apparat, dasturiy yoki apparat-dasturiy vositalar;

2.1.3 **kriptografik algoritm (kriptoalgoritm)** — ma’lumotlarni buzib ko‘rsatish va ruxsatsiz kirishdan himoya qilish maqsadida ma’lumotlarni (axborotni) o‘zgartirishning matematik algoritmi;

2.1.4 **kriptografik tizim** – (shifrlash tizimi, kriptotizim) axborotni kriptografik o‘zgartirish va/yoki boshqarish, shu jumladan, kriptografik kalitlarni tayyorlash

va taqsimlash jarayonini avtomatlashtirilgan boshqarishni ta’minlovchi tashkiliy, texnik va dasturiy vositalar jami;

2.1.5 **ruxsatsiz foydalana olish** – tizimda belgilangan foydalana olishni cheklash qoidalarini buzgan holda subyektning obyektdan yoki axborotdan foydalana olishi;

2.1.6 **shifrlash vositalari** – axborotni almashtirish kriptografik algoritmlarini amalga oshiruvchi va axborotni qayta ishlash, saqlash hamda aloqa kanallari bo‘ylab uzatishda uni ruxsatsiz foydalana olishdan muhofaza qilish uchun mo‘ljallangan apparat, dasturiy yoki apparat-dasturiy vositalar;

2.1.7 **imitomuhofaza vositalari** – axborotni kriptografik almashtirish algoritmlarini amalga oshiruvchi va yolg‘on axborotni majburan qabul qildirishdan muhofaza qilish uchun mo‘ljallangan apparat, dasturiy va apparat-dasturiy vositalar;

2.1.8 **kodlash vositalari** – almashtirishning bir qismini qo‘l operatsiyalari yordamida bajargan holda axborotni kriptografik almashtirish algoritmlarini amalga oshiruvchi vositalar;

2.1.9 **shifrlash** – kriptografik algoritmga va ma’lumotlarning haqiqiy tarkibini ishonchli yashirish uchun kalitga muvofiq ma’lumotlarning (axborotlarning) qayta tiklanadigan o‘zgarishlari to‘plami.

3. Axborotning kriptografik himoyasini tashkil etish tartibi

3.1 Universitetda kriptografik axborotni himoya qilishni tashkil etish Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘i tomonidan ta’minlanadi. Shu maqsadda ular quyidagilarni hamkorlikda amalga oshiradi:

- Universitetda kriptografik himoyani ta’minlash va kriptografik axborotni himoya qilish vositalaridan foydalanish bo‘yicha talablar ishlab chiqadi;
- kriptografik tizimni rivojlantirish bo‘yicha rejalar tayyorlaydi;
- AKHVga talablar ishlab chiqadi, ularni sotib olish, joriy etish, ishga tushirish va sertifikatlashtirishni tashkil etadi.

3.2 Ushbu Yo‘riqnomada ko‘rsatilgan ma’lumotlarni kriptografik himoya qilish choralari va vositalari Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘i tomonidan belgilanadi va Departamentning Tarmoqlarni boshqarish va texnik qo‘llab-quvvatlash sektori bosh mutaxassisi (keyingi o‘rinlarda – Lokal tarmoq administratori) hamda Departament xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ularni amalga oshirish uchun axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yillik tadbirlar rejalari, shu jumladan AKHVlarini joriy etish, ulardan foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

3.3 AKHVni ishlashi Universitet xodimlari tomonidan ushbu AKHV ishlab chiquvchilaridan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalarga muvofiq amalga oshiriladi.

3.4 AKHVni ishlatish bo‘yicha Yo‘riqnoma Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘i tomonidan xodimlarga yetkaziladi.

4. Kriptografik axborotni himoya qilish usullari va vositalari

4.1 Universitetda ma’lumotlarning AKHV orqali himoyalangan uzatilishini ta’minlash maqsadida AKHVdan E-xat tizimidan foydalaniladi.

4.2 E-xat tizimidan foydalanuvchi xodimlar ro‘yxati Universitetning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘yicha mas’ul rahbari tomonidan belgilanadi.

4.3 E-xat tizimining foydalanuvchilariga tizimdagi raqamli imzolar asosida foydalanuvchilarning autentifikatsiyasini, kirish va uzatilayotgan ma’lumotlarni shifrlash, shuningdek, uzatish jarayonida uning yaxlitligini ta’minlash uchun raqamli imzoni shakllantirishni ta’minlaydigan ERI kalitlar beriladi.

4.4 Soliq va bank xizmatlaridan foydalanish va tegishli hisobotlarni taqdim etish va olish uchun soliq va bank muassasalari tomonidan taqdim etilgan ERIlardan foydalaniladi.

Mazkur kalitlardan foydalanish (qabul qilish, yangilash, xavfsiz saqlash, bekor qilish va boshqa harakatlar) Buxgalteriya bosh buxgalteri zimmasiga yuklatilgan.

4.5 Ish faoliyatida foydalaniladigan ERI kalitlari, shuningdek, ERI ochiq kalitlari sertifikatlari Universitet xodimlari bo‘lgan E-xat tizimi foydalanuvchilariga himoyalangan USB tashuvchida Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘i tomonidan beriladi.

Yaratilgan ERI kalitlar Universitet xodimlari bo‘lgan Edo.ijro.uz va E-xat tizimlari foydalanuvchilariga “UNICON.UZ” DUK bilan tuzilgan shartnoma asosida beriladi.

4.6 E-xat tizimida “UNICON.UZ” DUKning kriptografik himoyalashga asoslangan dasturiy ta’minotidan foydalaniladi. Ushbu kalitlar O‘zMSt 285:2024 va O‘zMSt 286:2024 davlat standartiga muvofiq uzatiladigan ma’lumotni kriptografik shifrlashni ta’minlaydi. AKHV himoyalangan USB tashuvchiga o‘rnatiladi, bu ERI shakllanishi va tekshirilishini, shuningdek, tizim foydalanuvchilari ish stansiyasiga ulanganda shifrlashni ta’minlaydi.

4.7 Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘i tomonidan AKHVdan Universitet veb-resurslariga ulanishlarda HTTPS va SSL/TLS protokollaridan foydalangan holda doimiy ravishda himoyalangan ulanishlar tashkil etildi.

4.8 Axborot xavfsizligi administratori tomonidan AKHVdan Universitet rasmiy veb-saytigan ulanishda https va SSL/TLS protokollaridan foydalangan holda himoyalangan ulanishlarida tashkil etilgan.

Rasmiy veb-saytni autentifikatsiya qilish uchun ishonchli markaz tomonidan Universitetga berilgan TLS sertifikati va bunda SHA-256 va Curve-25519 kriptografik algoritmlaridan foydalanilgan.

Rasmiy veb-saytga ulanish AES-256 kriptografik shifrlash algoritmidan foydalangan holda TLS 1.2 protokoli yordamida himoyalangan.

4.9 SSL sertifikatlarining o‘z vaqtida yangilanishi ustidan nazorat Universitet rahbariyati tomonidan amalga oshiriladi. Shu maqsadda Axborot xavfsizligi administratori ushbu Yo‘riqnomaning 2-ilovasiga muvofiq shaklda SSL sertifikatlarini yangilash jurnalini yuritadi.

5. Axborotni kriptografik himoya vositalarini qo‘llash

5.1 Universitetda Lokal tarmoq administratori hamda Departament xodimlari tomonidan E-xat tizimining mijoz dasturlari xodimlarining ish stansiyalariga o‘rnatiladi va sozlanadi.

Shuningdek, Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘i Universitetda E-xat tizimida ishlash uchun xodimlarning ERI kalitlardan foydalanishi ustidan nazoratni ta’minlaydi.

5.2 Universitetda qo‘llaniladigan AKHVlar belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasida sertifikatlangan bo‘lishi kerak.

6. AKHVdan foydalanishda xodimlarning majburiyatlari

6.1 E-xat tizimida ERI kalitlar bilan ishlaydigan foydalanuvchilar quyidagilarga majbur:

- ERI kalitlarning xavfsizligini ta’minlash va ulardan foydalanilmasa, himoyalangan joylarda (seyflarda) saqlash;
- foydalanuvchi yo‘qligida yoki Edo.ijro.uz va E-xat tizimlarida ishlamayotganda ERI kalitlarni ish joyida qarovsiz qoldirmaslik;
- Universitetda Lokal tarmoq administratori hamda Departament xodimlarini ERI kalitning yo‘qolishi yoki o‘g‘irlanishi, ERI kalitning buzilishi, ERI kalit tashuvchisining shikastlanishi, tizimlarga kirishdagi muammolar to‘g‘risida xabardor qilish;
- ishdan bo‘shash yoki AKHV va ERI bilan bog‘liq vazifalarni bajarishdan ozod qilish paytida ERI kalit saqlash vositasini topshirish;
- berilgan ERI kalitlarni saqlash vositasidan boshqa maqsadlarda ishlatmaslik.

6.2 Ishdan chiqqan ERI kalitlar yoki ularning saqlash vositalari Axborot xavfsizligi administratoriga hamda Departament boshlig‘iga belgilangan tartibda almashtirish uchun qaytariladi.

6.3 Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘i Universitet xodimlariga Edo.ijro.uz va E-xat tizimlarida ishlash uchun berilgan ERI kalitlarning hisobga olinishini ta’minlashi shart.

7. Javobgarlik

7.1 Lokal tarmoq administratori hamda Departament xodimlari ushbu Yo‘riqnomaga muvofiq axborotni kriptografik himoya qilish choralarini amalga oshirish uchun javobgardir.

7.2 ERI kalitlar bilan ishlaydigan Universitetning barcha xodimlari ushbu Yo‘riqnomani buzganliklari uchun shaxsan javobgar bo‘ladilar.

7.3 Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘i ushbu Yo‘riqnoma talablarining Lokal tarmoq administratori hamda Departament xodimlari, shuningdek, Universitetning boshqa barcha xodimlari tomonidan bajarilishini nazorat qilishni ta’minlash uchun javobgardir.

7.4 Ushbu Yo‘riqnomada belgilangan talablarning buzilishi Universitetning ichki mehnat qoidalari va O‘zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligiga muvofiq intizomiy javobgarlikka tortilishga olib keladi.

Universitet axborot xavfsizligi
siyosatiga 17-ilova

Himoyalangan ma’lumotlarga ishlov berish TARTIBI

1. Umumiy qoidalar

1.1 Ushbu Tartib O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 16-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi axborotlashtirish obyektlarida konfidensial axborot xavfsizligini tashkil etish va ta’minlash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 295-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari – Davlat sirlarini saqlash bo‘yicha idoralararo komissiya raisi tomonidan 2006-yil 5-dekabrda tasdiqlangan — tarqatilishi cheklangan ma’lumotlarga ega hujjatlar, fayllar va nashrlarni ro‘yxatga olish, ishlov berish va saqlash tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga asosan ishlab chiqilgan.

2. Himoyalanadigan ma’lumotlar ro‘yxati

2.1 Quyidagilar himoya qilinadi va tarqatilmaydi:

- Universitetning konfidensial ma’lumotlari ro‘yxatiga kiritilgan, hujjatlashtirilgan axborotlar;
- axborot resurslarida saqlanadigan konfidensiallik darajasiga ega bo‘lgan axborot resurslari Siyosatning 14-ilovasida ko‘rsatilgan “Axborot aktivlarini boshqarish tartibi”ga muvofiq tegishli ma’lumotlar;
- tarqatilishi cheklangan konfidensial bo‘lmagan ma’lumotlarga ega bo‘lgan hujjatlar, fayllar va nashrlar.

2.2 Konfidensial ma’lumotlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 8-iyuldagi PQ-1572-son Farmonini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 296-son qaroriga 2-ilovada belgilangan ma’lumotlarni shu jumladan, tijorat sirini tashkil etuvchi ma’lumotlar va shaxsga doir ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

2.3 Universitetning konfidensial ma’lumotlari ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 16-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida axborotlashtirish obyektlarida konfidensial ma’lumotlarni tashkil etish va xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 295-son qarorida belgilangan tartibda tuzilishi kerak.

2.4 Universitetda konfidensial ma’lumotlar ro‘yxati maxsus ishchi guruh tomonidan shakllantiriladi. Ishchi guruh tomonidan konfidensial ma’lumotlar ro‘yxatini qayta ko‘rib chiqish uch yilda kamida bir marta amalga oshiriladi.

2.5 Konfidensial ma’lumotlarga murojaat qilishda ishchi guruh qonunchilik talablari va iqtisodiy maqsadga muvofiqligini hisobga olishi, shuningdek, ma’lumotlardan foydalanishdagi cheklovlar Universitet faoliyatiga sezilarli darajada xalaqit berishi mumkinligini hisobga olish kerak.

2.6 Universitetda konfidensial ma’lumotlarni tashkil etuvchi ma’lumotlar ro‘yxati, shuningdek, ushbu ro‘yxatga kiritilgan o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar Rektor buyrug‘i bilan kuchga kiradi va ularga tegishli konfidensial ma’lumotlarni qayta ishlashga qabul qilingan Universitet xodimlariga Universitetning axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha mas’ul xodimi (keyingi o‘rinlarda – Axborot xavfsizligi administratori) hamda Raqamli ta’lim texnologiyalari departamenti (keyingi o‘rinlarda – Departament) boshlig‘i tomonidan yetkaziladi.

Universitetdagi konfidensial ma’lumotlar ro‘yxatini shakllantirishda Vazirlikning konfidensial ma’lumotlar ro‘yxatidan kelib chiqilishi inobatga olinadi.

2.7 Tarqatilishi cheklangan konfidensial bo‘lmagan ma’lumotni o‘z ichiga olgan hujjatlar, fayllar va nashrlar O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari – Davlat sirlarini saqlash bo‘yicha idoralararo komissiya raisi tomonidan 2006-yil 5-dekabrda tasdiqlangan — tarqatilishi cheklangan ma’lumotlarga ega bo‘lgan hujjatlar, fayllar va nashrlarni hisobga olish, ishlov berish va saqlash tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga muvofiq belgilanadi.

Tarqatilishi cheklangan ma’lumotlarga O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan e’lon qilinishi taqiqlangan ma’lumotlarning ro‘yxati, Universitet, vazirliklar va boshqa idoralarning ochiq matbuotda, radio va televizion ko‘rsatuvlarda e’lon qilinishi taqiqlangan ma’lumotlar ro‘yxati, shuningdek, oshkor qilinmagan ma’lumotlar, ochiq e’lon qilinishi O‘zbekiston Respublikasiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan boshqa ma’lumotlar kiradi.

3. Himoyalanadigan ma’lumot bilan ishlashga qo‘yiladigan talablar

3.1 Universitetda konfidensial ma’lumotlar ro‘yxatini shakllantirish, yuritish va o‘z xodimlariga yetkazish ustidan nazorat Universitetning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘yicha mas’ul rahbari (keyingi o‘rinlarda – Mas’ul rahbar) tomonidan amalga oshiriladi.

3.2 Universitetning konfidensial ma’lumotlarini, shu jumladan axborot resurslarida himoya qilish bo‘yicha ishlarni tashkil etish va amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 16-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida axborotlashtirish obyektlarida konfidensial ma’lumotlarni tashkil etish va xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 295-son qarori talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

3.3 Universitetda konfidensial ma’lumotlar ro‘yxatiga kiritilgan konfidensial ma’lumotlarni tarqatmaslik ustidan nazoratni Axborot xavfsizligi administratori Departament boshlig‘i bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

3.4 Universitetning axborot tizimlari va resurslarining konfidensiallik darajasi Siyosatning 14-ilovasida keltirilgan “Axborot aktivlarini boshqarish tartibi”ga muvofiq belgilanadi.

3.5 Universitetda konfidensial xarakterdagi ishlar olib boriladigan muhofaza qilinadigan binolarning ro‘yxati hujjatlashtirilishi va himoyalangan binolar to‘g‘risidagi ma’lumotlar axborotlashtirish obyekti pasportiga kiritilishi Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘ining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lishi lozim.

3.6 Konfidensial ma’lumotlar qayta ishlanadigan axborotlashtirish obyektlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 8-iyuldagi “Milliy axborot resurslarini himoya qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-1572-son qaroriga muvofiq attestatsiyalanadi.

3.7 Matnli va grafik konfidensial ma’lumotlarni ko‘rishni istisno qilish maqsadida binolar tegishli vositalar bilan jihozlanishi kerak.

3.8 Konfidensial xarakterdagi muzokaralarni olib borishda va konfidensial ma’lumotlarni qayta ishlash uchun texnik vositalardan foydalanishda axborot xavfsizligiga tahdid manbalarini zararsizlantirish choralari ko‘riladi.

3.9 Axborot tizimining ishlashi davomida konfidensial ma’lumotlarning himoyasini ta’minlash uchun quyidagi asosiy talablarga rioya qilish kerak:

- axborot tizimida ishlaydigan shaxslarning (foydalanuvchi, xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar) himoyalangan ma’lumotlariga kirish kirish uchun avtorizatsiya tizimida belgilangan tartibda amalga oshirilishi kerak;
- muhofaza qilinadigan axborotni qayta ishlash obyektlari joylashgan binoda faqat qayta ishlangan ma’lumotlarga ruxsat berilgan shaxslar bo‘lishi mumkin;
- boshqa profilaktika va ta’mirlash ishlarini olib borish uchun muhofaza qilinadigan Universitet binolariga boshqa shaxslarni qabul qilish faqat Mas’ul rahbarning ruxsati bilan amalga oshirilishi lozim.

3.10 Konfidensial ma’lumotlarga ega bo‘lgan axborot tizimida axborotni qayta ishlashning texnologik jarayonida ishlatiladigan barcha axborot tashuvchilar axborot tizimiga egalik qiladigan birlikda hisobga olinishi kerak.

Vaqtincha foydalanilmaydigan axborot tashuvchi vositalarini ruxsatsiz shaxslar kira oladigan joylarda saqlashga yo‘l qo‘yilmaydi.

3.11 Konfidensial ma’lumotlarni faqat boshqariladigan hudud ichida joylashgan ajratilgan lokal tarmoqlarda ishlash mumkin. Axborotlashtirish obyektlari masofaviy bo‘lganda, O‘zbekiston Respublikasida sertifikatlangan kriptografik ma’lumotlarni himoya qilish vositalaridan foydalanish kerak.

3.12 Axborot resurslarida mavjud bo‘lgan konfidensiallik darajasidagi ma’lumotlarni himoya qilish va tarqatmaslik uchun javobgarlik ularning egalari, Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘iga yuklatiladi. Universitetning axborot resurslarida mavjud bo‘lgan konfidensial ma’lumotlarni himoya qilish va tarqatmaslik ustidan nazorat Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘i tomonidan amalga oshiriladi.

3.13 Ushbu Tartibning 2.7-bandida ko‘rsatilgan tarqatilishi cheklangan konfidensial bo‘lmagan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan hujjatlar, fayllar va nashrlarda “XDFU” belgisi, hujjat va nashrlarda qo‘shimcha ravishda nusxalari soni qo‘yiladi.

3.14 “XDFU” belgisini qo‘yish zarurligini aniqlash ushbu Tartibning 2.7-bandiga ko‘ra shakllantirilgan ro‘yxatlar asosida amalga oshiriladi: hujjat bo‘yicha — ijrochi va hujjatni imzolagan shaxs, nashrda esa — muallif va nashrni nashrga tasdiqlovchi rahbar.

3.15 Tarqatilishi cheklangan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan hujjatlar, fayllar va nashrlar boshqa jurnallardan alohida jurnallarda ro‘yxatga olinishi kerak, unda nusxalar soni, hujjat varaqlari soni va hujjatga qo‘shimchalar ko‘rsatilishi kerak.

3.16 Qog‘ozda tarqatilishi cheklangan ma’lumotlar bo‘lgan hujjatlarni ularning ijrochilariga va ijrochilar o‘rtasida o‘tkazish ro‘yxatga olish va nazorat shakllarida imzolangan holda amalga oshiriladi.

3.17 Tarqatilishi cheklangan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan hujjatlar:

- belgilangan tartibda qonun hujjatlari talablariga muvofiq ta’minlangan, aloqa kanallari, kuryerlik aloqalari yoki kuryerlik uzatish xizmatlari orqali yuboriladi. Cheklangan tarqatish, kuryerlik xizmati yoki kuryer transferi to‘g‘risidagi rasmiy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan hujjatlar yuborilgan taqdirda, qalin qog‘ozdan qilingan konvertlar (paketlar) ishlatiladi. Bunday hujjatlarni yuborishda boshqaruv obyektlarining mas’ul ish yuritish bo‘limlari va tarkibiy bo‘linmalarning xodimlari ularni qog‘ozga oldindan o‘rab, keyin konvertlarga soladilar. Konvertning yuqori qismiga muhrning izi qo‘yiladi;
- seyflarda, qulflanadigan shkaflarda, javonlarda yoki stol tortmasida saqlanadi, bunda uchinchi shaxslarning hujjatlarga kirish huquqi bundan mustasno.

3.18 Takrorlangan hujjatlarni ro‘yxatga olish birma-bir amalga oshiriladi.

Tarqatilishi cheklangan hujjatlarning elektron nusxalari boshqa axborot tashuvchi vositalarga faqat Mas’ul rahbarning yozma ruxsati bilan o‘tkazilishi mumkin. Bunday holda, hujjatning elektron matnida “Xizmat doirasida foydalanish uchun” cheklovchi muhri va nusxasi raqami qo‘yiladi.

3.19 Tarqatilishi cheklangan ma’lumotlar bo‘lgan hujjatlar, fayllar va nashrlarni hisobga olish, takrorlash, saqlash, foydalanish, saqlash va yo‘q qilish uchun tanlash Universitet xodimlari tomonidan 2006-yil 5-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari – Davlat sirlarini saqlash bo‘yicha idoralararo komissiya raisi tomonidan tasdiqlangan, tarqatilishi cheklangan ma’lumotlarga ega bo‘lgan hujjatlar, fayllar va nashrlarni ro‘yxatga olish, ishlov berish va saqlash tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

3.20 “XDFU” belgisi bo‘lgan hujjatlar, fayllar va nashrlar bilan ishlovchi xodimlar ushbu Tartib va 2006-yil 5-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari – Davlat sirlarini saqlash bo‘yicha idoralararo komissiya raisi tomonidan tasdiqlangan — tarqatilishi cheklangan ma’lumotlarga ega bo‘lgan hujjatlar, fayllar va nashrlarni ro‘yxatga olish, ishlov berish va saqlash tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma bilan tanishishlari kerak.

3.21 Universitetning tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari va tegishli mansabdor shaxslar hujjatlar, fayllar va nashrlarning “XDFU” belgisi bo‘lgan ma’lumotlarning to‘g‘ri saqlanishini, nusxalanishi va ishlatilishini, hujjatlar, fayllar va nashrlarni yozib olish, ishlov berish va saqlash tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaning talablariga, shuningdek, 2006-yil 5-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari – Davlat sirlarini saqlash bo‘yicha idoralararo komissiya raisi tomonidan tasdiqlangan — tarqatilishi cheklangan ma’lumotlarga ega bo‘lgan hujjatlar, fayllar va nashrlarni ro‘yxatga olish, ishlov berish va saqlash tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma talablariga, rioya etilishi uchun javobgar.

4. Javobgarlik

4.1 Ushbu Tartib talablarining bajarilishi uchun javobgarlik Universitetning tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari va tegishli mansabdor shaxslar zimmasiga yuklanadi.

4.2 Universitetning axborot resurslarida mavjud bo‘lgan konfidensial ma’lumotlarni himoya qilish va tarqatmaslik yuzasidan tegishli choralarni ko‘rish bo‘yicha javobgarlik ularning egalari, Lokal tarmoq administratori hamda Departament xodimlari zimmasiga yuklanadi.

4.3 Universitetda Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘i ushbu Tartibning xodimlar tomonidan bajarilishini nazorat qilishni ta’minlash uchun javobgardir.

4.4 Ushbu Tartibda belgilangan talablarning buzilishi Universitetning ichki mehnat qoidalari va O‘zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligiga muvofiq intizomiy javobgarlikka tortilishga olib keladi.

Universitet axborot xavfsizligi
siyosatiga 18-ilova

Favqulodda vaziyatlarda ish faoliyatini tiklashni va uzluksiz ishlashni ta’minlash REJASI

1. Umumiy qoidalar

1.1 Ushbu Reja Universitetda axborotni qayta ishlash, uzatish, saqlashga mo‘ljallangan axborot resurslarini va axborotni himoya qilish texnik vositalarning uzluksiz ishlashini va ish qobiliyatini tiklashni ta’minlashga mo‘ljallangan.

1.2 Universitet axborot resurslarining uzluksiz ishlashini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarga quyidagilar kiradi:

- rejalashtirilgan profilaktika va ta’mirlash ishlari;
- zaxira apparat vositasi;
- dasturlar va ma’lumotlarning zaxira nusxasini yaratish;
- uzluksiz aloqani va elektr ta’minotini ta’minlash;
- server va telekommunikatsiya qurilmalarining normal ishlashi uchun sharoit yaratish.

1.3 Universitetning axborot tizimlari va resurslari faoliyatini tiklash bo‘yicha chora-tadbirlarga quyidagilar kiradi:

- aloqa kanallari va zaxira qurilmalarini faollashtirish;
- dasturlarni va ma’lumotlarni zaxira nusxalaridan tiklash;
- qurilmani ta’mirlash yoki almashtirish;
- dasturiy ta’minotni qayta o‘rnatish.

2. Uzluksiz ishlashni ta’minlash choralari

2.1 Rejalashtirilgan profilaktik ishlar tarmoq serverlari, axborot tizimlari serverlari, tarmoq kommutatsiya uskunalari, ma’lumotni himoya qilish asosiy vositalarning to‘g‘ri ishlashini baholash uchun amalga oshiriladi.

2.2 Rejalashtirilgan profilaktik ishlarni Universitetning Raqamli ta’lim texnologiyalari departamenti Tarmoqlarni boshqarish va texnik qo‘llab-quvvatlash sektori bosh mutaxassisi (keyingi o‘rinlarda – Lokal tarmoq administratori) hamda Raqamli ta’lim texnologiyalari departamenti (keyingi o‘rinlarda – Departament) xodimlari olib boradilar. Ularning vazifalariga 2.1-bandda ko‘rsatilgan texnik vositalarni saqlash kiradi.

2.3 Rejalashtirilgan profilaktik ishlar oyiga bir marta quyidagi texnik vositalarga nisbatan o‘tkazilishi kerak:

- lokal tarmoqning telekommunikatsiya qurilmalari;
- axborot resurslarining, shu jumladan ularga o‘rnatilgan operatsion tizimlarning MBBT va amaliy dasturlarning server qurilmalari;
- ma’lumotlarni saqlash tizimi;
- axborotni himoyalash tizimi.

2.4 Rejalashtirilgan profilaktik ishlar texnik jihozlarga texnik xizmat koʻrsatish qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

2.5 Profilaktik ishlarga quyidagilar kiradi:

- sozlamalarning yaxlitligini tekshirish;
- tizim fayllarini tahlil qilish;
- MBBT nazorati;
- yuzaga kelgan xatolarni va ishchi holatini tahlil qilish;
- texnik vositalarning asosiy elementlarining ishlashini tekshirish;
- diagnostika vositalari yordamida diagnostika qilish.

2.6 Taʼmirlash ishlari Lokal tarmoq administratori hamda Departament xodimlari tomonidan texnik jihozlarning ishlamay qolgan elementlarining ishlashini tiklash yoki nosozliklar yuz berganda amalga oshiriladi.

2.7 Profilaktik va taʼmirlash ishlarini olib borishda ish stansiyalari va serverlarini ochish va muhrlash, profilaktika ishlarini bajarish, dasturlarni oʻrnatish va oʻzgartirish toʻgʻrisidagi maʼlumotlar ushbu Rejaning 2-ilovasiga muvofiq “Ish stansiyalari va serverlarni ochish va muhrlash, profilaktika ishlarini bajarish, dasturlarni oʻrnatish va oʻzgartirishlarni qayd etish jurnali”da qayd etiladi.

2.8 Universitetda Lokal tarmoq administratori hamda Departament xodimlari oʻzlari nazorat qiladigan apparatning ishlashini taʼminlash uchun javobgardirlar.

2.9 Universitet axborot resursining serverlari Lokal tarmoq administratori hamda Departament xodimlari tomonidan zaxiralanadi.

2.10 Axborot resurslarining dasturiy taʼminotini va maʼlumotlarini zaxiralash Siyosatning 7-ilovasi “Tizim va amaliy dasturlarni yangilash, shuningdek, maʼlumotlarning zaxira nusxalarini shakllantirish va tiklash boʻyicha Nizom”ga muvofiq amalga oshiriladi.

3. Avariya holatidagi tiklash choralari

3.1 Axborot resurslarining ishlashini tiklash avariya holatini tiklash rejasiga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Universitetning har bir axborot resursi uchun avariyani tiklash boʻyicha batafsil reja tuzilishi kerak (1-ilova).

Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshligʻi tomonidan chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va tasdiqlash uchun Universitetning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boʻyicha masʼul rahbari (keyingi oʻrinlarda – Masʼul rahbar)ga kiritiladi. Chora-tadbirlar unda belgilangan masʼullar tomonidan amalga oshiriladi.

3.2 Avariya holatlari va favqulodda vaziyatlar yuz berganda Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshligʻi Masʼul rahbarga darhol xabar berishlari shart.

3.3 Axborot xavfsizligi administratori avariya holatida yoki favqulodda vaziyatda mazkur Rejaning 3-ilovasiga muvofiq “Favqulodda (avariyaviy) vaziyatlarni hisobga olish jurnali”da qayd etishi kerak.

4. Favqulodda vaziyatlar yuzasidan choralar

4.1 Tabiiy va texnogen hodisalar natijasida yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlarda Universitet axborot tizimlarining doimiy ishlashini ta’minlash uchun datamarkazining zaxira resurslaridan foydalanish, shuningdek, zaxira nusxalarni boshqa-boshqa binolarda (joylarda) xavfsizlik choralarini ko‘rgan holda joylashtirish hamda saqlash Axborot xavfsizligi administratori va Departament boshlig‘ining ustuvor vazifalaridan biridir.

Favqulodda vaziyatlarda ish faoliyatini
tiklashni va uzluksiz ishlashni ta’minlash
Rejasiga 1-ilova

Ishchi holatini tiklash avariyaviy
REJASI

Avariya yoki nosozlik nomi	Harakatlar bosqichlari	Bajarilish vaqti*	Mas’ullar
Elektr ta’minoti hamda aloqa tarmog‘ining uzilishi			
Elektr ta’minotining uzilishi (to‘liq yoki qisman)	1) Mas’ul rahbarga xabar berish; 2) UPS zaxira elektr ta’minotining yoqilishini va ishlashini tekshirish; 3) Asosiy serverlar va tarmoq qurilmalarining ishlashini tekshirish; 4) Uzoq vaqt davomida elektr uzilib qolganda akkumulyator batareyalarini yoki dizel generatorini ulash (dizel generatorining avtomatik ishlashi ta’minlanadi); 5) Sabablarni va kerakli tiklash vaqtini aniqlashtirish uchun tuman elektr tarmoqlari korxonasiga qo‘ng‘iroq qilish; 6) Asosiy elektr ta’minotini tiklash, zaxira quvvat manbalarini zaryadlash.	5-10 daqiqa 1-5 daqiqa 20 daqiqa 20 daqiqa Asosiy elektr ta’minoti tiklangandan keyingi 12 soat	Axborot xavfsizligi administratori, Departament boshlig‘i
Aloqa uzilishi	1) Mas’ul rahbarga xabar berish; 2) Aloqa kanallarini tekshirish (Uzonline) va tarmoq qurilmalari — marshrutizatorlar, kalitlar va proksi-serverlarning ishlashi, tarmoq kabelining holatini tekshirish (ishlamay qolish sabablarini aniqlash); 3) Zaxira tarmoq qurilmalari, zaxira aloqa kanalidan foydalangan holda aloqani tiklash yoki tarmoq kabelini almashtirish; 4) Tashqi aloqa yo‘qolgan taqdirda telekommunikatsiya operatori bilan aloqa qilish; 5) Ishlamay qolgan tarmoq qurilmalarini ta’mirlash yoki yangisini sotib olish, to‘liq aloqani tiklash.	5-10 daqiqa 10-20 daqiqa 10-20 daqiqa 5-10 daqiqa 2 sutka	Axborot xavfsizligi administratori, Lokal tarmoq administratori, Departament boshlig‘i va xodimlari
Axborot resurslari va serverlarning ishdan chiqishi			

Avariya yoki nosozlik nomi	Harakatlar bosqichlari	Bajarilish vaqti*	Mas’ullar
Ilova serveri va ma’lumotlar bazasi ishlamay qolishi (serverning jismoniy komponentining ishdan chiqishi — protsessor, OZU, materinka, tarmoq kartasi va boshqalar).	1) Mas’ul rahbarga xabar berish; 2) Zaxira serverining ishlashi va axborot xavfsizligini nazorat qilish; 3) Zaxira virtual serverini ishga tushirish; 4) Ishlamay qolgan serverning ishlamay qolish sabablarini aniqlash; 5) Ishlamay qolgan serverni ta’mirlash yoki ishlamay qolgan komponentni almashtirish; 6) Ishlamay qolgan serverni qayta tiklash; 7) Asosiy serverdagi ma’lumotlarni qayta tiklash (agar bitta saqlash tizimidan foydalanilmasa) va serverni ishga tushirish.	5-10 daqiqa 5-10 daqiqa 10-30 daqiqa 10-30 daqiqa 1 soatdan 2 sutkagacha 1 soatdan 2 sutkagacha	Axborot xavfsizligi administratori, Lokal tarmoq administratori, Departament boshlig‘i va xodimlari
Serverning birida tizim yoki dasturiy ta’minotning ishlamay qolishi	1) Mas’ul rahbarga xabar berish; 2) Zaxira serverining ishlashi va axborot xavfsizligini nazorat qilish; 3) Zaxira virtual serverini ishga tushirish; 4) Ishlamay qolgan serverning ishlamay qolish sabablarini aniqlash; 5) Obraz yordamida tizim dasturini tiklash yoki ishlamay qolgan serverda dastur dasturini qayta tiklash; 6) Ishlamay qolgan serverni qayta tiklash; 7) Asosiy serverdagi ma’lumotlarni qayta tiklash (agar bitta saqlash tizimidan foydalanilmasa) va serverni ishga tushirish.	5-10 daqiqa 5-10 daqiqa 10-30 daqiqa 10-30 daqiqa 1 soatdan 2 sutkagacha 1 soatdan 1 sutkagacha	Axborot xavfsizligi administratori, Lokal tarmoq administratori, Departament boshlig‘i va xodimlari
Veb-resurslar ishlashidagi uzilishlar			
Elektr ta’minotini o‘chirish (to‘liq yoki qisman) (asosiy va zaxira), Aloqa buzilishi, Serverning ishdan chiqishi, Tizim dasturining noto‘g‘ri ishlashi	1) Mas’ul rahbarga xabar berish; 2) Sabablarini bilib, xizmat ko‘rsatuvchi provayderning mas’ul shaxs bilan bog‘lanish; 3) Rasmiy veb-saytning ishlashini, ma’lumotlarning to‘liqligini va tiklanishini tekshirish.	5-10 daqiqa 5-10 daqiqa Qayta tiklangandan so‘ng	Axborot xavfsizligi administratori, Lokal tarmoq administratori, Departament boshlig‘i va xodimlari
Dasturiy ta’minot (veb-dastur) ishdan chiqishi	1) Mas’ul rahbarga xabar berish; 2) Veb-serverga masofadan ulanish, xizmat ko‘rsatuvchi provayderdagi mas’ul shaxs bilan muloqot qilish va ishlamaslik sabablarini aniqlash;	5-10 daqiqa 10-20 daqiqa	Axborot xavfsizligi administratori,

Avariya yoki nosozlik nomi	Harakatlar bosqichlari	Bajarilish vaqti*	Mas’ullar
	3) Dasturni va serverdagi ma’lumotlarni qayta o‘rnatish orqali ishlarni tiklash.	1 soatdan 3 soatgacha	Lokal tarmoq administratori, Departament boshlig‘i va xodimlari
Axborot xavfsizligi insidentlari	1) Mas’ul rahbarga xabar berish; 2) Sabablarini aniqlash uchun xizmat ko‘rsatuvchi provayderning mas’ul shaxs bilan bog‘lanish; 3) Sabablarini aniqlash va zarur hollarda Hamkorlik reglamenti asosida harakatlarni amalga oshirish; 4) Insident oqibatlarini bartaraf etish va insident takrorlanmasligi yuzasidan tegishli ishlarni amalga oshirish.	5-10 daqiqa 5-10 daqiqa 15-30 daqiqa Qayta tiklangandan so‘ng	Axborot xavfsizligi administratori, Departament boshlig‘i
Tabiiy va texnogen hodisalar oqibatida yuzaga kelgan avariyalar	Tabiiy va texnogen hodisalar oqibatida yuzaga kelganda Universitetning 2024-yil 15-fevraldagi 93-son buyruq asosida harakat qilinadi.	Hodisa yuzaga kelgan vaqtdan boshlab	Universitetning barcha xodimlari

Izoh:

1) “Bajarilish vaqti” ustunida avariya sodir bo‘lgan va aniqlangan vaqtdan boshlab vaqt ko‘rsatiladi;

2) Yangi ishlab chiqilgan axborot tizimlari uchun qo‘shimcha Ishchi holatini tiklash avariyaviy rejasi ishlab chiqiladi va ushbu Favqulodda vaziyatlarda ish faoliyatini tiklashni va uzluksiz ishlashni ta’minlash rejasiga kiritiladi.

Mas’ul rahbar *— Universitetning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘yicha mas’ul rahbari;*
Axborot xavfsizligi administratori *— Universitetning axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha mas’ul xodimi;*
Lokal tarmoq administratori *— Universitetning Tarmoqlarni boshqarish va texnik qo‘llab-quvvatlash sektori bosh mutaxassisi;*
Departament *— Universitetning Raqamli ta’lim texnologiyalari departamenti*

Favqulodda vaziyatlarda ish faoliyatini
tiklashni va uzluksiz ishlashni ta’minlash
Rejasiga 2-ilova

Ish stansiyalari va serverlarni ochish va muhrlash, profilaktika ishlarini bajarish, dasturlarni o‘rnatish va o‘zgartirishlarni qayd etish
JURNALI

T/r	Sana	Hodisa	Javobgar imzosi
1.			
2.			
3.			
4.			
5.			

Favqulodda vaziyatlarda ish faoliyatini tiklashni va uzluksiz ishlashni ta’minlash Rejasiga 3-ilova

Favqulodda (avariyaviy) vaziyatlarni hisobga olish JURNALI

T/r	Favqulodda (avariyaviy) vaziyat yuzaga kelgan sana va vaqt	Favqulodda (avariyaviy) vaziyat turi	Favqulodda (avariyaviy) vaziyat yuzaga kelgan joy	Jalb qilingan kuchlar va vositalar	Tugatish sanasi va vaqti
1.					
2.					
3.					
4.					
5.					

Universitet axborot xavfsizligi
siyosatiga 19-ilova

Hodisalar va favqulodda vaziyatlarni boshqarish, shuningdek, uchinchi tomon tashkilotlari bilan o‘zaro aloqalar bo‘yicha REGLAMENT

1. Umumiy qoidalar

1.1 Ushbu Reglament Universitetda axborot xavfsizligi bilan bog‘liq hodisalarni, shu jumladan favqulodda vaziyatlarni qayta ishlash tartibini, shuningdek, ushbu hodisalar yuz bergan taqdirda uchinchi tomon tashkilotlari bilan o‘zaro aloqalar tartibini belgilaydi.

2. Hodisalar va favqulodda vaziyatlarni ko‘rib chiqish tartibi

2.1 Siyosatning 12-bo‘limida keltirilgan baxtsiz hodisa, favqulodda vaziyat yuzaga kelgan taqdirda, xodimlar Universitetning axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha mas’ul xodimi (keyingi o‘rinlarda – Axborot xavfsizligi administratori)ga hamda Raqamli ta’lim texnologiyalari departamenti (keyingi o‘rinlarda – Departament) boshlig‘iga hodisalar yuzasidan tezkorlikda xabar berishlari kerak.

2.2 Axborot xavfsizligi hodisasi, avariya yoki favqulodda vaziyat aniqlagandan so‘ng, xodimlar tegishliligi bo‘yicha Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘iga hodisa yuzaga kelish vaqti, tahdidlarning sabablari va manbalari, to‘g‘risida to‘liq ma’lumot berishlari lozim.

2.3 Favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda Axborot xavfsizligi administratori va Departament boshlig‘i quyidagilarni bajarishlari lozim:

- hodisaning kelib chiqishi sabablarini bilish (hodisa sodir bo‘lgan vaqti, tahdid xarakteri, oqibatlari va h.k.)
- hodisalar to‘g‘risida Universitetning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘yicha mas’ul rahbari (keyingi o‘rinlarda – Mas’ul rahbar)ga ma’lumot berish;
- hodisalar holati yuzasidan ma’lumotlarni ushbu Siyosatning 20-ilovaga muvofiq “Axborot xavfsizligi hodisalarini qayd etish jurnali”ga qayt etish.

Axborot xavfsizligi administratori Siyosatning 18-ilovasi “Favqulodda vaziyatlarda ish faoliyatini tiklashni va uzluksiz ishlashni ta’minlash rejasi”ga muvofiq favqulodda holat yuzaga kelganda qayd etish jurnaliga yozish kerak.

2.4 Axborot xavfsizligining muhim va salbiy oqibatlariga olib keladigan axborot xavfsizligi hodisalari yuz berganda, Mas’ul rahbarga tezkorlikda xabar berilishi shart.

2.5 Axborot xavfsizligining har qanday holati yuzasidan quyidagilar amalga oshirilishi kerak:

- xatarlarni lokalizatsiya qilish;
- hodisa oqibatlarini bartaraf etish.

2.6 Tahdidlarni va ularning oqibatlarini bartaraf etish Lokal tarmoq administratori hamda Departament xodimlari tomonidan amalga oshiriladi, shuningdek, zarurat

tug‘ilsa tegishli rahbariyat ruxsati bilan yordamchi mutaxassislari jalb qilinishi mumkin.

2.7 Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘i tomonidan Universitetda hodisalar likvidatsiya qilinadi.

2.8 Universitetda Axborot xavfsizligi administratori Departament boshlig‘i boshlig‘i bilan birgalikda hodisa asoratlarini yo‘qotish bo‘yicha monitoring olib boriladi va bu bo‘yicha tayyorlangan ma’lumotlar Mas’ul rahbarga taqdim etiladi.

2.9 Tahdidlar oldi olingandan so‘ng Lokal tarmoq administratori hamda Departament xodimlari hodisalar asorati yuzasidan ish olib boriladi.

2.10 Axborot xavfsizligi hodisalar asoratlarini oldini olish yuzasidan quyidagilarni bajarish lozim:

- hodisa yuzaga kelishi yuzasidan barcha ma’lumotlarni aniqlash va baholash;
- axborot xavfsizligi hodisasi sodir bo‘lgan aniq ma’lumotlarni saqlash va zaxiralash;
- ma’lumotlarni qayta tiklash uchun zaxira tizimidan foydalanish;
- zaxira vositasini ishga tushirish, ishlamay qolgan elementni ta’mirlash yoki to‘liq yangisiga almashtirish orqali elementning ishlashini tiklash.

Axborot xavfsizligi bilan bog‘liq hodisalarni bartaraf etish bo‘yicha ishlar Siyosatning 18-ilovasida keltirilgan “Favqulodda vaziyatlarda ish faoliyatini tiklashni va uzluksiz ishlashni ta’minlash rejasi”ga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

2.11 Axborot xavfsizligi hodisasi asoratlari bartaraf etilganligi yuzasidan olingan ma’lumot tahlilini amalga oshirish.

Tahlil qilishda quyidagilarni hisobga olish lozim:

- hodisalarni barcha oqibatlarini bartaraf etish;
- tiklangan muhofaza qilinadigan ma’lumotlarning to‘liqligi va to‘g‘riligi va foydalana olishligini tekshirish;
- axborot xavfsizligiga tahdidlari takrorlanishini oldini olish.

2.12 Axborot xavfsizligi hodisalarini likvidatsiya qilgandan so‘ng hodisalarni qayta tekshirish kerak.

Qayta tekshirish uchun Universitetning mas’ul bo‘linma xodimlaridan iborat ishchi guruh tuzadi.

Axborot xavfsizligi hodisalarining oxirgi xulosasi:

- hodisaning asl kelib chiqish sababini aniqlash;
- axborot xavfsizligi bilan bog‘liq hodisa yuz berishiga sababchi bo‘lgan buzuvchilar yoki javobgar shaxslarni aniqlash;
— ushbu hodisa takrorlanmaslik uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

2.13 Aniqlangan axborot xavfsizligi hodisasida aybdor bo‘lganlar mehnat qonunchiligiga, shuningdek, Respublikaning amaldagi ma’muriy va jinoiy qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

2.14 Axborot xavfsizligi hodisalari qayta ro‘y bermasligi uchun quyidagilar tavsiya qilinadi:

- kelgusida hodisalar takroran sodir bo‘lmasligi uchun qo‘shimcha choralar ishlab chiqish;
- axborot xavfsizligining me’yoriy-huquqiy, dasturiy-texnik va tashkiliy chora-tadbirlarga o‘zgartirish kiritish;

Yuqoridagi takliflar Universitet rahbariyati tomonidan tasdiqlangach ish faoliyatiga tatbiq etiladi.

3. Axborot xavfsizligi bilan bog‘liq hodisalar yuz berganda, uchinchi tomon tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik qilish tartibi

3.1 Axborot xavfsizligi bilan bog‘liq hodisa yoki favqulodda vaziyat sodir bo‘lganda, shuningdek, Siyosatning 12-bandida ko‘rsatilgan hodisalar yuz bergan taqdirda, Universitet Hamkorlik reglamentiga muvofiq “Kiberxavfsizlik markazi” DUK bilan o‘zaro hamkorlik qilishi lozim.

3.2 “Kiberxavfsizlik markazi” DUK bilan o‘zaro hamkorlik doirasida Axborot xavfsizligi administratori tomonidan quyidagilar amalga oshirishi lozim:

- hodisa aniqlanishi bilan 2 (ikki) soat ichida “Kiberxavfsizlik markazi” DUKga xabar berish;
- “Kiberxavfsizlik markazi” DUKga voqea to‘g‘risida xabar berilgandan so‘ng, ma’lumotlarining yaxlitligi va ishonchliligini saqlash choralari ko‘riladi;
- hodisani oldini olish bo‘yicha ko‘rilgan choralar to‘g‘risida “Kiberxavfsizlik markazi” DUKga xabar berish;
- “Kiberxavfsizlik markazi” DUKga yordam ko‘rsatish va voqeani tekshirishda ishtirok etish.

3.3 “Kiberxavfsizlik markazi” DUKdan xabarnoma olgandan so‘ng, bir kun ichida Axborot xavfsizligi administratori Departament boshlig‘i bilan birgalikda axborot xavfsizligi hodisasining oqibatlarini tezkor oldini olish, shuningdek, axborot xavfsizligi hodisasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash uchun tegishli choralarni ko‘radi.

3.4 Sodir bo‘lgan hodisalarning bartaraf etilganligi to‘g‘risida 3 (uch) ish kunida Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘i “Kiberxavfsizlik markazi” DUKga rasmiy tarzda ma’lumot taqdim etishlari kerak.

3.5 Universitet Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘i Universitetda hodisalarni tekshirish ishlarini tashkillashtiradi, o‘tkazadi va muvofiqlashtiradi.

3.6 Axborot xavfsizligi bilan bog‘liq hodisalarni tekshirishda “Kiberxavfsizlik markazi” DUK mutaxassislari jalb qilinishi mumkin, og‘ir oqibatlarga olib keladigan hodisalarni tekshirishda buzg‘unchilarni javobgarlikka tortish uchun o‘rnatilgan tartibda huquqni muhofaza qilish idoralari mutaxassislari jalb qilinadi.

3.7 Voqea yuzasidan maxsus tekshiruv o‘tkazish va ularga manfaatdor shaxslar va huquqni muhofaza qilish idoralarini jalb qilish to‘g‘risida qaror Universitet rahbariyati tomonidan qabul qilinadi.

3.8 Agar Mas’ul rahbar boshchiligida Universitetda aniqlangan axborot xavfsizligi hodisasini mustaqil tekshirish olib borilsa, u holda uning ish natijalari bo‘yicha hodisalarni aniqlash usullari va sharoitlarini unga tegishli bo‘lgan axborot resurslariga nisbatan tahlil natijalari to‘g‘risida hisobot “Kiberxavfsizlik markazi” DUKga taqdim etiladi, shuningdek, axborot xavfsizligi hodisasi oqibatlarini bartaraf etish va axborot resurslari ishiga ruxsatsiz aralashish faktlarini oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi hisobot bilan birga taqdim etiladi.

3.9 Taqdim etgan tekshiruv natijalari bo‘yicha “Kiberxavfsizlik markazi” DUK axborot xavfsizligi bilan bog‘liq hodisalarning takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqadi va rasmiy shaklda Universitetga taqdim etadi. Axborot xavfsizligi administratori hamda Departament boshlig‘i o‘z o‘rnida taklif va tavsiyalarni amalga oshirish rejasini tayyorlaydi va uning bajarilishini nazoratga oladi.

Universitet axborot xavfsizligi
siyosatiga 20-ilova

Axborot xavfsizligi hodisalarini qayd etish jurnali shakli

T/r	Hodisa sodir bo‘lgan vaqti va sanasi	Hodisa sodir bo‘lgan himoya obyekti nomi	Xavfni amalga oshirish turi va usuli	Hodisa oqibatlarining mohiyati	Qabul qilingan choralar	Javobgar shaxs imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						

Universitet axborot xavfsizligi
siyosatiga 21-ilova

Axborot xavfsizligi siyosati bilan tanishish jurnali shakli

T/r	F.I.Sh.	Bo‘linma (departament/bo‘lim/ markaz/fakultet)	Lavozim	Sana	Imzo
1.					
2.					
3.					
4.					
5.					

Videokuzatuv tizimidagi ma’lumotlarni taqdim etish to‘g‘risida NIZOM

1. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom Universitetga tegishli bo‘lgan videokuzatuv kameralariga yozib olingan videoarxivni keyinchalik aniq bir masalaga oydinlik kiritish maqsadida qayta ko‘rib chiqish hamda o‘rnatilgan ichki tartib asosida jismoniy va yuridik shaxslarga taqdim etish tartibini belgilaydi.

2. Atamalar va ta’riflar

Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Talabgor – O‘ziga tegishli bo‘lgan muammoli masalaga oydinlik kiritish maqsadida Universitet videokuzatuv tizimiga qayd etilgan videoarxivni ko‘rmoqchi bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxs

Videokuzatuv operatori – Universitet videokuzatuv tizimi kuzatib borish huquqi berilgan Universitetning Raqamli ta’lim texnologiyalari departamenti xodimi

Videokamera – Optoelektronik o‘zgartirish va televizion signalni uzatish yordamida uzatiladigan sahnani televizion tahlil qilish uchun mo‘ljallangan qurilma.

Videoarxiv – kuzatuv kamerasiga qayd etilgan va saqlashga olib qo‘yilgan fayl (videomaterial).

Videotahlil – Real vaqt rejimidagi videokameralardan yoki videoarxiv yozuvlaridan olingan tasvirlar ketma-ketligini tahlil qilish jarayoni.

3. Nizomning maqsadi

3.1 Universitet videokuzatuv tizimi Universitet hududida jamoat tartibiga rioya qilishga bo‘lgan kompleks yondashuvni ta’minlashi, fuqarolar ommaviy bo‘ladigan obyektlar va hududlarni turli tahdidlarga qarshi himoya bilan ta’minlashi, korrupsion, kriminal, terrorchilik, jinoiy va boshqa xarakterdagi tahdidlar ehtimolini kamaytirishi maqsadida joriy etilgan.

3.2 Ushbu Nizom talablari Universitet xodimlari, professor o‘qituvchilar, talabalar, shu bilan birga Universitet hududiga kirish huquqi bo‘lgan uchinchi tomon tashkilot xodimlari uchun qo‘llaniladi.

4. Ma’lumotlarni taqdim etish ishlarni tashkil etish

4.1 Universitetning xodimlari, professor o‘qituvchilar, talabalar, shu bilan birga Universitet hududiga kirish huquqi bo‘lgan uchinchi tomon tashkilot xodimlari Universitet videokuzatuv tizimiga qayd etilgan qanday turdagi videomateriallar

Universitetning mulki ekanligini tan oladi, unga kirish va tahlil qilish Universitet manfaatlariga javob berishi shart.

Ushbu ma’lumotlarga kirish va tahlil qilish Universitet rektori ruxsati bilan Raqamli ta’lim texnologiyalari departamenti tomonidan amalga oshiriladi.

4.2 Videoarxivni taqdim etish quyidagi shaxslar ishtirok etadi:

- Talabgor;
- Videokuzatuv operatori;
- Axborot xavfsizligi bo‘limi boshlig‘i.

4.3 Videoarxivni taqdim etish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- ushbu Nizomning 1-ilovasiga muvofiq shaklda ariza berish;
- arizani ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish;
- videoarxiv materiali ustida videotahlilni o‘tkazish;
- videotahlil natijalari bo‘yicha qaror qabul qilish;
- videoarxivni ro‘yxatdan o‘tkazish va taqdim etish.

4.4 videoarxivni tahlil qilish tartibi

4.5 Talabgor arizasini quyida keltirilgan hujjatlar va ma’lumotlarni ilova qilgan holda Videokuzatuv operatoriga taqdim etadi.

4.7 Videokuzatuv operatori arizani ko‘rib chiqadi va videotahlilni o‘tkazadi. Natijasi bo‘yicha 3 ish kuni mobaynida arizani qabul qilish to‘g‘risida qaror qabul qiladi yoki asoslantirilgan rad javobini yuboradi. Ushbu jarayonning sxemasi ushbu Nizomning 2-ilovasi “Qayd etilgan videoyozuvlarni (videoarxivni) taqdim etish sxemasi”da keltirilgan.

4.8 Arizani qabul qilishni rad etish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

- arizaning belgilangan talablarga nomuvofiqligi;
- arizada keltirilgan ma’lumotlar bo‘yicha videokuzatuv mavjud emasligi;
- hujjatlar va ma’lumotlarning to‘liq taqdim etilmaganligi;
- arizaga ilova qilingan hujjatlar va ma’lumotlarning soxtaligi (qalbakiligi) yoki noto‘g‘riligining aniqlanganligi;
- Videoarxiv bir shaxsni yoki jamoatchilikni huquqini poymol qilish yoki qasddan tarqatish uchun yoki birovni kamsitish maqsadida olinayotgan bo‘lsa;
- arizaning ushbu Nizom bilan belgilangan boshqa talablarga nomuvofiqligi.

4.9 Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga hamda boshqa yuridik shaxslarga videoarxivni taqdim etishda Universitet tomonidan komissiya tuziladi.

4.10 Komissiyaning tarkibi, a’zolarining huquq, majburiyatlari va javobgarligi Universitet rahbarining qarori bilan belgilanadi.

4.11 Komissiya ishining yakuni Talabgor yuridik shaxs arizasiga ko‘ra videoarxivni har tomonlama tahlil qilish va berish yoki bermaslik to‘g‘risida qaror qabul qilish hisoblanadi.

Videoarxivni taqdim etishga qaror qabul qilinganda komissiya a’zolari va Talabgor ushbu Nizom 3-ilovasida keltirilgan “Qayd etilgan videoyozuvlarni (videoarxivni) taqdim etish dalolatnomasi”ni imzolaydilar.

5. Javobgarlik

Raqamli ta’lim texnologiyalari departamenti boshlig‘i ushbu ushbu Nizom talablarining bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlashga mas’uldir.

Ushbu Nizomda belgilangan talablarining buzilishi O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortishga sabab bo‘ladi.

Universitet videokuzatuv tizimidagi
ma’lumotlarni taqdim etish to‘g‘risida
Nizomga 1-ilova

Buxoro davlat universiteti Raqamli ta’lim
texnologiyalari departamenti boshlig‘i
_____ga
_____
tomonidan

A R I Z A

Ushbuni yozib ma’lum qilamanki, men _____,
_____
(bo‘lgan holat va vaziyat haqida qisqacha tafsilot)
_____
_____
_____
_____
_____
_____
_____

Yuqoridagi holatga aniqlik kiritish, vaziyatni oydinlashtirish maqsadida menga mutasaddi xodimlar ishtirokida 2025-yilning “__” _____ sanasi soat ___-___ dan “__” _____ sanasi soat ___-___ gacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida _____
_____da o‘rnatilgan kuzatuv kamerasi videoyozuvlarini ko‘rib chiqishda amaliy yordam berishingizni so‘rayman.
Murojaat uchun telefon raqamim: _____

Talabgor _____ _____ _____
F.I.Sh. Imzo Sana

Buxoro davlat universiteti Raqamli ta’lim texnologiyalari departamenti MA’LUMOTNOMA

Ushbu murojaat bo‘yicha kuzatuv kameralari videoyozuvlari o‘rganib chiqildi. Holat bo‘yicha quyidagilar aniqlandi:
_____
_____
_____
_____
_____
_____

Videokuzatuv operatori _____ _____ _____
F.I.Sh. Imzo Sana

Universitet videokuzatuv tizimidagi
ma’lumotlarni taqdim etish to‘g‘risida
Nizomga 2-ilova

Qayd etilgan videoyozuvlarni (videoarxivni) taqdim etish SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
I. Murojaatlarni shakllantirish va yuborish			
1-bosqich	Talabgor	1. Belgilangan namunadagi arizani to‘ldirish. 2. Zarur hollarda boshqa hujjatlarni taqdim etish.	1. Xohishiga ko‘ra 2. Zarur hollarda
2-bosqich	Videokuzatuv operatori	1. Arizani ko‘rib chiqish 2. Inson hayoti, salomatligi shuningdek Universitet faoliyati bilan bog‘liq alohida kechiktirib bo‘lmaydigan hollarda arizani darhol ko‘rib chiqish	1. bir ish kuni mobaynida 2. Real vaqt rejimida
II. Arizani qayta ishlash tartibi			
3-bosqich	Videokuzatuv operatori	1. Talabgorning arizasini ko‘rib chiqish imkoniyati mavjudligini (arizada ko‘rsatilgan hududda videokuzatuv kamerasi arxivi mavjudligi, videoarxiv muddat oralig‘i to‘g‘ri ko‘rsatilganligi, videoarxiv mavjudligi, taqdim etishga mo‘ljallanganligi va boshqa jihatdan) o‘rganadi, videotahlilni amalga oshiradi. 2. Videoarxivni tayyorlash va taqdim etish uchun tayyorlaydi yoki Talabgor arizasini asosli rad etish to‘g‘risida Talabgor arizasidagi keltirilgan namunadagi ma’lumotnomani to‘ldiradi va arizani bekor qiladi.	1. uch ish kuni mobaynida 2. ikki ish kuni mobaynida
4-bosqich	Tomonlar	Videoarxivni taqdim etish Dalolatnomani imzolash.	Tomonlarni kelishuvi asosida bir ish kunida

Universitet videokuzatuv tizimidagi
ma’lumotlarni taqdim etish to‘g‘risida
Nizomga 3-ilova

Qayd etilgan videoyozuvlarni (videoarxivni) taqdim etish DALOLATNOMASI

Talabgorning JSHSHIR	
F.I.Sh.	
Manzili	
Telefon raqami, elektron manzili	

Biz quyida imzo chekuvchilar:
Talabgor ishtirokida qayd etilgan videoyozuvni (videoarxivni) Talabgorga quyida keltirilgan holatda taqdim etilganligini tasdiqlaymiz:

Video nomi	
Video formati	
Hosil qilingan vaqti	
Hajmi	
Davomiyligi	
XESH funksiya	

Videokuzatuv operatori_____ _____ _____
imzo F.I.SH Sana

AKT departamenti vakili _____ _____ _____
imzo F.I.SH Sana

Talabgor_____ _____
imzo F.I.SH Sana

Universitet videokuzatuv tizimidagi ma’lumotlarni taqdim etish to‘g‘risidagi NIZOM bilan tanishtirildim. Ushbu videoarxiv bilan bog‘liq yuzaga keladigan barcha holatlarga javobgarligim tushuntirildi.

Talabgor_____ _____ _____
imzo F.I.SH Sana

Universitet axborot xavfsizligi
siyosatiga 23-ilova

Axborot xavfsizligi riskini baholash natijalari

1. Universitetning axborot xavfsizligi xavfini aniqlash quyidagi bosqichlardan iborat:

1) risklarni aniqlash;

2) risk tahlili;

3) riskni baholash.

2. Axborot xavfsizligi risklarini aniqlash bosqichlari:

1) Universitetning axborot aktivlarini aniqlash va ularni baholash – Universitet uchun axborot aktivining qiymatini yoki ahamiyatini aniqlash;

2) axborot aktivlariga nisbatan axborot xavfsizligiga tahdidlarni aniqlash;

3) axborot aktivlarini axborot xavfsizligiga tahdidlardan himoya qilish tizimidagi zaifliklarni aniqlash — axborot aktivining xavfsizlik darajasini yoki axborot xavfsizligi tahdidini amalga oshirish imkoniyatini baholash uchun zaifliklarni aniqlash.

3. Axborot xavfsizligi risklarini aniqlash uchun Universitetga tegishli barcha axborot aktivlari ro‘yxati aniqlanadi.

4. Axborot aktivining qiymati Universitet faoliyatini buzish, moliyaviy yo‘qotishlar va Universitet obro‘siga putur yetkazish bilan bog‘liq mumkin bo‘lgan oqibatlarga (kutilayotgan zararga) qarab belgilanadi.

Axborot aktivining qiymati yoki ahamiyatini baholashda unga kiritilgan axborotning xavfsizlik toifasi (sinfi) ham hisobga olinadi.

5. Axborot aktivlarini identifikatsiya qilish va ularning qiymatini (ahamiyatini) aniqlash 1-jadvalga muvofiq keltirilgan.

Universitet o‘zining axborot aktivlariga nisbatan tahdidlarni aniqlash va axborot xavfsizligi risklarini miqdoriy baholashni amalga oshiradi, ularning qiymati Universitet o‘z vazifalarini bajarishi va faoliyatini amalga oshirish uchun ularning ahamiyati darajasidan kelib chiqqan holda belgilanadi va quyidagicha aniqlanadi:

past — 1-4

o‘rta — 5-7

yuqori — 8-10.

6. Har bir axborot aktiviga nisbatan axborot xavfsizligi tahdidlarini aniqlash bosqichida axborot aktiviga ham axborot, jarayonlar, apparat va dasturiy ta’minot, ham Universitetning o‘ziga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan potensial tahdidlar ro‘yxati aniqlanadi.

Universitetning axborot aktivlarining axborot xavfsizligiga tahdidlar ro‘yxati, ularning paydo bo‘lish ehtimoli qiymatini ko‘rsatuvchi tahdid darajasi ($_{Ptah}$) 2-jadvalda keltirilgan.

7. Zaifliklarni aniqlash bosqichida zaifliklarning mavjudligi va ulardan axborot aktiviga axborot xavfsizligi tahdidlariga ta’sir ko‘rsatish uchun foydalanish

imkoniyatlari baholanadi.

Zaifliklar deganda tahdidni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradigan yoki uni amalga oshirish uchun foydalaniladigan axborot aktivlarining axborot xavfsizligi tizimidagi xavfsizlikning zaif tomonlari tushuniladi.

8. Axborot xavfsizligiga tahdidlarni amalga oshirish uchun foydalanilishi mumkin bo‘lgan zaifliklar 3-jadvalda keltirilgan.

Zaifliklar Universitetda axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha tashkiliy-texnik chora-tadbirlarning amalga oshirilishi (muvofiqligi) darajasi bilan bog‘liq.

Har bir tashkiliy-texnik tadbirning bajarilishi quyidagicha baholanadi:

- 0 — chora bajarilmagan (himoya vositalari yo‘q, boshqarish tartib-taomillari aniqlanmagan yoki bajarilmagan, dasturiy ta’minotda zaiflik mavjud va h.k.);

- 0 dan 1 gacha — chora qisman amalga oshirilgan (himoya vositasi mavjud, ammo uning ma’lumotlar bazasi yangilanmagan yoki keraklicha sozlanmagan, boshqarish tartib-taomillari aniqlangan, ammo zarur davriylikda bajarilmagan, dasturiy ta’minot yangilangan, lekin zaiflik mavjudligi yuzasidan tekshirish o‘tkazilmagan va h.k.)

- 1 — chora hech qanday kamchiliklarsiz amalga oshirilgan.

Axborot aktivlariga nisbatan zaifliklarni baholash 4-jadvalda keltirilgan.

9. Har bir axborot aktivi uchun *Kzaif* zaifligini amalga oshirish (bartaraf qilish) koeffitsienti aniqlanadi. Ushbu koeffitsient zaifliklarni bartaraf etishga qaratilgan va 4-jadvalda ko‘rsatilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish darajasini belgilaydi. Ushbu chora-tadbirlar Universitetning Axborot xavfsizligi siyosatida belgilangan tashkiliy va texnik tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

10. Axborot xavfsizligiga tahdid xavfi quyidagi formula bo‘yicha baholanadi:

$$\mathrm{R} = \mathrm{Ptah} * \mathrm{C} * (\,1\, - \frac{\sum_n^i \mathrm{K}zaif}{\mathrm{n}})$$

Bu yerda:

R — agar ma’lum bir tahdid amalga oshirilgan bo‘lsa, axborot aktiviga (xavf darajasi) nisbatan salbiy oqibat riskining raqamli qiymati;

Ptah — axborot aktiviga nisbatan axborot xavfsizligiga tahdidning paydo bo‘lish (ro‘y bo‘lish) ehtimoli;

C – axborot aktivining qiymati (ahamiyati);

Kzaif – ma’lum bir tahdidga nisbatan zaifliklarni bajarish koeffitsienti;

n – ma’lum bir axborot xavfsizligi tahdidiga nisbatan zaifliklarning umumiy soni.

11. Tahdidlar amalga oshirilganda axborot aktivlariga nisbatan axborot xavfsizligi risklarini tahlil qilishning miqdoriy usul natijasi 5-jadvalda, Axborot aktivlariga nisbatan salbiy oqibat yuzaga kelish riski tahlili 6-jadvalda, Axborot xavfsizligi qoldiq riskini hisoblash natijalari 7-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Axborot aktivlarini identifikatsiya qilish va ularning qiymatini (ahamiyatini) aniqlash

№	Axborot aktivining nomi	Himoyalanganlik toifasi (klassi)	Axborot aktivining qiymati (ahamiyati)
1.	buxdu.uz	Ochiq axborot	6 (axborotning ahamiyati – 8)
2.	moodle.buxdu.uz	Ochiq axborot	6 (axborotning ahamiyati – 8)
3.	hemis.buxdu.uz	Ochiq axborot	6 (axborotning ahamiyati – 8)
4.	masofaviy.buxdu.uz	Ochiq axborot	3 (axborotning ahamiyati – 5)
5.	student.buxdu.uz	Ochiq axborot	7 (axborotning ahamiyati – 7)
6.	uniwork.buxdu.uz	Ochiq axborot	3 (axborotning ahamiyati – 5)
7.	citrus.buxdu.uz	Ochiq axborot	3 (axborotning ahamiyati – 5)
8.	journal.buxdu.uz	Ochiq axborot	3 (axborotning ahamiyati – 5)
9.	srep.buxdu.uz	Ochiq axborot	3 (axborotning ahamiyati – 5)
10.	pedskills.buxdu.uz	Ochiq axborot	3 (axborotning ahamiyati – 5)
11.	Korporativ elektron pochta	Ochiq axborot	3 (axborotning ahamiyati – 5)
12.	Universitet fayl serveri	Ochiq axborot	7 (axborotning ahamiyati – 7
13.	IP telefoniya	Ochiq axborot	7 (axborotning ahamiyati – 7)
14.	Ishchi stansiyalar	Ochiq va konfidensial axborot	3 (axborotning ahamiyati – 5)
15.	Server uskunalari	Ochiq va konfidensial axborot	8 (axborotning ahamiyati – 8)
16.	Kirish chiqishni nazorat qilish tizimi	Konfidensial axborot	3 (axborotning ahamiyati – 5)
17.	Videokuzatuv tizimi	Konfidensial axborot	3 (axborotning ahamiyati – 5)

2-jadval: Axborot tizimlari va resurslarining zaifliklari

Toifasi	Raqami	Zaifliklar
Apparat vositalari	VH01	Yetarlicha xizmat ko‘rsatilmaslik/ma’lumotlar tashuvchilarning nuqsonli installyatsiyasi
	VH02	Vositalarning davriy almashtirishlar sxemasining mavjud emasligi
	VH03	Namlikka, changga, ifloslanishga ta’sirchanlik
	VH04	Elektromagnit nurlanishga sezgirlik
	VH05	Konfiguratsiyaga o‘zgartirish kiritilishini nazorat qilish samaradorligining yo‘qligi
	VH06	Kuchlanishning nobarqarorligiga ta’sirchanlik
	VH07	Temperatura o‘zgarishlariga ta’sirchanlik
	VH08	Muhofazalanmagan saqlash
	VH09	Yo‘q qilish qoidalarining buzilishi
	VH10	Nazorat qilinmagan holda nusxa olish
	VS01	Dasturiy ta’minotning bo‘lmasligi yoki yetarlicha testlanmaganligi
	VS02	Dasturiy ta’minotdagi ma’lum bo‘lgan kamchiliklar
	VS03	Ishchi stansiyasini “tizimdan chiqish”siz qoldirish
	VS04	Axborot yetarli darajada o‘chirilmasdan ma’lumotlar tashuvchilarini berish yoki ulardan takroran foydalanish
	VS05	Audit dalillarining yo‘qligi
	VS06	Foydalanish huquqlarining noto‘g‘ri taqsimlanishi
	VS07	Keng tarqalgan dasturiy ta’minot

Toifasi	Raqami	Zaifliklar
	VS08	Vaqtga nisbatan amaliy dasturlarning noto‘g‘ri ma’lumotlarga qo‘llanilishi
Dasturiy ta’minot	VS09	Murakkab foydalanuvchi interfeysi
	VS10	Hujjatlarning yo‘qligi
	VS11	O‘rnatish parametrlarining noto‘g‘riligi
	VS12	Noto‘g‘ri ma’lumotlar
	VS13	Foydalanuvchi identifikatsiyasi va autentifikatsiyasi uchun mexanizmlarning mavjud emasligi
	VS14	Muhofaza qilinmagan parollar jadvallari
	VS15	Parollarning yomon menejmenti
	VS16	Keraksiz serverlardan foydalanish imkoniyati
	VS17	Oxirigacha ishlab chiqilmagan yoki dasturiy ta’minot
	VS18	Ishlab chiquvchilar uchun noaniq yoki to‘liq bo‘lmagan spetsifikatsiyalar
	VS19	O‘zgartishlar kiritilishini samarali nazorat qilishning yo‘qligi
	VS20	Dasturiy ta’minotni nazoratsiz yuklash va foydalanish
	VS21	Rezerv nusxalarning mavjud emasligi
	VS22	Hisobotlarni rahbariyatga taqdim etmaslik
Tarmoq	VN01	Xabar yuborilganligi yoki olinganligi isbotining yo‘qligi
	VN02	Muhofazalanmagan aloqa liniyalari
	VN03	Kabellarning yomon montaj qilinganligi
	VN04	Yagona ishlamay qolish nuqtasi
	VN05	Jo‘natuvchi va oluvchini identifikatsiya va autentifikatsiya qilishning yo‘qligi
	VN06	Xavfsiz bo‘lmagan tarmoq arxitekturasi
	VN07	Parollarni ochiq ko‘rinishda berish
	VN08	Tarmoqning noadekvat boshqarilishi (tizimning marshrutlashtirish xatolariga qarshi tura olish qobiliyati)
	VN09	Umumiy foydalanishdagi tarmoqqa muhofazalanmagan ulanishlar
	VN10	Muhofazalanmagan sezgir trafik
Xodimlar	VP01	Xodimlarning yo‘qligi
	VP02	Ishga qabul qilishning adekvat bo‘lmagan protseduralari
	VP03	Xavfsizlikni yetarlicha o‘qitmaslik
	VP04	Dasturiy ta’minotdan va uskunadan noto‘g‘ri foydalanish
	VP05	Xavfsizlik sohasidan xabardor emasligi
	VP06	Monitoring mexanizmlarining yo‘qligi
	VP07	Shtatdan tashqari xodimlar yoki texnik xodimlarning nazoratsiz ishlashi
	VP08	Xabarlar almashinish va ma’lumotlar uzatish vositalaridan to‘g‘ri foydalanish siyosatining yo‘qligi
Tashkilotning ishlash joyi	VC01	Bino va xonalarga kirishni fizik boshqarish vositalaridan adekvat bo‘lmagan va e’tiborsiz holda foydalanish
	VC02	Suv toshish ehtimoli bo‘lgan hududda joylashish
	VC03	Nostabil energiya bilan ta’minlash
	VC04	Binolar, eshiklar va derazalar fizik muhofazasining yo‘qligi
Tashkilot	VO01	Foydalanuvchilarni ro‘yxatga olish va chiqarish rasmiy protsedurasining yo‘qligi
	VO02	Kirish huquqini qayta ko‘rib chiqish rasmiy jarayonining yo‘qligi
	VO03	Buyurtmachilar va/yoki uchinchi shaxslar bilan shartnomalarda (xavfsizlik sohasida) shartlarning yetarli emasligi yoki yo‘qligi

Toifasi	Raqami	Zaifliklar
	VO04	Axborotni qayta ishlash vositalari monitoringi protseduralarining yo‘qligi
	VO05	Muntazam auditlarning (nazoratning) yo‘qligi
	VO06	Risklarni aniqlash va identifikatsiya qilish protseduralarining yo‘qligi
	VO07	Ma’mur va foydalanuvchining qayd etish jurnallarida nosozliklar to‘g‘risidagi xabarlar yozuvlarining yo‘qligi
	VO08	Kerakli darajada bo‘lmagan xizmat ko‘rsatish servisi
	VO09	Xizmat ko‘rsatish darajasi to‘g‘risida bitimning yo‘qligi yoki yetishmasligi
	VO10	O‘zgartirishlar kiritishni nazorat qilish protsedurasining yo‘qligi
	VO11	AXBT hujjatlarini nazorat qilish rasmiy protsedurasining yo‘qligi
	VO12	AXBT yozuvlarini nazorat qilish rasmiy protseduralarining yo‘qligi
	VO13	Umumiy foydalanishdagi axborotga nisbatan rasmiy mualliflashtirish jarayonining yo‘qligi
	VO14	Axborot xavfsizligi sohasida vazifalarni zarur tarzda taqsimlanmaganligi
	VO15	Uzluksiz ish rejalarining yo‘qligi
	VO16	Elektron pochtadan foydalanish siyosatining yo‘qligi
	VO17	Dasturiy ta’minotni foydalaniladigan tizimlarga kiritish protseduralarining yo‘qligi
	VO18	Konfidensial ma’lumotlarni qayta ishlash protseduralarining yo‘qligi
	VO19	Axborot xavfsizligi sohasidagi lavozim yo‘riqnomalarida javobgarlikning yo‘qligi
	VO20	Xodimlar bilan shartnomalarda (axborot xavfsizligi sohasida) shartlarning yo‘qligi yoki yetarlicha emasligi
	VO21	Axborot xavfsizligi insidenti yuz berganda muayyan intizomiy jarayonning yo‘qligi
	VO22	Mobil kompyuter texnikasidan foydalanish bo‘yicha rasmiy siyosatning yo‘qligi
	VO23	Rezerv aktivlarni nazorat qilishning yo‘qligi
	VO24	“Toza stol va toza ekran” siyosatining yo‘qligi yoki mos kelmasligi
	VO25	Axborotni qayta ishlash vositalarida mualliflashtirish mexanizmining yo‘qligi
	VO26	Xavfsizlikning buzilish monitoringi mexanizmlarining yo‘qligi
	VO27	Xavfsizlik zaifliklari to‘g‘risida hisobot protseduralarining yo‘qligi
	VO28	Intellektual mulk huquqlariga amal qilish protseduralarining yo‘qligi

Jadval №3. Universitetning axborot xavfsizligiga asosiy tahdidlarning ro‘yxati va tavsifi

Tahdidlar quyidagi mezonlarga ko‘ra tasniflanishi mumkin:
- vujudga kelish manbasiga ko‘ra: B-ichki, C-tashqi;
- vujudga kelishi sababli: A-tasodifiy, G-qasddan;
- vujudga kelish xususiyatiga ko‘ra: E – tabiiy yoki obyektiv, F – subyektiv.

Turkumi	T/r	Tahdid nomi	Manbaining ko‘rinishi, tabiati va sababi*	Ta’sir qilish obyektlari va oqibatlari	Mavjud zaifliklar	Tahdidni baholash
Jismoniy tahdidlar	TP01	Yong‘in	A, D, E, F, B, C	Barcha himoya obyektlari. Muvaffaqiyatsizlik yoki yo‘qotish	VH06, VH08, VN02, VN03, VC01, VC04	0,2
	TP02	Suv toshishi	A, D, E, F, B, C		VH03, VH04, VH07, VH08, VN02, VN03, VC01, VC04	0,2
	TP03	Ifloslanish, zararli radiatsiya	A, D, E, F, B, C		VH06, VH08, VC01, VC04	0,3
	TP04	Katta baxtsiz hodisa	A, D, E, F, B, C		VH03, VH06, VH08, VC04, VH08, VN02, VN03, VC01,	0,3
	TP05	Portlash, halokat	A, D, E, F, B, C		VH08, VC02, VC04 VH03, VH04, VN02, VC01	0,2
	TP06	Chang, korroziya, muzlash	A, D, E, F, B, C		VH03, VH06, VH07, VH08, VN02, VN03, VC01	0,1
Tabiiy tahdidlar	TN01	Iqlim hodisasi	A, E, C	Barcha himoya obyektlari. Muvaffaqiyatsizlik yoki yo‘qotish	VH04, VH08, VC01 VC04	0,4
	TN02	Seysmik hodisa	A, E, C		VH08, VC01	0,4
	TN03	Vulqon hodisasi	A, E, C		VH08, VC01, VC04	0
	TN04	Meteorologik hodisa	A, E, C		VH08, VC01, VC04	0,3
	TN05	Suv toshqini	A, E, C		VH08, VC02, VC04	0,4
